Annotatsiya. Maqola O'zbekistonda notariat institutining tashkiliy-huquqiy asoslari va o'zini o'zi boshqarish tahliliga bag'ishlangan. Ishda respublikada notarial tizim rivojlanishining asosiy bosqichlari, birinchi notarial organlarning shakllanishi va SSSRning so'nggi yillarida huquqiy tartibga solishda sodir bo'lgan o'zgarishlar ko'rib chiqilgan. Notarius faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar tahlili hamda uning kasbiy tayyorgarligi va akkreditatsiyasi jarayoniga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, maqolada O'zbekistonda notariatning tashkil etilishiga sovet huquq tizimining ta'siri tadqiq etilib, sovet davrida mavjud bo'lgan asosiy muammolar va o'ziga xosliklar ochib berilgan hamda ularning keyingi davrda notariat yo'nalishining rivojlanishiga ta'siri tahlil qilingan. Shu bilan birga, maqolada sobiq Ittifoqda umumiy yuridik islohot doirasida notariat faoliyatini yaxshilash maqsadida O'zbekistonda ko'rilgan huquqiy va tashkiliy chora-tadbirlar ham ko'rib chiqilgan. Shuningdek, notariatning mustaqilligi va uning samaradorligini oshirish, notariuslarning jamiyat va professional hamjamiyati manfaatlarini muvozanatini ta'minlash maqsadida qonunchilikni uyg'unlashtirish zarurligi ta'kidlangan. Notarial faoliyatni huquqiy tartibga solishni takomillashtirish istiqbollari, nomarkazlashtirish tendensiyalarini hisobga olgan holda va huquqning turli sohalarida o'zini o'zi tartibga solishni kuchaytirish o'rganilgan.

Kalit so'zlar: notariat, notarius, ixtiyoriy a'zolik, o'zini o'zi boshqarish, palata, qonuniylik, ijtimoiy foydalilik, ochiqlik va shaffoflik, erkinlik, ijobiy va konstruktiv yondashuv prinsiplari, nodavlat notijorat tashkilotlari

ИСТОРИЯ И ПРИНЦИП САМОУПРАВЛЕНИЯ НОТАРИАТА В УЗБЕКИСТАНЕ

Ашуров Дильшод Рустамович,
самостоятельный соискатель
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. Статья посвящена организационно-правовому анализу института нотариата в Узбекистане и принципу самоуправления в его функционировании. В работе рассмотрены основные этапы развития нотариальной системы в республике, становление первых нотариальных органов, а также изменения, произошедшие в правовом регулировании в последние годы существования СССР. Особое внимание уделено анализу нормативно-правовых актов, регулирующих деятельность нотариусов, а также вопросам их профессиональной подготовки и аккредитации. В статье исследуется влияние советской правовой системы на

формирование нотариата в Узбекистане, раскрываются характерные проблемы и особенности, существовавшие в советский период, и анализируется их влияние на развитие профессии нотариуса в постсоветское время. Кроме того, рассматриваются правовые и организационные меры, принятые в Узбекистане в рамках общей юридической реформы Советского Союза с целью совершенствования нотариальной деятельности. Также подчёркивается необходимость гармонизации законодательства для обеспечения независимости нотариата, повышения его эффективности и соблюдения баланса интересов нотариусов, общества и профессионального сообщества. Рассматриваются перспективы совершенствования правового регулирования нотариальной деятельности с учётом тенденций децентрализации и усиления саморегулирования в различных отраслях права.

Ключевые слова: *нотариат, нотариус, добровольное членство, самоуправление, палата, законность, социальная полезность, открытость и прозрачность, свобода, принципы позитивного и конструктивного подхода, неправительственные некоммерческие организации*

HISTORY OF THE NOTARY INSTITUTE IN UZBEKISTAN AND THE PRINCIPLE OF SELF-GOVERNANCE

Ashurov Dilshod Rustamovich,

Independent researcher at Tashkent State University of Law

Abstract. *The article is devoted to the analysis of the organizational and legal foundations and self-governance of the notary institute in Uzbekistan. The work examines the main stages of the development of the notarial system in the republic, the formation of the first notarial bodies, and the changes that occurred in the legal system in the last years of the USSR. Particular attention is paid to the analysis of the regulatory legal acts regulating the activities of the notary, as well as the process of their professional training and accreditation. The author studies the influence of the Soviet legal system on the organization of notaries in Uzbekistan, reveals the main problems and peculiarities that existed during the Soviet era, and assesses their impact on the development of the notarial profession in the post-Soviet period. The article also examines the legal and organizational measures taken in Uzbekistan to improve the activities of notaries within the framework of the general legal reform in the Soviet Union. The article emphasizes the need to harmonize legislation in order to increase the independence and efficiency of notaries, as well as to ensure a balance between the interests of society and the professional community of notaries. The prospects for improving the legal regulation of notarial activities, taking into account decentralization trends and strengthening self-regulation in various areas of law, are studied.*

Keywords: *notariat, notary, voluntary membership, self-government, chamber, legality, social usefulness, openness and transparency, freedom, principles of positive and constructive approach, non-governmental non-profit organizations*

Kirish

Notariat instituti vujudga kelishi, uning shakllanishi va takomillashib borishi bir nechta faktorlarga bog'liq. Bunda vaqt, yangi ijtimoiy munosabatlar hamda huquqiy asoslarning shakllanib, takomillashib borishi kabi faktorlar katta rol o'ynaydi. Notariatning tarixiy evolyutsiyasini tahlil qilish notariusning funksiyalari va roli qanday va nima uchun o'zgarganligini, shuningdek, huquqiy tizim

yangi talablarga qanday moslashganligini tushunishga imkon beradi.

Notarius – ma'lum darajada fuqarolar va yuridik shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini qonun hujjatlarida nazarda tutilgan notarial harakatlarni amalga oshirish orqali himoya qilishga qaratilgan fuqarolik jamiyati instituti [1, 10–12-b.].

Shu sababdan aytish mumkinki, notariat institutning vujudga kelishi jamiyatda shaxs-

larning ma'lum bir ijtimoiy-huquqiy bosqichga yetib, o'zaro fuqaroviy-huquqiy munosabatga kirishishi natijasidir.

Bunga notariusning funksiyalari, vakolatlari va tashkiliy tuzilishidagi o'zgarishlar kiradi. Notariatni tartibga soluvchi huquqiy normalardagi o'zgarishlarni o'rganish ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar notarial amaliyotlar va ularni tartibga solishga qanday ta'sir qilganini ko'rish imkonini beradi.

Notarial institutining tarixi juda qadimga borib taqaladi. Notarius so'zining lingvistik ma'nosi lotin tilida kotib, yozuvchi ma'nosini anglatgan.

Material va metodlar

Tadqiqotda notariat faoliyat bo'yicha qonunchilik normalari va huquqshunos olimlarning ilmiy-nazariy qarashlaridan foydalanildi hamda qiyosiy-huquqiy usul, tahlil, sintez, kuzatish, umumlashtirish, induksiya va deduksiya metodlari qo'llandi.

Tadqiqot natijalari

Ayrim olimlar notariat instituti davlat bilan birga vujudga keladi, deydi. Olim Z. Muqimovning ta'kidlashicha, "Jamiyatdan tashqari davlat va huquq bo'lmaganidek, davlat va huquqning jamiyatdan alohida ajralgan holdagi tarixi ham bo'lishi mumkin emas. Chunki davlat jamiyatning o'z mahsuli, o'zi kashf etgan siyosiy tashkiloti bo'lsa, huquq unga xizmat etuvchi mezonlar, qoidalar to'plamidan iborat" [2].

Markaziy Osiyo davlatlari hamda yurtimiz tarixida notariuslar vazifalari qaysi shaklda va kimlar tomonidan amalga oshirilganligi yuzasidan izlanishlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, xorijiy davlatlarda notariat institutining vujudga kelishi hamda shakllanishi bo'yicha tadqiqotlardan tashqari milliy tariximizda ham uning taraqqiy etish tarixini tahlil etish bilan milliy o'zlik, madaniyat va o'chmas qadriyatlarini saqlashga erishish mumkin. Jamiyatda o'rnatilgan huquq va tartib shu jamiyat xalqining qadriyatlarini, o'tmishi va qarashlari, madaniyati bilan o'zaro bog'liq bo'lsa, jamiyat taraqqiy etishi mumkin.

Notariatning vujudga kelishi fuqarolik munosabatlari va fuqarolik jamiyatining rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq. Huquqning yangi instituti vujudga kelishi uchun ma'lum tarixiy va huquqiy shartlar zarur bo'ladi. Notariatning paydo bo'lishi shartnomada taraflar o'z manfaatlarini himoya qilishi uchun shaxslarning huquq va majburiyatlarini qonuniy shaklda belgilab olishda muhim ahamiyat kasb etdi [3].

O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivida saqlanayotgan hujjatlar va boshqa tarixiy manbalarga tayanib aytish mumkinki, shariat va odat normalari asosida ish ko'rilgan zamonlarda notarial harakatlarni amalga oshiruvchi maxsus shaxslar bo'lmagan. Biroq nizoli ishlar yoki shikoyatlar qozilar tomonidan guvohlar ishtirokida hal etilgan. Bunday hollarda qozilar mazmunan notarial harakatlarni ham amalga oshirganlar. Bunday holat Xorazm davlatchiligi tarixida ham kuzatiladi. O'sha vaqtlarda fuqarolar o'rtasidagi munosabatlar odat normalari bilan tartibga solingan. Bu normalar huquqiy va huquqiy bo'lmagan odatlarga bo'lingan. Huquqiy odatlar davlat tomonidan tan olinib, yuridik kuchga ega bo'lgan.

SSSR davrida O'zbekistonda notariatni tartibga soluvchi normativ hujjatlar va qonun hujjatlarini, shu jumladan, SSSR Konstitutsiyasi, notarial faoliyatga oid kodekslar va dekretlarda sotsialistik huquq tizimi bo'yicha notariusga davlat nazorati va fuqarolarning huquqlarini himoya qilish vositasi sifatida qaralgan.

Sobiq Ittifoqda notariat instituti davlat tomonidan qat'iy nazorat qilinadigan markazlashtirilgan tizimning bir qismi edi. Notarial funksiyalar va majburiyatlar sovet qonunchiligi bilan belgilangan va Ittifoqning barcha respublikalari yagona sovet huquq tizimiga bo'ysungan.

I.N. Bogatiryova, S.G. Pavlikov kabi olimlar sobiq Ittifoq davrida notariat tizimi "demokratik markazlashtirish" tamoyiliga asoslangan degan yondashuvni ilgari suradi [4].

SSSR Markaziy ijroiya qo‘mitasining 1926-yil 14-maydagi “Davlat notariusini tashkil etishning asosiy prinsiplari to‘g‘risida”gi qarori bilan davlat notariusini tashkil etishning quyidagi prinsiplari mustahkamlangan edi [5]:

- davlat notariusi ish haqini faqat davlatdan oladi;
- davlat notariusining boshqa lavozimni egallashi taqiqlanadi;
- davlat notariusi kooperativlar va jamoat tashkilotlarida, savdo va sanoat tashkilotlari faoliyatida ishtirok etishi va himoyachilar hay‘ati a‘zosi bo‘lishi mumkin emas;
- davlat notariusi notarial sirni saqlashi shart.

Biroq sotsialistik mafkura sharoitida notariusning tabiati va funksiyasi bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda notariusga xos bo‘lgan an‘anaviy funksiyalardan uzoq edi. O‘rnatilgan tizimga qaramay, O‘zbekistonda notarial idoralar qator muammolarga duch keldi. Xususan, malakali kadrlar yetishmasligi, notariuslarning cheklangan vakolatlari, notarius mustaqilligining yo‘qligi kabi muammolar ko‘pincha manfaatlar to‘qnashuviga olib keldi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Umuman olganda, notariat institutining shakllanishi va rivojlanish genezisini tahlil qilgan holda, uni quyidagicha davrlarga ajratish mumkin:

1. *Ilk davlatchilik davri (Avesto).* Ushbu davrda hujjatlar va ularning jamiyatdagi ahamiyati haqida birinchi eslatmalarni kuzatish mumkin. Bitimlarni yozish va hujjatlashtirishning mavjudligi kelajakda notarial faoliyat uchun asos bo‘ldi.

2. *Ilk o‘rta asrlar.* Ushbu bosqich savdo va iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi bilan tavsiflanadi, bu esa bitimlar va shartnomalarni tasdiqlash zarurligiga olib keldi. Notarial funksiyalar ruhoniylar va hokimiyat vakillari tomonidan amalga oshirila boshlandi.

3. *O‘rta asrlar.* Shariat huquq tizimining o‘rnatilishi bilan qozilar timsolida notarius mustaqil institut sifatida shakllana boshladi.

4. *Chor Rossiyasi (mustamlaka) davri.* O‘zbekistonda Rossiya qonunchiligining joriy etilishi shariat normalari asosida faoliyat yuritgan qozilik instituti bilan gibrid tizimni shakllantirdi.

5. *Sovet davri.* Bu davrda notariat sotsialistik tizim doirasida yangi yo‘nalishga ega bo‘ldi. Notariuslar davlat uchun ishlay boshladilar, mazkur institutning asosiy huquqiy tabiatlaridan biri erkin bozor munosabatlari va sog‘lom raqobatdan ko‘ra rejali ma‘muriy buyruqbozlikka asoslangan notariat tizimini shakllantirdi.

6. *Mustaqillik davri.* O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng notariat yana islohotlarga uchradi. Mamlakat notarius sohasida o‘z qonunchiligini ishlab chiqa boshladi, tizimni modernizatsiya qildi va uni bozor iqtisodiyotiga moslashtirdi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyati erkinligi va raqobat uchun sharoitlar yaratish, iqtisodiyot sektorlariga davlat bosimini kamaytirishga qaratilgan keng qamrovli islohotlar o‘tkazilmoqda.

Shu bilan birga, biznes va jamiyatning o‘zini o‘zi tashkil etish va o‘zini o‘zi tartibga solish shakllari sust rivojlanganligi tadbirkorlik va professional faoliyat bilan shug‘ullanish uchun to‘la-to‘kis erkin muhitni yaratishga to‘sqinlik qilmoqda.

Mavjud ortiqcha ma‘muriy va byurokratik to‘siqlar, davlat va biznes manfaatlarining nomutanosibligi tadbirkorlik faoliyati subyektlarida ortiqcha moddiy va vaqt sarf-xarajatlari vujudga kelishiga olib kelmoqda.

Bugungi kunda o‘zini o‘zi tartibga soluvchi tashkilotlarining tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda amalga oshirilmoqda:

birinchidan, davlat funksiyalarini nodavlat notijorat tashkilotlariga bosqichma-bosqich o‘tkazish hamda litsenziyalash tartibtaomillarini nodavlat notijorat tashkilotlarga majburiy a‘zolik bilan almashtirish;

ikkinchidan, ixtiyoriy a‘zolikka asoslangan nodavlat notijorat tashkilotlarini tu-

zish va ularni rivojlantirishning tadbirkorlik va professional faoliyat subyektlarini rag'batlantirish;

uchinchidan, qoidalar va standartlarni ishlab chiqish hamda ularning amal qilishini nazorat qilish mexanizmlarini yaratishda tashkiliy-metodik ko'mak ko'rsatish orqali o'zini o'zi tartibga soluvchi tashkilotlarning norma ijodkorligini rivojlantirish.

So'nggi yillarda nodavlat notijorat tashkilotlarining nazariy asoslari turli olimlar tomonidan tadqiq etilmoqda. Xususan, MDH davlatlari olimlaridan R.N. Yakshilova [6] tomonidan mazkur institutning huquqiy maqomi hamda S.V. Vasilyeva [7], I.V. Yershova [8], Y.A. Parubin [9], Shennikova [10] tomonidan mazkur fenomenning konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi tadqiq etilgan.

Advokatlar palatasi misolida o'zini o'zi tartibga soluvchi tashkilotlarning huquqiy maqomini o'rgangan olim V. Davlyatovning fikricha, o'zini o'zi tartibga soluvchi tashkilotlar davlat organi ham, nodavlat notijorat tashkiloti ham, tadbirkorlik subyekti ham emas, balki yangi tashkiliy-huquqiy shakl hisoblanadi [11].

Fikrimizcha, yuqoridagi fikrga qo'shilib bo'lmaydi. Nodavlat notijorat tashkilotlarining yuridik tabiatiga xos barcha xususiyatlar o'zini o'zi tartibga soluvchi tashkilotlarga ham tegishli. Shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlarining qonuniylik, ixtiyoriylik, o'zini o'zi boshqarish, ijtimoiy foydaliqlik, ochiqlik va shaffoflik, erkinlik, ijobiy va konstruktiv yondashuv prinsiplari mazkur tashkilotlarga ham tegishli.

Umuman olganda, notariat hokimiyatining har qanday tizimiga tashkiliy jihatdan kirmaydi, u davlat tomonidan berilgan vakolatlarni mustaqil davlat muassasasi sifatida amalga oshiradi. U huquqni muhofaza qilish organlari blokiga tegishli vazifalarni bajarsada, lekin davlat organi hisoblanmaydi. Davlat notarial faoliyatning asosiy standartlarini belgilaydi. Notariat faoliyati to'liq davlat tomonidan boshqarilishi davlatga qimmatga

tushadi. Bu yuqorida ta'kidlangan ijtimoiy davlat konsepsiyasiga mos tushmaydi. Shu sababli, so'nggi yillarda O'zbekistonda ommaviy xizmatlarni ko'rsatish, fuqarolar va yuridik shaxslarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy tashabbuslari, sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida davlat funktsiya va vakolatlarini berish (делегирование) orqali o'zini o'zi tartibga solish tendensiyasi tobora ortib bormoqda [12].

Fikrimizcha, o'zini o'zi tartibga solish vakolatini asosan ikkita yo'nalishda faoliyat yuritayotgan nodavlat notijorat tashkilotlariga berish mumkin. Birinchidan, bu tadbirkorlar uyushmalari bo'lsa, ikkinchidan, professional faoliyat yurituvchilar uyushmalaridir.

Bunday holda davlat o'zini o'zi tartibga solish faoliyatining asosiy standartlarini belgilaydi. Muayyan faoliyatning to'liq davlat tomonidan boshqarilishi davlatga qimmatga tushadi. Bu borada notariat, tadbirkorlik, advokatlik va hunarmandlik kabi sohalarida o'zini o'zi tartibga soluvchi tashkilotlarning faoliyatini alohida ajratib ko'rsatish mumkin.

Yevgeniy Suxovning fikricha, o'z-o'zini tartibga solish tadbirkorlik subyektlari yoki professional uyushmalar tomonidan amalga oshiriladigan mustaqil va tashabbuskorlik faoliyatni anglatadi. Uning mazmuni esa faoliyatning standartlari va qoidalarini ishlab chiqish va o'rnatish, shuningdek, ushbu standartlar va qoidalar talablariga rioya etilishini nazorat qilishdir [13].

Fikrimizcha, o'zini o'zi tartibga soluvchi tashkilotlar rivojlanish maqsadlariga erishish, iqtisodiyot va ijtimoiy sohani muvaffaqiyatli modernizatsiyalashda barcha sektorlarning sa'y-harakatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, jamiyat, biznes va davlat o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning samarali mexanizmlarini yo'lga qo'yishga xizmat qiladi [14].

Xulosalar

Yuqoridagilardan kelib chiqib, o'zini o'zi tartibga soluvchi tashkilotlar deganda quyidagi mualliflik ta'rifini ilgari surish mumkin:

“O‘zini o‘zi tartibga soluvchi tashkilot tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) ishlab chiqish sohasi yoki ishlab chiqarilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bozori yagonaligidan kelib chiqib yoxud professional faoliyat subyektlarining muayyan turini birlashtirgan, ixtiyoriy yoki majburiy a‘zolikka asoslangan, uyushma (ittifoq) shaklidagi yoki qonun hujjatlarida belgilangan boshqa tashkiliy-huquqiy shakldagi nodavlat notijorat tashkilotidir”.

O‘zini o‘zi tartibga soluvchi tashkilot tadbirkorlik yoki professional faoliyatni amalga oshiruvchi jismoniy yoki yuridik shaxslar tashabbusiga ko‘ra yoxud qonunga muvofiq tashkil etiladi hamda faoliyatini tugatadi.

Eng asosiy jihatlardan biri tadbirkorlik yoki professional faoliyat sohasidagi majburiy a‘zolik masalasini qonun asosida tartibga solishdir. Bunda o‘zini o‘zi tartibga solish, birinchidan, davlat funksiyalarini amalga oshirish yoki davlat organlari tomonidan bajariladigan muayyan funksiyalarni topshirish bilan bog‘liq faoliyat sohalarida, ikkinchidan, tadbirkorlik va professional faoliyatning muayyan turlarini litsenziyalashda amalga oshiriladi.

Nodavlat notijorat tashkilotlarning huquqiy tabiati uning tushunchasi va tashkil qilinish prinsipidan kelib chiqadi. Unga ko‘ra, nodavlat tashkiloti ta‘sischisi davlat sanalmaydi, balki mustaqil subyektlar sanalib, ushbu subyektlar davlat hokimiyati vakolatlariga ega bo‘lmaydi. Mazkur holatda o‘zini o‘zi tartibga solish vakolati berilgan nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqiy maqomi

qonun bilan belgilanishi masalaning yechimi sifatida ko‘rilmoqda. Shu bois O‘zbekiston Respublikasining “O‘zini o‘zi boshqaruvchi tashkilotlar to‘g‘risida”gi qonuni loyihasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, o‘zini o‘zi tartibga solishning xususiyatlarini quyidagicha izohlash mumkin:

✓ o‘zini o‘zi tartibga solishni joriy etish va rivojlantirishning qonunchilik bazasi va konseptual asoslarini shakllantirish;

✓ o‘zini o‘zi tartibga soluvchi tashkilotlarga davlat funksiyalarini bosqichma-bosqich topshirish va litsenziya tartib-taomillarini majburiy a‘zolik bilan almashtirish;

✓ ixtiyoriy a‘zolikka asoslangan o‘z-o‘zini tartibga soluvchi tashkilotlarni tashkil etish hamda rivojlantirish tadbirkorlik va kasbiy faoliyati subyektlarini rag‘batlantirish;

✓ qoidalar va standartlarni ishlab chiqishda tashkiliy-uslubiy yordam ko‘rsatish va ularga rioya etilishini nazorat qilish mexanizmlarini yaratish orqali o‘zini o‘zi tartibga soluvchi tashkilotlarning norma ijodkorligi faoliyatini rivojlantirish.

Davlat barcha sohani o‘zi nazorat qilishi ijtimoiy davlat konsepsiyasiga ham to‘g‘ri kelmaydi. Shu sababli so‘nggi yillarda O‘zbekistonda ommaviy xizmatlarni ko‘rsatish, fuqarolar va yuridik shaxslarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy tashabbuslari, sa‘y-harakatlarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida davlat funktsiya va vakolatlarini berish (делегирование) orqali o‘zini o‘zi tartibga solish tendensiyasi tobora kuchayib bormoqda.

REFERENCES

1. Alferov I.A. Vozniknoveniye i razvitiye notarial’nykh uchrezhdeniy v Rossii [The emergence and development of notarial institutions in Russia]. *Legislation*, 2006, no. 1, pp. 10–12.
2. Muqimov Z. O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi [History of the state and law of Uzbekistan]. Tashkent, Adolat Publ., 2003, p. 5.
3. Grechka I.D. Istoriya vozniknoveniya i dinamika razvitiya notariata v Rossiyskoy Federatsii [History of the emergence and dynamics of development of notaries in the Russian Federation]. *Elect-*

ronic Bulletin of the Rostov Socio-Economic Institute, 2016, no. 3. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/istoriya-vozniknoveniya-i-dinamika-razvitiya-notariata-v-rossiyskoy-federatsii>

4. Bogatyryova I.N., Pavlikov S.G. Organizatsii gosudarstvenno-pravovykh institutov, suda i notariata SSSR SSR [Organizations of state and legal institutions, courts and notaries of the USSR]. *Scientific Works of the Russian Academy of Advocacy and Notary*, 2012, no. 3, pp. 49–57.

5. Sokolov N.A. Stanovleniye i razvitiye notariata [Formation and development of notaries]. *Notary Publ.*, 2021, pp. 8–14.

6. Yakshilova R.N. Pravovoy status notarial'noy palaty [Legal status of the notary chamber]. 2013, pp. 268–276.

7. Vasil'yeva S.V. et al. Samoregulirovaniye kak osnovaniye peredachi publichno-vlastnykh polnomochiy [Self-regulation as a basis for the transfer of public authority]. *Bulletin of St. Petersburg University. Law*, 2011, no. 3, pp. 72–80.

8. Yershova I.V. Samoregulirovaniye predprinimatel'skoy i professional'noy deyatel'nosti: voprosy teorii i zakonodatel'stva [Self-regulation of entrepreneurial and professional activities: issues of theory and legislation]. *Current issues of Russian law*, 2014, no. 10, pp. 2142–2150.

9. Parubin Ye.A. Advokatskaya palata i notarial'naya palata [Bar Association and Notary Chamber]. 2021.

10. Vasil'yeva S.V. Samoregulirovaniye kak sposob pravovoy detsentralizatsii v Rossii [Self-regulation as a method of legal decentralization in Russia]. *Issues of State and Municipal Administration*, 2013, no. 4, pp. 191–202.

11. Davlyatov V.Kh. Yuridicheskaya priroda i osobennosti pravovogo statusa advokatskikh formirovaniy [Legal nature and features of the legal status of advocacy groups]. *Review of Law Sciences*, 2020, no. 1, pp. 188–191.

12. Ashurov D. The role of new notaries in raising the prestige of new Uzbekistan. *The American Journal of Political Science Law and Criminology*, 2022, vol. 4, no. 5, pp. 43–48.

13. Sukhov Ye.P. Samoreguliruyemye organizatsii. Yuridicheskiye, finansovyye, nalogovyye aspekty [Self-regulatory organizations. Legal, financial, tax aspects]. Moscow, Publ. House "GrossMedia", ROSBUKH Publ., 2010, pp. 4–5, 72.

14. Narimanov B. Nodavlat tijorat tashkilotlariga o'z-o'zini tartibga solish huquqini berish: nazariy va huquqiy muammolar. [Granting non-governmental commercial organizations the right to self-regulation: theoretical and legal issues.]. *Lawyer Newsletter*, 2022, vol. 2, no. 6, pp. 13–18.

Kelib tushgan / Получено / Received: 24.02.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 18.03.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 27.03.2025

DOI: 10.51788/tsul.rols.2025.9.1./NLTG1762

UDC: 347.26(045)(575.1)

O'ZGANING YER UCHASTKASIDAN CHEKLANGAN TARZDA FOYDALANISH (SERVITUT) HUQUQI

Abdusamadova Zarina Shobiddin qizi,

Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi

ORCID: 0009-0009-5864-4750

e-mail: shavkatovazarina89@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqola yer uchastkasidan cheklangan tarzda foydalanish huquqi (servitut)-ning huquqiy asoslari, mohiyati va amaliy ahamiyatiga bag'ishlangan. Yer resurslarini huquqiy muhofaza qilish va undan oqilona foydalanishni ta'minlashga alohida e'tibor berilayotgan hozirgi paytda yer uchastkasi egalari va boshqa manfaatdor tomonlar o'rtasida servitut munosabatlarining shakllanishi, tartibga solinishini o'rganish dolzarb masaladir. Shu bois servitutning fuqarolik va yer huquqi doirasidagi o'rni, unga oid milliy qonunchilik, xususan, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi va Yer kodeksining tegishli normalari bilan birga, servitutning vujudga kelish asoslari, belgilash tartibi va uni davlat ro'yxatiga olish masalalari ko'rib chiqildi. Xususan, maqolada servitutni sud orqali o'rnatish va tomonlar o'rtasida kelishmovchilik yuzaga kelganda nizolarni hal etish tartiblari, servitutning turlari, muddati, haq to'lash lozim bo'lgan holatlar va uni bekor qilish shartlari muhokama qilindi. Servitutning milliy qonunchiligimizda izohlanishi va ushbu tushunchaga nisbatan olimlarning munosabatlari empirik, tarixiy, qiyoslash metodlaridan foydalangan holda tadqiq qilindi. Muallif servitutning ijtimoiy-mulkiy munosabatlarni tartibga solishda muhim huquqiy institut ekanini ta'kidlab, yer uchastkasidan foydalanishning samaradorligini oshirishga qaratilgan huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish bo'yicha o'z taklif va tavsiyalarini bayon etdi. Ushbu tavsiyalar yuristlar, yer huquqi bo'yicha mutaxassislarga amaliyotda, ilmiy tadqiqotchilar uchun esa ilmiy izlanishlarida foydali manba bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: servitut, drenaj ishlari, yer uchastkasi, ko'chmas mulk, ekinzorlar, elektr uzatgich, aloqa, quvur tarmoqlari, ommaviy servitut, xususiy servitut, o'tish servituti

ПРАВО ОГРАНИЧЕННОГО ПОЛЬЗОВАНИЯ ЧУЖИМ ЗЕМЕЛЬНЫМ УЧАСТКОМ (СЕРВИТУТ)

Абдусамадова Зарина Шобиддин кизи,

самостоятельный соискатель Ташкентского
государственного юридического университета

Аннотация. Данная статья посвящена правовым основам, сущности и практическому значению права ограниченного пользования чужим земельным участком (сервитута). В условиях повышенного внимания к правовой охране и рациональному использованию земельных ресурсов актуальным является изучение формирования и регулирования сервитутных отношений между собственниками земельных участков и другими заинтересованными лицами. В статье рассматривается место сервитута в системе гражданского и земельного

права, нормы национального законодательства, в частности Гражданского кодекса и Земельного кодекса Республики Узбекистан, а также основания возникновения сервитута, порядок его установления и государственная регистрация. Особое внимание уделено вопросам установления сервитута в судебном порядке, разрешения споров между сторонами, видам сервитута, срокам действия, случаям, когда необходимо возмещение, и условиям прекращения действия сервитута. Правовая природа сервитута, а также мнения учёных относительно данной правовой категории проанализированы с использованием эмпирического, исторического и сравнительного методов. Автор подчёркивает, что сервитут является важным правовым институтом в регулировании социально-имущественных отношений и предлагает рекомендации по совершенствованию правовых механизмов, направленных на повышение эффективности использования земельных участков. Представленные предложения могут служить полезным источником как для практикующих юристов и специалистов по земельному праву, так и для научных исследователей.

Ключевые слова: сервитут, дренажные работы, земельный участок, недвижимое имущество, посевные участки, линии электропередачи, связь, трубопроводы, публичный сервитут, частный сервитут, проходной сервитут

THE RIGHT TO LIMITED USE OF ANOTHER'S LAND (SERVITUDE)

Abdusamadova Zarina Shobiddin kizi,

Independent researcher at Tashkent State University of Law

Abstract. This article is dedicated to the legal foundations, essence, and practical significance of the right to limited use of a land plot (servitude). At the present time, when special attention is paid to ensuring the legal protection and rational use of land resources, the study of the formation and regulation of servitude relations between owners of land plots and other interested parties is an urgent issue. In this regard, the role of easement in the sphere of civil and land law, along with the relevant norms of national legislation, in particular, the Civil Code and the Land Code of the Republic of Uzbekistan, the grounds for the emergence of servitude, the procedure for its establishment, and the issues of its state registration were considered. In particular, the article discusses the procedure for establishing an servitude through the court and resolving disputes in the event of disagreements between the parties, the types and duration of the servitude, the circumstances under which payment is made, and the conditions for its termination. The interpretation of servitude in our national legislation and the attitude of scholars towards this concept were studied using empirical, historical, and comparative methods. Noting that the servitude is an important legal institution in the regulation of socio-property relations, the author presented his proposals and recommendations for improving the legal mechanisms aimed at increasing the efficiency of land use. These recommendations serve as a useful resource for lawyers, specialists in land law in practice, and for scientific researchers in their scientific research.

Keywords: servitude, drainage works, land plot, real estate, agricultural lands, power lines, communication, pipelines, public servitude, private servitude, transit servitude

Kirish

Yerdan foydalanishni tashkil etishda uni ilm-fan integratsiyasi asosida olib borish, uning muhofazasini to'g'ri ta'minlash orqali mustahkam iqtisodiy rivojlanishga erishiladi. Mamlakatimizda iqtisodiy islohotlar amalga oshirilayotgan hozirgi sharoitda yer resurslarini huquqiy muhofaza qilish va undan oqilo-

na foydalanishni ta'minlashga alohida e'tibor berilmoqda. Bu borada 20 ga yaqin qonunlar hamda 200 ga yaqin qonunosti aktlar qabul qilingan [1, 56–57-b.].

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard maqsadi – tabiiy resurslardan, shu jumladan, yerdan samarali foydalanish hisoblanadi. Xusu-

san, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "... yangi va foydalanishdan chiqqan 464 ming gektar maydonni o'zlashtirish, ilm-fan va innovatsiyaga asoslangan agroxizmatlar ko'rsatish tizimini takomillashtirish, agrosanoat korxonalarini xomashyo bilan ta'minlash va ishlab chiqarish hajmini 1,5 baravar oshirish" kabilar muhim strategik vazifalar sifatida belgilab berilgan [2, 7–9-b.].

Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida servitut zamonaviy yer huquqshunosligi nuqtayi nazaridan o'ziga xos ahamiyat kasb etuvchi hamda amaliy jihatdan bir qancha muammoli masalalar yechimini talab qiladigan institutga aylangan.

Shu o'rinda *servitut* so'zi ma'nosiga to'xtalsak. Servitut (lotincha "*servitus*"; inglizcha "*servitude*", "*easement*") qadimgi Rim davlati davrida qabul qilingan huquqiy hujjatlardan biri hisoblanib, o'zganing ko'chmas mulkidan cheklangan tarzda foydalanish huquqi deb e'tirof etilgan. Umumiy qilib aytganda, bunda o'zganing ko'chmas mulkidan cheklangan tarzda foydalanish huquqi (servitut), yon atrofdagi qo'shni bo'lgan bir yoki bir necha yer uchastkalari-dan cheklangan tarzda foydalanish huquqi tushuniladi [3, 174–177-b.].

Ushbu huquqiy shakl orqali ehtiyojlarni qondirishdagi barqarorlik uning ashyoviylik xususiyati bilan ta'minlanadi: ya'ni servitut huquqining predmeti muayyan shaxslarning harakati emas, balki yer uchastkasining o'zi hisoblanadi. Shu sababli servitut huquqi subyekti qo'shning yer uchastkasidan cheklangan foydalanish huquqini mulkdor o'zgarishidan qat'i nazar, saqlab qolgan. Servitut yer uchastkasiga tegishli bo'lib, mulkdorlar o'zgargan taqdirda ham, to'la saqlab qolingan.

Yuqoridagilar asosida servitut u yoki bu munosabat bilan boshqaning mulkidan cheklangan tarzda foydalanish sifatida tavsiflanadi. Bunda mazkur huquq yerga nisbatan xususiy mulkchilik belgilangani hamda alohida

yer uchastkalari o'rtasida tabiiy qulayliklar teng taqsimlanmagani sababli yuzaga keladigan noqulaylik va qiyinchiliklarni bartaraf etish nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega.

Demak, servitut o'zining mohiyatiga ko'ra, klassik shaklda Rim huquqi davrida vujudga kelgan huquqiy tushuncha sifatida o'zga (boshqa) shaxsga tegishli bo'lgan ashyodan foydalanish huquqi (servitut) ma'nosini anglatgan [4, 298–317-b.].

Material va metodlar

Maqolada yer uchastkasidan cheklangan tarzda foydalanish huquqi (servitut)ning huquqiy asoslari, qonunchilik bazalari, servitutni belgilashda amalga oshiriladigan tamoyillar tahlili yoritib berilgan.

Mavzuni tadqiq qilish asnosida:

1) o'zganing yer uchastkasidan cheklangan tarzda foydalanishning huquqiy asosini o'rganib chiqishga imkon beruvchi empirik metod;

2) servitutning kelib chiqishi, uning ahamiyati, mohiyatining huquqiy asoslarini, nazariya va amaliyotdagi tajribalarini o'rganib chiqish imkoniyatini beradigan tarixiy metod;

3) o'zaro mavjud elementlar majmui sifatida xalqaro qonunchilikdagi qonunlarni qiyoslash metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

Mustaqillik yillarida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, huquqiy sohalarda amalga oshirilgan tub islohotlar, bozor iqtisodiyotiga o'tilishi natijasida yerga nisbatan ijtimoiy munosabatlar yangicha mazmun kasb etdi. Hozirgacha ushbu munosabatlar subyektlarining huquqiy holati takomillashtirilmoqda, ularning huquqlari kengaytirilmoqda, yerdan foydalanishga nisbatan turli mulkchilik va xo'jalik yuritish shakllarini joriy etish uchun imkoniyatlar yaratilmoqda.

Yangi ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy o'zgarishlar sababli yer, suv va boshqa tabiiy resurslar endi cheklangan tarzda fuqarolik muomalasiga kiritilib, unga nisbatan ham fuqarolik shartnomalari, ya'ni ipoteka, garov,

meros, oldi-sotdi, ijara, servitut kabi shartnomalar tuziladigan bo'ldi [3, 181–203-b.]. Bulardan, xususi servitut:

- 1) ma'lum bir shaxs foydasiga o'rnatilishi;
- 2) vujudga kelish maqsadi yakuniy xarakter kasb etmasligi;
- 3) shartnoma asosida vujudga kelishi;
- 4) davlat ro'yxatidan o'tkazilishi kabi belgilarga ega bo'ladi.

A.N. Jumanovning fikricha [5, 22–25-b.], ushbu servitut belgilanishi mustahkamlangan qonun yoki boshqa qonunosti hujjati orqali amalga oshirilishi ommaviy servitutlar vujudga kelishining o'ziga xos xususiyati bo'lib, xususi servitutlar vujudga kelishidan (shartnoma yoki sud qaroriga asosan) farqlanadi.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida ommaviy servitutni qo'llash asoslari belgilangan. Ommaviy servitut yerdan foydalanishning ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan muhim huquqiy institutlaridan biri bo'lib, u jamoat manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan. Servitutning bu turi fuqarolarning yoki yuridik shaxslarning muayyan ehtiyojlarini qondirish uchun belgilanadi.

Ommaviy servitut, qoida tariqasida, davlat yoki jamoat ahamiyatiga ega bo'lgan ehtiyojlarni qondirish maqsadida o'rnatiladi. Masalan, yo'llarning o'tishi, elektr yoki aloqa tarmoqlarini o'tkazish, quvurlarni yotqizish va drenaj ishlarini amalga oshirish kabi holatlar bunga misol bo'lishi mumkin. Bunda servitutni o'rnatish jarayoni, uning qonuniy asoslari va davlat ro'yxatidan o'tkazilishi Yer kodeksi hamda O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 23-oktabrdagi "Yer to'g'risidagi qonunchilik takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ–871-sonli Qonuni bilan tartibga solinadi.

Ommaviy servitutning o'ziga xos xususiyati shundaki, uni qo'llash jamoat manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan bo'lib, u yer egasiga ma'lum majburiyatlarni yuklaydi.

Biroq bunda yer egasining huquqlari cheklanishiga qaramay, uning manfaatlari ham inobatga olinishi lozim.

O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksiga muvofiq, ommaviy servitut o'rnatilishi uchun asosiy shart – bunday cheklashlarning ijtimoiy zaruratini tasdiqlovchi omillarning mavjudligidir. O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 30-moddasiga muvofiq, servitut – o'zganing yer uchastkasidan cheklangan tarzda foydalanish huquqidir.

Servitut huquqi boshqa shaxsning mulkiga nisbatan jismoniy yoki yuridik shaxslarga berilgan qonuniy huquqdir. U o'tish huquqini, suv manbalariga kirish huquqini yoki kommunal tarmoqlarni o'rnatish va saqlash huquqini o'z ichiga olishi mumkin [1, 205–209-b.].

Bir qator mualliflar, masalan, B.V. Yerofeyev, servitutni qo'shni yer uchastkasidan cheklangan foydalanish huquqi sifatida ta'riflaydi [6, 252-b.], biroq bu ta'rif, fikrimizcha, qonunchilik kontekstiga mos kelmaydi, chunki mulk huquqi tamoyillariga rioya qilgan holda zarurat tug'ilganda har qanday shaxs uchun birovning yer uchastkasidan foydalanishning cheklangan huquqi paydo bo'lishi mumkin.

Bugungi kun islohotlaridan kelib chiqqan holda, bizningcha, servitut tushunchasini quyidagicha to'ldirish to'g'riroq bo'lar edi: "...ayrim yer uchastka egalari boshqa yer uchastkasi egalaridan qonunga belgilab qo'yilgan tarzda yer uchastkasidan huquq talab qilishga haqli. Ayniqsa, qo'shni yer uchastkasi egasi, agar ushbu huquqsiz o'z yeridan foydalana olmasa, qo'shnining yer uchastkasidan foydalanish huquqiga ega bo'lishi mumkin".

Tadqiqot natijalari tahlili

Servitut shartnomasi. Servitut shartnomasi – yer egasi va servitut egasi o'rtasidagi huquqiy shartnoma bo'lib, servitutning shartlarini belgilaydi. Servitut shartnomalarida yer egasining va servitut belgilovchi shaxsning huquq va majburiyatlari aniq belgilanishi shart. Shuningdek, shartnomada tomonlarga

yuklatilgan majburiyatlar bajarilishi zarurdir.

Servitut shartnomasida yer egasi uchun ham, servitut egasi uchun ham ularning huquq va majburiyatlari aniq belgilab qo'yilgani sababli bu huquqiy himoyani ta'minlaydi. Servitut hududidan foydalanish va texnik xizmat ko'rsatish masalalari aniq belgilanadi. Huquqiy me'yorlarning belgilab qo'yilgani esa kelgusi avlodlar uchun servitut o'z maqsadiga xizmat qilishini ta'minlaydi, bu nizolar yoki tushunmovchiliklar ehtimoli kamayishiga ham sabab bo'ladi.

Servitut shartnomalari ishtirokchilarning o'ziga xos ehtiyojlarini qondirish uchun o'zgartirilishi mumkin, bu esa servitut hududidan foydalanish va boshqarishda moslashuvchanlik imkonini beradi.

Servitut uchun haq – mulkdorga boshqa shaxs yer uchastkasining bir qismidan ma'lum maqsadda foydalanish uchun mutlaq va doimiy huquq beruvchi mulkiy manfaat turi. Servitut uchun haq to'lash odatda servitut va mulkdor huquqlarini himoya qilish hamda saqlash uchun qo'llanadi.

Servitut uchun haq to'lashning bir qancha afzalliklari mavjud bo'lib, ularni quyidagicha ajratishimiz mumkin [7, 187–189-b.]:

- doimiy himoya: servitut uchun haq uning doimiy himoyasini, kelajakda servitut egasining huquqlari buzilmasligi yoki tugatilmasligini ta'minlaydi;

- sotish imkoniyati: servitut yuklangan yer boshqa shaxsga o'tkazilishi yoki sotilishi, ijaraga berilishi yoki meros qilib olinishi mumkin, haq esa servitutni boshqarish va himoya qilishda moslashuvchanlikni ta'minlaydi;

- osonlashtirilgan majburiy ijro: haq to'lash servitut egasining huquqiy mavqeyini mustahkamlaydi va servitut shartlarini bajarishni osonlashtiradi.

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksi 30⁶-moddasi, Fuqarolik kodeksi 173³-moddasi servitut uchun haq to'lashni nazarda tutadi: "Servitut kimning manfaatlarini ko'zlab

belgilangan bo'lsa, o'sha shaxs, agar qonunda yoki servitut to'g'risidagi shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, servitut uchun haq to'lashi shart.

Servitut uchun haq servitut belgilangan yer uchastkasi uchun yer solig'i (ijara haqi) summasini, shuningdek, servitutdan foydalanish jarayonida yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, yer uchastkalarining ijarachilari va mulkdorlariga yetkazilgan zararni (boy berilgan foydani) kompensatsiya qilish maqsadida belgilanadi.

Servitut uchun haq to'lash bir martalik yoki muntazam to'lab boriladigan ko'p martalik to'lov tarzida amalga oshirilishi mumkin.

Servitut uchun haq miqdori servitut belgilangan yer uchastkasi doirasida yoki u belgilangan chegaralar doirasida hisoblab chiqariladi.

Yer uchastkasining servitut belgilangan muayyan qismi uchun yer solig'i (ijara haqi) yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, yer uchastkalarining ijarachilari va mulkdorlari tomonidan to'lanadi, bunda servitut uchun to'lanadigan (bir martalik yoki doimiy) haq miqdori servitut amal qiladigan davrdagi yer solig'i (ijara haqi) summasidan kam bo'lishi mumkin emas.

Shuningdek, quyidagi hollarda servitut haq undirmasdan (tekin) amalga oshirilishi mumkin:

- tunnellarda avtomobil yo'llari yoki temir yo'llari qurish, shuningdek, avtomobil yo'llarining muhofaza zonalaridan foydalanish maqsadida servitut belgilanganda;

- muhandislik-texnik jihatdan ta'minlash, tegishli texnik-texnologik ulanish ishlarini amalga oshirish maqsadida servitut belgilanganda".

Qonunchilikda aytilganidek, servitut uchun haq yer egasi va servitut egasi o'rtasidagi qonuniy kelishuv, odatda shartnoma orqali tuziladi. Garchi qonunchiligimizda tabiatni muhofaza qilish servitutlari mavjud bo'lmasa ham, qator rivojlangan mamlakat-

larda bunday servitutlar uchun haq to'lash, nafaqat himoya, balki manfaat ham beradi. Shu o'rinda ularga ham to'xtalib o'tishni zarur deb bildik.

Servitut belgilanganlik uchun haq to'lash yerni muhofaza qilish maqsadida himoya qilish uchun qo'llanadi. Masalan, tabiatni muhofaza qilish tashkiloti o'rmon, botqoq yerlar yoki boshqa nozik yashash hududlarini tabiiy resurslarga zarar yetkazadigan rivojlanish yoki boshqa faoliyatlardan himoya qilish uchun yer egasidan oddiy pullik servitut huquqini olishi mumkin. Haq to'lash tabiatni muhofaza qilish tashkilotiga yerni muhofaza qilish maqsadida undan foydalanishning mutlaq va doimiy huquqini beradi, yer egasi esa yerga egalik huquqini saqlab qoladi.

Afsuski, sud amaliyotida (ayniqsa, xususiy shartnomaviy servitutlardan foydalanish) juda kam uchraydi. Shu sababli servitut huquqiy munosabatlardan foydalanish uchun obyektiv sabablar mavjudligiga qaramay, 2024-yil 10-may sanasigacha servitut uchun arizalar soni atigi 404 ta ekanini va ularning 117 tasigina tugallanganini ko'rishimiz mumkin. Ko'pincha yerdan foydalanuvchi subyektlar servitutlardan foydalanmaydi [8, 223–229-b].

O'tish servitutining amaliyotda qo'llanishi. O'tish servituti ikkita kichik turni o'z ichiga oladi: o'zganing yer uchastkasidan piyoda yoki transportda o'tish va chorva mollarini haydab o'tish uchun servitut. O'tish servituti – servitut egasiga o'z yerlariga yoki umumiy foydalanishdagi yo'lga chiqish uchun boshqa shaxsning mulkini kesib o'tish huquqini beruvchi servitut turi. Chorva mollarining o'tishi uchun servitut odamlarning o'tishidan tashqari, chorva mollariga xizmat ko'rsatish obyekti orqali transport vositalaridan foydalanmasdan olib o'tish imkonini beradi. Narsalarni ko'chirish imkoniyati to'g'ridan to'g'ri ko'rsatilmagan, ammo bunday imkoniyat ko'zda tutilgan bo'lishi mumkin, aks holda, ikkita servitut o'rnatilishi kerak bo'lardi. Bu esa mantiqqa ziddir.

Kommunal xizmat ko'rsatish kompaniyalari ko'pincha xususiy mulkka elektr uzatish liniyalari, gaz quvurlari yoki suv quvurlarini o'rnatish va ularga xizmat ko'rsatish uchun servitutlarini talab qiladi.

Ba'zi xorijiy mamlakatlarda piyoda sayr qilish, velosipedda sayr qilish yoki boshqa hordiq chiqarish tadbirlari uchun yerga jamoatchilik kirishiga ruxsat berish uchun o'tish servitutlari berilishi mumkin. Kirish servitutlari sudlar tomonidan amalga oshiriladigan qonuniy majburiy shartnomalardir. Agar yer egasi servitut egasining o'z mulkiga kirish huquqiga to'sqinlik qilsa, servitut egasi servitutni qo'llash va huquqlarini himoya qilish uchun qonuniy choralar ko'rishi mumkin.

O'tish servitutlarining afzalliklari bor bo'lib, ular, bizningcha, quyidagilar hisoblanadi:

- mulk qiymatining oshishi. O'tish servituti umumiy foydalanishdagi yo'lga chiqishni ta'minlash orqali umumiy yo'lga chiqmagan mulk qiymatini oshirishi mumkin;

- qulaylik va samaradorlik. O'tish servitutlari yerga qulay va samarali kirishni ta'minlab, aylanma yo'llar yoki chegarani buzish zaruratini kamaytiradi;

- mulk huquqlarini himoya qilish. O'tish servitutlari yer egalarining mulkiy huquqlarini ularning mulkiga qonuniy kirishini ta'minlash orqali himoya qilishi mumkin;

- jamoat manfaati. O'tish servitutlari aholining dam olish va boshqa maqsadlar uchun yerga kirishini ta'minlab, butun jamiyatga foyda keltirishi mumkin.

O'tish servituti yerdan foydalanishning turli muammolarini hal qilish va yer egalari va boshqa tomonlar uchun amaliy yechimlarini taqdim etishda qo'llanishi mumkin bo'lgan qimmatli vositadir.

Jismoniy shaxslar va tashkilotlar servitutlarining amaliy qo'llanishi va huquqiy oqibatlarini tushunib, yerdan foydalanishni samarali boshqarishi, o'z manfaatlarini himoya qilishi mumkin.

Xulosalar

2023-yil 23-oktabrda qabul qilingan “Yer to’g’risidagi qonunchilik takomillashtirilishi munosabati bilan O’zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o’zgartirish va qo’shimchalar kiritish to’g’risida”gi O’RQ-871-sonli Qonun bilan jami 11 ta qonunga o’zgartirish va qo’shimchalar kiritildi. Lekin shunga qaramay qonunchiligimizda servitutning tabiatini to’liq qamrab olgan yagona tushuncha hali ishlab chiqilmagan. Ba’zida servitutlar asossiz ravishda majburiyatlar bilan belgilanadi yoki mulkning o’ziga bo’lgan huquq sifatida emas, balki o’zgaga tegishli mulkning muayyan funksiyasiga bo’lgan huquq sifatida ko’riladi. Bu esa nazar-riy-huquqiy yondashuvni ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi. Ya’ni servitutning belgilari, cheklangan mulkiy huquqlar tizimida uning o’rni, mazmuniga qo’yilgan talablarga aniqlik kiritilishi lozim.

Shuningdek, respublikamizda servitut huquqini tartibga soluvchi va o’zida servitut huquqini tartibga soluvchi ayrim normalar aks etgan normativ-huquqiy hujjatlar (O’zbekiston Respublikasi Yer kodeksi, O’zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi) mavjud. Ushbu normativ-huquqiy hujjatlardagi normalar ko’lami keng bo’lib, ularni unifikatsiya qilish orqali O’zbekiston Respublikasining yagona Servitutlar to’g’risidagi qonunini ishlab chiqish zarur. Unda servitutni

tartibga soluvchi qonun hujjatlarini birlashtirish maqsadga muvofiq.

Yevropa davlatlari tajribasiga nazar tashlaydigan bo’lsak, inson huquqlarini himoya qilish darajasi bo’yicha yuqori o’rinlarda turuvchi bir qancha davlatlar, xususan, AQSh, Buyuk Britaniya, Kanada va boshqa davlatlarda bunday qonun bor.

Bundan tashqari, servitutlarga nisbatan yondashuvlarni tasniflash lozim. Bu borada xorijiy tajribalar tahlili shuni ko’rsatdiki, ko’plab xorijiy davlatlarning yer va fuqarolik qonunchiligida yer servitutiga nisbatan turlicha tasniflash yondashuvi mavjud. Bu tahlillar umumlashtirilganda tasniflashning asoslari va mezonlari ham turlicha ekani- ni ko’rish mumkin. Yer servitutlarini, biz- ningcha, quyidagicha tasniflash: mazmun jihatdan ijobiy va salbiyga ajratish lozim. Chunki yer servitutining bunday bo’linishi uning har bir turi uchun alohida huquqiy asosni belgilab beradi, tomonlarning huquq va majburiyatlari aniq belgilab qo’yilgan bo’ladi. Bu, o’z navbatida, vakolatli organ- larning har bir servitut turiga oid nizolar- ni hal qilish uchun maxsus huquqiy mexa- nizmlarni yaratishi, qonun-qoidalarni ser- vitut turlarining ehtiyojlariga moslashtiri- shiga olib kelishi mumkin. Natijada servitut bilan bog’liq nizolarni hal qilishda yanada samarali yechimlar taklif etilishi ehtimoli oshadi.

REFERENCES

1. Uzakova G.Sh. Yer huquqi [Land Law]. Tashkent, TSUL Publ., 2024, p. 9.
2. Rakhimjonov A., Imomov N.F. Improving the creation of a land information base for the privatization of land plots in the republic of Uzbekistan and foreign experience in this area. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 2021, vol. 03, iss. 02, pp. 160–165.
3. Jurakulov D.O., Turayev R.A., Ibragimov L.T., Yarkulov Z.R. Yer uchastkalaridan cheklangan tarzda foydalanishni tartibga solishning huquqiy asoslari [Legal Foundations for Regulating the Limited Use of Land Plots]. Tashkent, Innovative Development Publ., 2022, p. 111.
4. Novitskiy I.B., Pereterskiy I.S. Rimskoye chastnoye pravo [Roman private law]. Moscow, 2000, p. 167.

5. Jumanov A.N. Servitut asosida yerdan foydalanishni takomillashtirish [Improvement of Land Use Based on Servitude]. 2020, pp. 115–118.
6. Yerofeyev B.V. Zemel'noye pravo [Land law]. Moscow, Profobrazovaniye Publ., 2001, p. 656.
7. Averyanova N.N. Zemel'noye pravo v voprosakh i otvetakh [Land Law in Questions and Answers]. Moscow, Prospekt Publ., 2018, p. 128.
8. Anisimov A.P., Mel'nikov N.N. Zemel'noe pravo Rossii [Land Law of Russia]. Moscow, Yurayt Publ., 2016, p. 259.
9. Babajanov A.R., Ro'ziboev S.B. Yer resurslarini boshqarishning axborot ta'minoti [Information Support for Land Resource Management]. Tashkent, TIAHMMI MTU Publ., 2023.
10. Xolmo'minov J.T. Ekologiya va hayot: qonunchilikni takomillashtirish masalalari [Ecology and Life: Issues of Improving Legislation]. Tashkent, Institute of Philosophy and Law Publ., 2010, p. 70.
11. Topildiev B., Khursanov R., Usmonova M. Trust management agreement Property and prospects for its development in the Republic of Uzbekistan. *European Journal of Molecular and Clinical Medicine*, 2020, vol. 7, iss. 3, pp. 3199–3205.
12. Vagina O.V. Novyy vid prava ogranichennogo pol'zovaniya chuzhim zemel'nym uchastkom – servitut na publichnye zemli [A New Type of Limited Right to Use Another's Land Plot Servitude on Public Lands]. Business: Management and Law. Available at: <http://www.pravo.by>
13. Kenjayev R.X. Yer huquqi [Land Law]. Tashkent, TSUL Publ., 2023, p. 312.
14. Xolmo'minov J.T., Jo'rayev Y.O., Usmonov M.B., Fayziyev Sh.X. Yer huquqi [Land Law]. Tashkent, TSUL Publ., 2018, p. 248.
15. Galenko N.N., Shustova N.S. Zemel'noye pravo [Land Law]. Moscow, Phoenix, 2017, p. 154.
16. Uzakova G.Sh. Yer huquqi [Land Law]. Tashkent, TSUL Publ., 2018, p. 145.
17. Yer huquqi [Land law]. Tashkent, TSUL Publ., 2019, p. 252.
18. Saipova Y.B. Pravovoy rezhim nedvizhimosti kak imushchestvennoy osnovy predprinimatel'skoy deyatelnosti [The legal regime of real estate as a property basis for entrepreneurial activity]. Tashkent, 2010.

Kelib tushgan / Получено / Received: 28.01.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 18.03.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 27.03.2025

DOI: 10.51788/tsul.rols.2025.9.1./CJFN1422

UDC: 343.132(045)(575.1)

OLIB QO'YISH VA TINTUV O'TKAZISHDA FUQAROLARNING HUQUQ VA QONUNY MANFAATLARINI TA'MINLASHNING PROTSESSUAL KAFOLATLARI

Yermekbayev Bauirjan Amantayevich,

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
Jinoyat huquqi, protsessi va kriminalistika
kafedrası assistent o'qituvchisi
ORCID: 0009-0006-6588-7003
e-mail: bawka83@mail.ru

Akmalov Hamid Akmal o'g'li,

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
Yuridik fakulteti talabasi
ORCID: 0009-0004-0996-7653
e-mail: hamidakmalov999@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada jinoyat protsessida tergov harakati hisoblangan olib qo'yish tushunchasi va olib qo'yish tergov harakatini o'tkazishda shaxs huquqlari va qonuniy manfaatlarining protsessual kafolatlari masalalari atroflicha tahlil qilingan. Bunda olib qo'yish tushunchasi bo'yicha jinoyat-protsessual qonunchiligida belgilangan normalar, soha mutaxassislari va olimlarning bu boradagi qarashlari o'rganilgan. O'z navbatida, olib qo'yish tushunchasining tintuv tergov harakati tushunchasidan farqli jihatlari ochib berilgan. Jinoyat-protsessual qonunchiligida tergovchiga olib qo'yish o'tkazishda shaxs huquqlari, erkinliklari va manfaatlariga taalluqli bo'lgan masalalarni hal qilish bo'yicha keng vakolatlar berilgan bo'lib, ushbu maqolada tergov jarayonida tintuv o'tkazishda tergovchi va ishtirokchilar amal qilishi zarur bo'lgan shartlar tahlil qilingan. Olib qo'yish jarayoni shaxslarning mol-mulki daxlsizligiga bo'lgan huquqi bilan bevosita aloqador ekanligi sababli mazkur maqolada ushbu tergov harakatini amalga oshirishda mol-mulk daxlsizligiga bo'lgan huquqni kafolatlashga doir milliy va xalqaro qonunchilik normalari ham qisqacha tadqiq etilgan. Shuningdek, mavzu yuzasidan qonun hujjatlari, aynan shu mavzu bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan olimlarning fikrlari, takliflari ham atroflicha o'rganilgan holda, mualliflarning shaxsiy fikrlari, xulosalari va takliflari ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: olib qo'yish, tintuv, shaxs huquqlari va qonuniy manfaatlari, protsessual kafolatlar, tergovchi, mol-mulk daxlsizligi, sud ajrimi, olib qo'yish bayonnomasi.

ПРОЦЕССУАЛЬНЫЕ ГАРАНТИИ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПРАВ И ЗАКОННЫХ ИНТЕРЕСОВ ГРАЖДАН ПРИ ВЫЕМКЕ И ОБЫСКЕ

Ермекбаев Бауыржан Амантаевич,
ассистент-преподаватель кафедры
«Уголовное право, процесс и криминалистика»
Каракалпакского государственного университета имени Бердаха

Акмалов Хамид Акмаль угли,
студент юридического факультета
Каракалпакского государственного университета имени Бердаха

Аннотация. В данной статье всесторонне рассмотрены вопросы, связанные с понятием выемки как следственного действия в уголовном процессе, а также с обеспечением процессуальных гарантий прав и законных интересов личности при проведении выемки. Анализируются нормы уголовно-процессуального законодательства, регулирующие данное действие, и приводятся мнения специалистов и учёных в этой области. Особое внимание уделяется отличиям понятия выемки от обыска как следственного действия. В статье подчёркивается, что уголовно-процессуальное законодательство предоставляет следователю широкие полномочия по разрешению вопросов, затрагивающих права, свободы и законные интересы личности при проведении выемки. Также проанализированы условия, которые должны соблюдаться следователем и участниками процесса при проведении обыска. Так как процедура выемки напрямую связана с правом на неприкосновенность имущества, в статье кратко рассматриваются нормы национального и международного законодательства, направленные на обеспечение этого права. Кроме того, проанализированы нормативные акты и научные исследования по теме, а также изложены авторские взгляды, выводы и предложения по совершенствованию правоприменительной практики.

Ключевые слова: выемка, обыск, права и законные интересы личности, процессуальные гарантии, следователь, неприкосновенность имущества, постановление суда, протокол выемки

PROCEDURAL GUARANTEES OF ENSURING THE RIGHTS AND LEGAL INTERESTS OF CITIZENS DURING SEIZURES AND SEARCHES

Yermekbayev Baurijan Amantayevich,
Assistant Lecturer at the Department of Criminal Law,
Procedure and Criminology,
Karakalpak State University named after Berdakh

Akmalov Hamid Akmal ugli,
Student at the Faculty of Law,
Karakalpak State University named after Berdakh

Abstract. This article thoroughly analyzes the concept of seizure, which is considered an investigative action in criminal proceedings, and the procedural guarantees of individual rights and legal interests during the seizure investigative action. In this case, the norms established in the criminal procedure legislation on the concept of seizure and the views of specialists and scientists in this area were studied. In turn, the distinctive features of the concept of seizure from the concept of a search investigative action are revealed. Criminal procedure legislation grants investigators broad powers to resolve issues related to the rights, freedoms, and interests of individuals during seizures, and this article analyzes the conditions that investigators and participants must adhere to during searches during the investigation

process. Since the seizure process is directly related to the right of individuals to the inviolability of their property, this article briefly examines the norms of national and international legislation regarding the guarantee of the right to the inviolability of property during this investigative action. Also, the legislative acts on the topic, the opinions and proposals of scientists who conducted scientific research on this topic were thoroughly studied, and the personal opinions, conclusions, and proposals of the authors were put forward.

Keywords: seizure, search, individual rights and legal interests, procedural guarantees, investigator, property integrity, court ruling, seizure report

Kirish

Jahonda tergov harakatlari qonunlarning samarali ijrosini tashkil etish va ushbu protsessda shaxs huquqlarini kafolatlash bilan muvozanatlashni nazarda tutuvchi qat'iy huquqiy normalar bilan tartibga solinadi. Jumladan, hozirda rivojlangan davlatlarda tintuv va olib qo'yishda uyali telefon/smartfon, turli kuzatuv qurilmalari va ilovalari, aqlli soatlar va boshqa aqlli texnologiyalar, xususan, sun'iy intellektga asoslangan yordamchi texnologiyalarni qo'llash hamda bu boradagi muammolarga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Bunday tartib-qoidalarga qaramay, tergov jarayonida turli qonunbuzilish holatlari, mansab vakolatlarini suiiste'mol qilish, vakolat doirasidan chetga chiqish yoki huquqlarni boshqacha tarzda buzish holatlari saqlanib qolmoqda, bu esa jinoyat protsessida fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish borasida jiddiy tashvish uyg'otmoqda. Global statistik ma'lumotlar tahliliga ko'ra, tintuv va olib qo'yish tergov harakatlari jarayonida huquqlarning buzilishi holatlari xavotirli darajada yuqoriligicha qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasiga ko'ra, har bir inson shaxsiy hayotining daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirga ega bo'lish, o'z sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqiga ega. Konstitutsiyaning bunday tamoyili jinoyatlarni tez va to'la ochishga, aybdor shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortish, aybsiz shaxslarning jazoga tortilmasligini nazarda tutadi. Bu esa, o'z navbatida, qonuniy faoliyat yuritishda o'z ifodasini topadi. Tergov harakati hisoblanmish olib

qo'yish ham ushbu tamoyilga asosan amalga oshirilishi shart.

Surishtiruv va dastlabki tergov davomida shaxsning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish va ularni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi, jumladan, olib qo'yish tergov harakatini amalga oshirishda ham. Bu esa mavzuning dolzarb ekanligini anglatadi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Maqolaning asosiy maqsadi – tintuv va olib qo'yish tushunchasini aniq yoritish, uni o'tkazishda shaxs huquqlari va qonuniy manfaatlarining protsessual kafolatlarini batafsil ochib berishdan iborat. Ushbu mavzuni tahlil qilishda boshqa olimlarning ham fikrlari o'rganib chiqildi. Jumladan, rus olimi O. Michurina shunday ta'rif berib o'tgan: "Olib qo'yish tintuvga yaqin turadigan tergov harakati bo'lsa-da, olib qo'yish tintuvdan butunlay farq qiladi. Olib qo'yish muayyan narsalar va hujjatlar qayerda va kimda turgani aniq bo'lganda o'tkaziladi. Olib qo'yish qidirilayotgan narsalar va hujjatlarini ixtiyoriy ravishda berishni talab qilish va ularni olib qo'yish bilan kifoyalanadi. Tintuv esa asosan bunday taklif bilan boshlanadi. Olib qo'yishning maqsadi faqat biror narsa yoki hujjatni olib qo'yish, tintuvning maqsadi esa, eng avvalo, narsa yoki hujjatni qidirib topish va shundan keyin uni olib qo'yish" [1, 14-b.].

Material va metodlar

Ushbu mavzuni yoritishda bir qator metodlardan foydalanilgan. Jumladan, mavzuni ifodalashda qonunchilik normalari, huquqshunos olimlarning ilmiy-nazariy qarashlaridan hamda mavzuni tahlil qilishda qiyosiy-

huquqiy usul, tahlil, umumlashtirish, induksiya va deduksiya metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari

Rus olimi O. Michurinaning fikricha, shaxsning yozishmalaridagi sirlariga yoki uning nomus va sha'niga o'zboshimchalik bilan tajovuz qilinishi mumkin emas. Har bir inson xuddi shunday aralashuv yoki tajovuzdan qonun orqali himoya qilinish huquqiga ega [2, 33-b.].

Bu borada boshqa olimlarning fikrlarini o'rganadigan bo'lsak, V.V. Mozyakovaning ta'kidlashicha, olib qo'yish jinoyat ishi uchun ahamiyatga molik narsa va hujjatlarning aynan kimda va qayerda ekanligi ma'lum bo'lib, ularni qidirishning hojati bo'lmagan hollarda surishtiruvchi, tergovchi va sud tomonidan qo'llanadigan chora hisoblanadi. Tintuv doimo majburlov xarakteriga ega bo'lgan tergov harakati bo'lib, uning vazifalari jinoyat ishiga daxldor bo'lgan narsa va hujjatlarni, tirik shaxslar va murdalarni, jinoyat yo'li bilan topilgan pullar va boshqa qimmatliklarni binolardan yoki ularni yashirgan deb taxmin qilingan shaxslarga tegishli joylardan qidirib topish va olingan natijalarni bayonnomada qayd etishdan iboratdir [3, 259-b.].

Tergov qilishda tergovchiga mustaqil protsessual vositalarni tanlash imkoniyatining berilishi unga yuklatilgan funksiyalarning muvaffaqiyatli bajarilishiga imkoniyat beradi [4].

G'. Shodiyev o'z ilmiy ishlarida shunday yozadi: "Tintuv olib qo'yishdan o'z maqsadi va o'tkazish tartibiga ko'ra farqlanadi: 1) tintuvda qanday obyektlar qidirilayotganligi, ular qayerdaligi noma'lum bo'lsa, olib qo'yishda predmetning individual belgilari, uning qayerda (kimda) ekanligi ma'lum bo'ladi; 2) olib qo'yishni o'tkazish uchun (fakt) asos sifatida faqat dalillar tan olinsa, tintuvda hatto tezkor-qidiruv tadbirlari davomida olingan ma'lumotlar ham asos bo'lishi mumkin; 3) olib qo'yishda qidiruv harakatlari man qilinadi, tintuvda esa aynan ular ko'zda tutiladi" [5, 53-b.].

Jinoyat-protsessual normalar asosida ish yuritadigan tergovchi o'zi bajaradigan protsessual harakatlarni, jinoiy sudlov ish yurituvida prokuror nazoratini amalga oshiruvchi prokurorning vakolatlari bilan bog'lamaydi. Chunki qonun tergovchiga protsessual vakolatlarni bera turib, shu vaqtning o'zida u bajaradigan protsessual harakatlarning to'g'riligi va qonuniyligi uchun to'liq javobgarlikni ham belgilagan.

Dastlabki tergov harakatlarini yuritishda qonunlarning ijro etilishi ustidan prokuror nazorati tergovchining protsessual mustaqilligiga xalal bermaydi. Aksincha, prokuror tergovchining mustaqilligini va jinoyatlarni fosh etish, tergov harakatlarini o'z vaqtida va qonun talablari asosida yuritishda mas'uliyatini oshirishi shart. Prokuror va tergovchi munosabati qonun bilan belgilangan [6, 125-b.].

Olib qo'yish tintuvning bir qismi emas, balki mustaqil tergov harakati hisoblanadi. Olib qo'yishda aynan ish uchun ahamiyatli narsani yoki hujjatni, nusxasini emas, uning aslini olishni ta'minlash zarur. Ana shunday xavf-xatar mavjud bo'lganda, olib qo'yishga tintuvdagi singari mutaxassisni taklif etish maqsadga muvofiqdir. Masalan, buxgalteriya hujjatlarini olib qo'yishda auditor yoki ekspertni taklif qilish zarur. Agar o'g'irlangan (tortib olingan, tamagirlik yo'li bilan olingan) buyumlarni olib qo'yish ko'zda tutilgan bo'lsa, jabrlanuvchini taklif qilish mumkin. O'zbekiston yuridik ensiklopediyasida esa tintuv va olib qo'yishga JPK normalari mazmunidan kelib chiqqan holda ta'rif berilgan [7, 347–348-b.].

Olib qo'yishning tintuv tergov harakati-dan farqi olib qo'yishda jinoyat ishi uchun ahamiyatga molik narsa va hujjatlar aynan kimda va qayerda ekanligi ma'lum bo'lib, ularni qidirishning hojati bo'lmaydi, tintuvda esa surishtiruvchi va tergovchida turar joy, xizmat, ishlab chiqarish binosi yoki o'zga joyda yoxud biror shaxsda narsa va hujjatlar bor deb o'ylash uchun ma'lumot bo'lsa ham,

uning qayerda, kimda va qanday narsa ekanligi to'g'risida tasavvur bo'lmaydi.

A.R. Ratinov tomonidan berilgan ta'rif umume'tirof etilgan bo'lib, unga ko'ra, tintuv yashiringan shaxslarni, shuningdek, ish uchun ahamiyatli narsalarni topish va olib qo'yish maqsadida turar joylar, binolar, yer maydonlari va alohida shaxslarni majburiy kuzatishdan iborat bo'lgan tergov harakatidir [8, 7-b.].

Tintuv va olib qo'yish shaxsning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini cheklash bilan bog'liq harakat bo'lganligi uchun huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari (ayniqsa, jinoyat-qidiruv xodimlari) qonun talablari asosida harakat qilishlari kerak [9, 38-b.].

Ko'rinib turibdiki, nazariyotchi olimlar o'rtasida olib qo'yish tushunchasi va uning tintuvdan asosiy farqlari deyarli bir xil tarzda ifodalanmoqda. Albatta, biz ham bu fikrlarga qo'shilamiz.

Shu o'rinda tintuv tushunchasiga rus olimi N. Shuruxnov tomonidan keltirilgan quyidagi ma'lumotni ham keltirib o'tishni joiz deb topdik. Kompyuter axborotini olib qo'yishda tintuv o'tkazish muayyan xususiyatga ega. Ko'p miqdordagi axborot tashuvchisi hisoblangan kompyuter jinoyatni ochish uchun muayyan ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Uy egasi yoki EHM operatori tintuv paytida kompyuter yoki klaviaturaga yaqinlashtirilishi mumkin emas (hatto tintuv qilinayotgan shaxs qidirilayotgan axborotni ixtiyoriy ravishda topshirishga rozilik bergan bo'lsa ham). EHMda bu ishni taklif qilingan mutaxassis bajarishi lozim. Tintuv qilinayotgan shaxsning kompyuter yoki klaviatura bilan biron-bir harakatni amalga oshirishi (shu jumladan, kompyuterni o'chirish va yoqish) borasidagi barcha urinishlari EHM axborotini yo'q qilib tashlashga urinish sifatida qaralishi lozim va bu bayonnomada aks ettirilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi [10, 207-b.].

Qidirish jinoyat ishiga taalluqli narsa yoki hujjatni topish va olish hisoblanadi.

Agar narsa yoki hujjat shaxs tomonidan ixtiyoriy ravishda huquqni muhofaza qilish organlariga taqdim etilmasa yoki shaxs uni taqdim etishdan bosh tortsa, "qidirishga"ga ehtiyoj tug'iladi. Bundan tashqari, tintuv va olib qo'yish fuqarolar tomonidan bir xilda tushunilmaydi, chunki fuqarolarni tintuv ko'proq tashvishga soladi, olib qo'yish esa, agar u ixtiyoriy ravishda sodir etilgan bo'lsa, protsessual majburlov choralari qatoriga kirmaydi. Shulardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasida tintuv va olib qo'yishni bir-biridan farqlash kerak.

Olib qo'yishda shaxsning huquq va qonuniy manfaatlarini kafolatlashda asosiy bevosita subyekt bo'lib, tergovchi va uning protsessual faoliyati hisoblanadi. Jinoyat-protsessual kodeksining 161-moddasiga ko'ra, surishtiruvchi yoki tergovchi olib qo'yish jarayonida keng protsessual mustaqillikka ega bo'lib, bu har bir alohida olib qo'yish holatida adolatlilik, obyektivlikka erishishda o'rnatilgan protsessual tamoyillar va normalarning to'g'ri qo'llanishini ta'minlaydi.

Qonunda olib qo'yishni o'tkazish uchun prokuror sanksiyasini olish hamda davlat siri bilan bog'liq hujjatlarni olib qo'yish nazarda tutilmagan. Lekin o'zida davlat yoki harbiy sirni saqlaydigan hujjatlar yoki narsalarni olib qo'yishda shu sirlar bilan tanishishga ruxsati bo'lgan xolislar taklif qilinib, ular tegishli tartibda ogohlantirilishi shart.

Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, JPKga muvofiq pochta-telegraf jo'natmalarini xatlash to'g'risida surishtiruvchi va tergovchi prokurorning sanksiyasi olingan qaror, sud esa ajrim chiqaradi. Surishtiruvchi yoki tergovchi aloqa muassasasiga borib, ushlangan pochta-telegraf jo'natmalarini xolislar ishtirokida, zarurat bo'lganda esa tegishli mutaxassis ishtirokida ochib, ko'zdan kechiradi. Ish uchun ahamiyatga molik ma'lumotlar, hujjatlar, narsalar topilgan taqdirda, surishtiruvchi, tergovchi pochta-telegraf jo'natmalarini olib

qo'yadi yoxud ulardan nusxa ko'chirish bilan chegaralanadi.

JPKning 160-moddasiga ko'ra, olib qo'yishni o'tkazish jarayonida bu harakatlarda uyida o'tkazilayotgan shaxsning o'zi yoki hech bo'lmaganda uning voyaga yetgan oila a'zolaridan birining ishtirok etishi ta'minlanishi lozimligi, bosharti ularning ishtirok etishini ta'minlashga imkon bo'lmasa, tegishli hokimlik yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining vakili taklif qilinishi belgilangan.

O'ylaymizki, bunday holatda tegishli hokimlik yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining vakili taklif qilinishidan oldin prokurorning sanksiyasi talab etilishi kerak. Bu normaning JPKda belgilanishi, fuqarolarning turar joy daxlsizligi to'g'risidagi JPKning 18-moddasida belgilangan konstitutsiyaviy prinsip talabiga javob beradi.

Tergovchi olib qo'yish to'g'risida o'zi qaror qabul qiladi, buning uchun faktik va formal asoslar yetarilishini mustaqil belgilaydi. Faktik asos olib qo'yilishi lozim bo'lgan aniq bir predmet, turli protsessual manbalardan olinishi mumkin bo'lgan, uning joylashgan joyi to'g'risidagi ma'lumotlar hisoblanadi.

Olib qo'yishni amalga oshirish uchun faktik asoslar quyidagilar: muayyan shaxsning egaligida (shu muassasada, boshqa joyda, uning o'zida yoki yonida) bo'lgan jinoyat ishi uchun ahamiyatli muayyan narsa yoki hujjatni topish; muayyan predmet yoki hujjatning yo'qotilishi yoki yashirish xavfi borligi; ularni dastlabki tergov organlari tomonidan qidirish zaruratining yo'qligidir [11, 72-b.]

Qonunchilikka ko'ra, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi boshqa shaxslarga yuborgan yoxud boshqa shaxslar gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga, sudlanuvchiga yuborgan pochta-telegraf jo'natmalarida sodir etilgan jinoyatga doir ma'lumotlar yoki ish uchun ahamiyatga molik hujjatlar va buyumlar bor deb gumon qilish uchun yetarlicha asoslar bo'lgandagina surishtiruvchi, tergov-

chi, sud bu shaxslarning barcha pochta-telegraf jo'natmalarini yoki ularning ayrimlarini xatlab qo'yishga haqlidir.

Surishtiruvchi yoki tergovchi olib qo'yish to'g'risidagi asoslantirilgan qarorida kimdan nimani olib qo'yish lozimligi, olib qo'yiladigan predmetning nomi va individual xususiyatlari, joylashgan joyi va uning ish uchun qanday ahamiyat kasb etishi ko'rsatilishi kerak. Ko'pgina holatlarda surishtiruvchi va tergovchi qisqa, lekin mazmunan to'liq, jinoyat-protsessual qonunchilik talablariga javob beradigan qarorlar qabul qilishadi [12, 44-b.].

Shu bilan birga, qayd etish kerakki, ba'zi hollarda olib qo'yish to'g'risidagi bayonnoma o'rniga ixtiyoriy taqdim etish bayonnomasi tuziladi.

Bu esa mohiyatan protsessual harakatning almashtirilishiga hamda JPKning 92-, 163-moddalari buzilishiga va tergov ostida bo'lgan shaxs huquqlarining cheklanishiga olib keladi. Masalan, JPKning 92-moddasiga asosan, tergov ostidagi shaxs olib qo'yish bayonnomasiga imzo chekishdan bosh tortishi va unga bayonnomaga kiritiladigan bosh tortish sabablari keltirilgan tushuntirish berish imkoniyati taqdim etilishi shart. Biroq tergov ostidagi shaxs ixtiyoriy topshirish to'g'risidagi bayonnoma tuziladigan sharoitda qanday qilib bu huquqdan foydalanishi mumkin? Bizningcha, olib qo'yishning kerakli obyektlarini talab qilib olish bilan almashtirishni manfaatdor shaxslarga ushbu obyektlarni yashirish yoki kerak bo'lsa, yo'q qilish imkoniyatini yaratib beradi.

Oliy Sud Plenumining "Gumon qilinuvchi va ayblanuvchini himoya huquqi bilan ta'minlashga oid qonunlarni qo'llash bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 17-sonli qarorida "Himoyachi o'z himoyasi ostidagi shaxs ishtirokida o'tkaziladigan barcha tergov harakatlari, shu jumladan, tintuv yoki olib qo'yish o'tkazilayotganda qatnashishga haqlidir", – deb belgilangan. Bunday ko'rsatmaning aniq qilib belgilab qo'yilishi shaxsning huquq va

qonuniy manfaatlarini yanada kafolatlaydi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Tadqiqot natijalari tahlili

“Qonunda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, ularning himoyachilari, fuqarolik da'vogar, fuqarolik javobgar tomonidan jinoyat ishi uchun ahamiyatli bo'lgan dalil tariqasidagi hujjatlar yoki narsalarni taqdim qilishi belgilangan. Bunday holatlarda tergovchi tomonidan olib qo'yish to'g'risida qaror va bayonnoma tuzilmasdan, topshirilayotgan narsa va hujjatni qabul qilish haqida bayonnoma tuzilishi kerak” [13], – degan fikrga biz ham qo'shilamiz.

Olib qo'yishni amalga oshirish uchun surishtiruvchi yoki tergovchi xolislarni jalb etishlari kerak. Bunday huquqdan tergovchi mustaqil foydalanadi va hech kimning aralashishiga yo'l qo'yilmaydi. Ular tomonlarning tarafdorlari sifatida emas, balki bu tergov harakatining faol kuzatuvchilari sifatida ishtirok etishni ta'minlaydilar. Surishtiruvchi yoki tergovchi korxona, muassasa va tashkilotlar binolarida olib qo'yish amalga oshirishida ushbu tashkilotlarning vakillari ishtirokida o'tkazilishini ta'minlashlari zarur. Bu esa, o'z navbatida, shaxslarning huquq hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun ko'maklashadi [14, 248-b.].

Pochta-telegraf jo'natmalarini olib qo'yishda ishtirok etish uchun xolislarni jalb etishda tergovchi pochta-telegraf tashkilotlarining xodimlari orasidan xolislarni tanlab olishi maqsadga muvofiqdir. Bunday talab yozishmalar sirini saqlash kafolati nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki jo'natmalar mazmunini sir saqlash ko'rsatilgan xodimlarning xizmat majburiyatlari hisoblanadi.

Shuningdek, tergovchi olib qo'yishni tungi vaqtda amalga oshirilmaslik talabini ham mustaqil amalga oshiradi, kechiktirib bo'lmaydigan hollar bundan mustasno. Tergovchida mazkur shaxs olib qo'yishni kechgacha cho'zib, uning to'xtalishi yoki tugatilishiga umid bog'laganligi to'g'risida tax-

min bo'lsa, u olib qo'yish kimdan amalga oshirilayotgan bo'lsa o'sha shaxs hozirligida o'tkazishi mumkin [15].

JPKga muvofiq, olib qo'yishga kirishishdan oldin tergovchi olib qo'yish to'g'risidagi qarorni shaxs yoki tashkilot rahbariga taqdim etadi hamda qarorda ko'rsatilgan narsa va hujjatlarni berish taklifini kiritadi. Ushbu obyektlar berilgan taqdirda olib qo'yish tugatilib, bu to'g'risida bayonnoma tuziladi. Rad etilgan taqdirda olib qo'yish majburiy amalga oshiriladi.

Majburiy olib qo'yishda tajribali tergovchilar ayblanuvchiga nisbatan hurmat munosabatini saqlab qolish maqsadida har qanday ziddiyatli holatni keltirib chiqarmaslik choralarini ko'radi. Ular bu shaxsga ishon-tirish kabi ta'sir etishning faol usullarini qo'llashlari lozim.

Bunda ishon-tirishning amaliy mohiyati shundaki, olib qo'yiladigan obyektning ixtiyoriy topshirish haqidagi talabga nisbatan ayblanuvchining salbiy munosabatiga nisbatan uning ongiga ijobiy ta'sir etishdir. Ishontirish tergovchining nuqtayi nazariga ayblanuvchida tushunish va rozilik hissining uyg'otish maqsadida ta'sir etish usulidir. Ishontirish ushbu shaxsning tergovchi talablariga muvofiq harakat qilishiga erishish demakdir.

Ishontirish jarayoni ikki bosqichdan iborat. Birinchi bosqichda olib qo'yish amalga oshirilayotgan shaxsga, agar u ixtiyoriy topshirishni istamasa, qonunda belgilangan tartib va tergovchining yopiq bino va xonalarga kirish vakolatlari mavjudligi tushuntiriladi. Ikkinchi bosqichda shaxsga tergovchi tomonidan qo'llangan harakatlar, shaxsning shaxsiy hayotiga oid ma'lumotlar oshkor etilmasligi to'g'risida tushuntirish olib boriladi. Shuning uchun protsessual nuqtayi nazardan olib qo'yish xonadonlarda bajarilayotganda tergovchidan yuksak professional mahorat talab etiladi [16, 238-b.].

Bundan tashqari, mahalliy mentalitetdan kelib chiqib va Konstitutsiyasining 31-mod-

dasiga ko'ra, har bir inson shaxsiy va oilaviy sirga ega bo'lishi normasini buzmaslik uchun xolis guvoh sifatida qatnashtirilishi lozim bo'lgan shaxslarni tintuv va olib qo'yish o'tkazilayotgan manzildagi qo'shnilaridan qatnashtirmasdan, mazkur oilaga umuman aloqasi bo'lmagan, notanish fuqarolarning ishtirok etishini ta'minlash lozim. Sababi ushbu protsedurada qo'shnilar xolis sifatida qatnashadigan bo'lsalar, shaxsning uyida bo'lgan voqea keng jamoatchilikda gap-so'z bo'lishi, oilaviy obro'yining tushishi, oilaning o'g'il va qiz farzandlarining bo'lg'usi taqdiriga ta'sir ko'rsatishi va bu esa ularning oilaviy o'sib-unishiga o'z ta'sirini o'tkazishi mumkin.

Xulosalar

Ushbu mavzuni atroflicha o'rganib, yakunida quyidagilarni xulosa va taklif sifatida bildirib o'tishni o'rinli deb hisoblaymiz:

1. Tintuv va oliy qo'yishga tergov harakati sifatida quyidagi xususiyatlar xosdir: 1) ushbu tergov harakatlari jinoyat ishi bo'yicha dalillarni to'plash, tekshirish va baholashga qaratiladi; 2) tintuv va olib qo'yishda majburlash va majburiylik xususiyati mavjud; 3) boshqa tergov harakatlari singari faqat qonunda vakolat berilgan shaxslar tomonidan amalga oshiriladi; 4) faqat qonunda belgilangan tartibda amalga oshiriladi; 5) tintuv va olib qo'yishni o'tkazish vaqtida tintuv va olib qo'yish tergov harakatlari o'tkazilayotgan shaxsning huquq va erkinliklari cheklanishiga yo'l qo'yiladi.

2. O'zida yoki uyi va boshqa obyektlarida tintuv va olib qo'yish harakati o'tkazilayotgan shaxslar lozim darajada huquqiy savodxonlikka ega bo'lmagan shaxslar ekanligini e'tiborga olib, Konstitutsiyamizning 31-moddasidagi normaga asosan o'zida tintuv va olib qo'yish protseduralari o'tkazilayotgan shaxs darhol va to'xtovsiz himoya huquqi bilan ta'minlanishi lozim hamda o'z hisobidan bo'lsin yoki davlat hisobidan bo'lsin himoyachi advokat bilan ta'minlanishi zarur, aks holda shaxsning protsessual huquqlari buzilishiga olib keladi.

3. Tintuv va olib qo'yish tushunchalariga ta'rif ishlab chiqildi hamda bunday tergov harakatlarining shakllari ajratib ko'rsatildi.

4. Amaldagi qonunchilik bo'yicha shaxsning uy-joyida amalga oshiriladigan tintuv va olib qo'yishda oila a'zolari hisoblangan voyaga yetmagan farzandlarning ishtirokini istisno etadigan norma, ya'ni voyaga yetmaganlarning ushbu harakatlarni ko'rmasligi nazarda tutilmagan. Shu sababli oiladagi voyaga yetmaganlarni ushbu protseduraning guvohi bo'lishining oldi olinishi zarur deb hisoblaymiz. Bu o'z navbatida, voyaga yetmagan farzandlarning mazkur holatlarni ko'rishi otasi yoki onasining yoxud voyaga yetgan oila a'zolarining qandaydir jinoyat sodir etganligini va uni jinoyatchi deb tushunib, uning psixologik rivojlanishiga o'z ta'sirini o'tkazishi aniq.

REFERENCES

1. Michurina O.V. Obespecheniye prav i zakonnykh interesov lichnosti v ugolovnom protsesse [Ensuring the rights and legitimate interests of the individual in criminal proceedings]. Moscow, 1996, p. 172.
2. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar [International agreements on human rights]. Tashkent, 2004, p. 133.
3. Mozyakova V.V. Kommentariy k Ugolovno-protsessual'nomu kodeksu Rossiyskoy Federatsii [Commentary on the Criminal Procedure Code of the Russian Federation]. Moscow, 2002, p. 278.
4. Najimov M.Sh. Issues of Liability for Involving a Minor to Antisocial behavior and Crime in the Criminal Law of Some Foreign Countries. *Annals of R.S.C.B.*, 2021, vol. 25, iss. 3, pp. 1529–1535.

5. Shodiyev G'. Sudgacha ish yuritish bosqichida sud nazorati tushunchasi va mazmuni [The concept and content of judicial control at the stage of pre-trial proceedings]. *TSIL Bulletin*, 2009, vol. 1, pp. 53–57.
6. Dastlabki tergov [Preliminary investigation]. Tashkent, Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, 2012, p. 222.
7. O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi [Legal encyclopedia of Uzbekistan]. Tashkent, Adolat Publ., 2010, pp. 347–348.
8. Ratinov A.R. Obysk i vyyemka [Search and seizure]. Moscow, 1961, p. 7.
9. Mosolkova Yu.A. Okhrana prav i zakonnykh interesov lichnosti [Protection of the rights and legitimate interests of the individual]. Yaroslavl, 1984, p. 38.
10. Shurukhnov N.G. Aktualnyye problemy sovershenstvovaniya deyatel'nosti organov vnutrennikh del v novykh ekonomicheskikh i sotsial'nykh usloviyakh [Current problems of improving the activities of internal affairs bodies in new economic and social conditions]. Moscow, 1997, p. 207.
11. Terov protsessual hujjatlarining namunalari [Samples of investigative procedural documents] Tashkent, 2012, p. 167.
12. Gumon qilinuvchi va ayblanuvchi huquqlarini cheklashning xalqaro tajribasi [International experience in restricting the rights of suspects and accused persons]. Tashkent, Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, 2014, p. 73.
13. Bozorov M.M. Gumon qilinuvchi va ayblanuvchining himoyalanih huquqi kafolatlarini takomillashtirish istiqbollari [Prospects for improving the guarantees of the right to defense for the suspect and the accused]. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2022, vol. 7, 59–60. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/gumon-qilinuvchi-va-ayblanuvchiga-himoyalanih-huquqi-kafolatlarini-takomillashtirish-istiqbollari>
14. Jinoyat-protsessual huquqi [Criminal procedural law]. Tashkent, TSUL Publ., 2016, p. 468.
15. Najimov M.Sh. The General Social Measures of Preventing Crimes by Using Violence Against Minors in the Family. *International Journal of Aquatic Science*, 2021, vol. 12, iss. 03, pp. 2008–2019.
16. Rajabova M.A. Jinoyat-protsessual huquqi [Criminal-procedural law]. Tashkent, Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, 2019, p. 759.

Kelib tushgan / Получено / Received: 10.12.2024
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 18.03.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 27.03.2025

DOI: 10.51788/tsul.rols.2025.9.1./EBWQ6235

UDC: 33:343.1(045)(575.1)

JINOYAT PROTSESSIDA MAXSUS IQTISODIY BILIMLAR TUSHUNCHASI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Barakayev Lazizjon Otaqulovich,
O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza
qilish akademiyasi mustaqil izlanuvchisi
ORCID: 0000-0001-9556-4930
e-mail: proacademyresearch@yahoo.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada jinoyat protsessida maxsus iqtisodiy bilimlar tushunchasi, mohiyati va ahamiyati chuqur tahlil qilingan. Xususan, maxsus iqtisodiy bilimlarning mazmun-mohiyati, asosiy elementlari va o'ziga xos belgilari ilmiy-nazariy jihatdan atroflicha o'rganilgan. Maqolada maxsus iqtisodiy bilimlarning jinoyatlarni aniqlash, tergov qilish va sudga ko'rib chiqish jarayonidagi o'rni va ahamiyati, shuningdek, ulardan foydalanishning protsessual shakllari tadqiq etilgan. Muallif maxsus iqtisodiy bilimlarning boshqa sohalaridagi maxsus bilimlardan farqlovchi xususiyatlarini tahlil qilib, ularning o'ziga xos jihatlarini aniqlagan. Shuningdek, maqolada maxsus iqtisodiy bilimlardan jinoyat protsessida foydalanishning dolzarb amaliy muammolari yoritilgan. Maxsus iqtisodiy bilimlar asosida jinoyatlarni aniqlash, dalillarni to'plash va mustahkamlash, tergov harakatlarini o'tkazish, ekspertizani tayinlash va o'tkazish, jinoyatlarning sodir etilish mexanizmi va jinoyatlarning oqibatlarini aniqlash, profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda sud qarorlarini asoslash masalalari tadqiq etilgan. Muallif maxsus iqtisodiy bilimlar tushunchasiga yangicha ta'rif bergan. Maqolada keltirilgan tahlil va xulosalar jinoyat protsessida maxsus iqtisodiy bilimlardan foydalanish samaradorligini oshirishga, sohadagi qonunchilikni takomillashtirishga hamda huquqni qo'llash amaliyotini yaxshilashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: maxsus iqtisodiy bilimlar, jinoyat protsessi, ekspertiza, mutaxassis, dalillar, iqtisodiy jinoyatlar, tergov harakatlari, sud ekspertizasi, jinoyat ishi, isbotlash

ПОНЯТИЕ И ОСОБЕННОСТИ СПЕЦИАЛЬНЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗНАНИЙ В УГОЛОВНОМ ПРОЦЕССЕ

Баракаев Лазизжон Отакулович,
самостоятельный соискатель
Правоохранительной академии
Республики Узбекистан

Аннотация. В настоящей статье всесторонне проанализированы понятие, сущность и значение специальных экономических знаний в уголовном процессе. В частности, с научно-теоретической точки зрения исследовано содержание и структура специальных экономических знаний, их основные элементы и характерные признаки. Рассматривается роль

и значение специальных экономических знаний на этапах выявления, расследования и судебного разбирательства преступлений, а также процессуальные формы их использования. Автор анализирует особенности, отличающие специальные экономические знания от других видов специальных знаний, и выявляет их специфические характеристики. В статье раскрываются актуальные практические проблемы использования специальных экономических знаний в уголовном процессе. Исследуются аспекты применения данных знаний при выявлении преступлений, сборе и закреплении доказательств, проведении следственных действий, назначении и проведении экспертиз, установлении механизма совершения преступлений и их последствий, разработке профилактических мер, а также обосновании судебных решений. Автор даёт новое определение понятию «специальные экономические знания». Приведённые в статье анализ и выводы направлены на повышение эффективности применения специальных экономических знаний в уголовном процессе, совершенствование законодательства в данной сфере и улучшение правоприменительной практики.

Ключевые слова: специальные экономические знания, уголовный процесс, экспертиза, специалист, доказательства, экономические преступления, следственные действия, судебная экспертиза, уголовное дело, доказывание

THE CONCEPT AND SPECIFIC FEATURES OF SPECIAL ECONOMIC KNOWLEDGE IN CRIMINAL PROCEEDINGS

Barakayev Lazizjon Otakulovich,

Independent researcher at the Law Enforcement Academy
of the Republic of Uzbekistan

Abstract. *In this article, the concept, essence, and significance of special economic knowledge in criminal proceedings are analyzed in depth. In particular, the essence, main elements, and specific features of special economic knowledge are thoroughly studied from a scientific and theoretical perspective. The article examines the role and significance of special economic knowledge in the processes of identifying, investigating, and considering crimes in court, as well as the procedural forms of its application. The author analyzes the features that distinguish special economic knowledge from special knowledge in other fields and identifies its specific aspects. The article also highlights current practical problems associated with the use of special economic knowledge in criminal proceedings. Based on special economic knowledge, issues related to identifying crimes, collecting and securing evidence, conducting investigative actions, appointing and conducting expert examinations, determining the mechanism of committing crimes and their consequences, developing preventive measures, and substantiating court decisions are explored. The author provides a new definition of the concept of special economic knowledge. The analysis and conclusions presented in the article aim to increase the effectiveness of using special economic knowledge in criminal proceedings, improve legislation in this area, and enhance law enforcement practices.*

Keywords: *special economic knowledge, criminal proceedings, expertise, specialist, evidence, economic crimes, investigative actions, forensic examination, criminal case, proof*

Kirish

Jinoyat protsessida jinoyat-protsessual huquqiy munosabatlarni amalga oshirishda, jumladan, jinoyat ishlarini tergov qilish va sudda ko'rib chiqish jarayonida maxsus iqtisodiy bilimlardan foydalanish masalasi hozirgi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Buning sababi shundaki, iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar tobora murakkablashib, ularni aniqlash, fosh etish va tergov qilish uchun chuqur iqtisodiy bilimlar talab etilmoqda. Shu sababli jinoyat protsessida maxsus iqtisodiy bilimlar tushunchasining mazmun-mohiyatini ochib berish, ularning

o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish orqali jinoyat protsessida tutgan o'rnini ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Material va metodlar

Tadqiqot ishida qiyosiy-huquqiy va statistik tahlil metodidan foydalanildi. Ishda umumlashtirish, induksiya va deduksiya metodlari ham qo'llandi.

Tadqiqot natijalari

Sohani tartibga solishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarda maxsus bilim yoki maxsus iqtisodiy bilim tushunchalari uchramaydi. Umumiy ma'noda Jinoyat-protsessual kodeksida ekspertning maxsus bilimlarga ega bo'lishi, mutaxassisning esa maxsus bilim va malakasidan foydalangan holda ishda ishtirok etishi mumkinligi belgilangan. N. Bababekov ham mazkur fikrlarni qo'llab, mutaxassisdan tashqari maxsus bilimlarga ega bo'lgan shaxs sifatida ekspert maydonga chiqishini e'tirof etgan [1, 80–86-b.].

Darhaqiqat, Jinoyat-protsessual kodeksi 69-moddasining birinchi qismiga muvofiq, ekspertning ma'lum bir sohalar bo'yicha maxsus bilimlarga ega bo'lishi talab etiladi. Biroq alohida tushuncha sifatida maxsus bilimlar va maxsus iqtisodiy bilimlarning nima ekanligi ochib berilmagan.

Shunga qaramasdan, maxsus iqtisodiy bilimlar tushunchasiga bir qator olimlar tomonidan turlicha ta'riflar berilgan. Ular ushbu tushunchaning mazmun-mohiyatini o'z ilmiy tadqiqot ishlari doirasida qisman bo'lsa-da, ochib berishga harakat qilishgan.

Jumladan, B.A. Mo'minov "Maxsus iqtisodiy bilimlar – jinoyat protsessida haqiqatni aniqlash maqsadida dalillarni to'plash, tekshirish va baholash jarayonida qonunda belgilangan shakllarda foydalaniladigan iqtisodiyot sohasidagi bilimlar", – deb ta'rif beradi hamda maxsus iqtisodiy bilimlar dalillar to'plashning Jinoyat-protsessual kodeksida belgilangan boshqa me'yorlari bilan birga isbotlash predmetini aniqlash uchun xizmat qilishini ta'kidlaydi [2, 11-b.].

Shunga o'xshash fikrlarni J.Sh. Raxmonov ham ilgari surib, u ham maxsus iqtisodiy bilimlarni isbot qilishga bog'lab, jinoyat protsessida dalillarni to'plash, tekshirish va baholash jarayonida iqtisodiyot sohasidagi bilimlarga tayanishni qayd etgan [3, 201–205-b.].

Yuqoridagi fikrlar bilan kelishgan holda aytish mumkinki, maxsus iqtisodiy bilimlar isbot qilish jarayonida keng foydalanilishi bilan bir qatorda ular isbot qilish predmeti, ya'ni jinoyatning obyektni, jinoyat sodir etilishi tufayli yetkazilgan zarar xususiyati va miqdorini, sodir etilgan jinoyatning vaqti, joyi va usulini, ijtimoiy xavfli qilmish va ro'y bergan ijtimoiy xavfli oqibat o'rtasidagi sababiy bog'lanishni, jinoyatning subyekti va subyektiv tomonini (jinoyatning to'g'ri yoki egri qasd bilan yoxud beparvolik yoki o'z-o'ziga ishonish natijasida sodir etilganligini), jinoyatning sabablari va maqsadlarini aniqlashga, o'z navbatida, isbot qilishning asosiy maqsadi hisoblangan haqiqatni aniqlashga ham yordam beradi.

L.P. Klimovich maxsus iqtisodiy bilimlar sud-buxgalteriya bilimlari sohasiga oid ekanligini qayd etib, maxsus bilimlarga ega bo'lgan shaxslarning qonunda belgilangan usullarni qo'llagan holda jinoyat protsessi maqsadlarini amalga oshirishda ulardan foydalanish tajribasini baholaydi [4, 48-b.].

Biroq L.G. Shapiro L.P. Klimovichning mazkur fikrlariga e'tiroz bildirib, maxsus ta'lim jarayonida olingan kasbiy bilimlarsiz faqat tajribaning o'zi maxsus bilimga ega bo'lgan shaxsning yetarli darajada kompetentligini ta'minlay olmasligini ta'kidlaydi [5, 320-b.].

Darhaqiqat, mazkur bildirilgan fikrlar bilan to'liq kelishib bo'lmaydi. Chunki yuqoridagi fikrlarga ko'ra, maxsus iqtisodiy bilimlar faqatgina sud-buxgalteriya sohasi bilan chegaralab qo'yilgan. Iqtisodiy munosabatlarning shiddat bilan rivojlanishi yangi turdagi iqtisodiy ekspertizalar turlarini tadqiq qilishni taqozo etmoqda. Ekspertiza muassasalarida sud-iqtisodiy ekspertizasi, sud-moli-

ya-kredit ekspertizasi, sud-rejali-iqtisodiyot ekspertizasi, sud-iqtisodiy-statistik ekspertizasi va boshqa shu kabi tekshirishning yangi turlari o'tkazib kelinmoqda.

Shuningdek, L.G. Shapironing fikrlarini qo'llab-quvvatlagan holda aytish mumkinki, har qanday bilim sohasida bo'lgani kabi maxsus iqtisodiy bilimlarda ham tegishli ixtisosliklar bo'yicha zarur bo'lgan bilimlarni egallamasdan turib ularni to'g'ridan to'g'ri kasbiy tajriba sifatida baholab bo'lmaydi. Kasbiy tajriba shaxsda yillar davomida shakllanadigan faoliyat mahsuli hisoblanadi. Aynan maxsus iqtisodiy bilimlar sohasida tajribaga ega bo'lmagan shaxsni maxsus iqtisodiy bilimlarga ega bo'lgan mutaxassis sifatida baholab bo'lmaydi.

M.M. Vinogradova maxsus iqtisodiy bilimlar bir nechta sohalar yig'indisidan iborat ekanligini e'tirof etgan hamda ekspert-iqtisodchining maxsus iqtisodiy bilimlari asosini buxgalteriya, moliyaviy va soliq hisobi, iqtisodiyot va ishlab chiqarishni boshqarish, moliya va kredit, soliqlar va soliqqa tortish, bank ishi, moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tahlil qilish, mehnat iqtisodiyoti, qimmatli qog'ozlar aylanmasining o'ziga xos xususiyatlari va boshqa shu kabi fanlar tashkil etishini ta'kidlaydi [6, 24-b.].

Yuqorida berilgan fikrlar asosida maxsus iqtisodiy bilimlar tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin:

“Maxsus iqtisodiy bilimlar – iqtisodiyot sohasidagi umumiy ta'lim va amaliy tajriba doirasidan tashqariga chiqadigan, maxsus tayyorgarlik va kasbiy faoliyat natijasida olingan, cheklangan doiradagi shaxslarga ma'lum bo'lgan, jinoyat-protsessual qonunchilikda belgilangan tartibda jinoyatlarni aniqlash, ularni tergov qilish va sudda ko'rib chiqish jarayonida foydalaniladigan buxgalteriya, moliya, soliq, bank va boshqa iqtisodiyot sohasidagi bilimlar majmuidir”.

Ushbu berilgan ta'rifdagi maxsus iqtisodiy bilimlar tushunchasining mazmun-mohiyati yanada tushunarli bo'lishi uchun uning asosiy elementlarini tahlil qilamiz.

1. Maxsus iqtisodiy bilimlar umumiy ta'lim va amaliy tajriba doirasidan tashqariga chiqadi. V.N. Maxov ham maxsus iqtisodiy bilimlarni umumiy ta'lim va kundalik hayotiy tajribadan tashqariga chiqadigan bilimlar sifatida baholab, ular maxsus tayyorgarlik yoki kasbiy tajriba orqali egallanishini qayd etgan [7, 296-b.]. Umumiy ta'limda turli sohalariga oid umumiy doiradagi bilimlar olingani uchun ham maxsus iqtisodiy bilimlar umumiy ta'limga nisbatan aniq sohaga ixtisoslashtirilgan bo'ladi hamda uning doirasidan chetga chiqib, chuqurlashtirilgan holda egallanadi.

2. Maxsus iqtisodiy bilimlar maxsus tayyorgarlik va kasbiy faoliyat natijasida olinadi. Demak, maxsus iqtisodiy bilimlarga ega bo'lish uchun tegishli oliy ta'lim muassasasida o'qish yoki uzoq yillik amaliy faoliyat tajribasiga ega bo'lish talab etiladi.

Y.R. Rossinskaya ta'kidlaganidek, “maxsus bilimlar – kasbiy tayyorgarlik va ish tajribasi natijasida olingan, fan, texnika, san'at yoki hunar sohasidagi nazariy va amaliy bilimlar tizimidir” [8, 656-b.].

3. Maxsus iqtisodiy bilimlar cheklangan doiradagi mutaxassislarga ma'lum bo'ladi. Ya'ni bu oddiy shaxslarga emas, balki faqatgina maxsus tayyorgarlikdan o'tgan mutaxassislarga ma'lum bo'lgan bilimlar doirasini o'z ichiga oladi. Bu fikrni A.A. Eysman ham qo'llab-quvvatlab, u maxsus bilimlarni “barcha shaxslarga ma'lum bo'lmagan va keng doirada tarqalmagan, cheklangan doiradagi mutaxassislarga tegishli bo'lgan bilimlar”, – deb ta'riflaydi [9, 152-b.]. N. Bababekov maxsus bilimlarning omma uchun ma'lum emasligini ularning birinchi muhim belgisi sifatida qayd etgan [10, 116–123-b.]. Darhaqiqat, maxsus bilimlarning alohida turi sifatida maxsus iqtisodiy bilimlar tor doiradagi soha mutaxassislari uchun ma'lum bo'ladi.

4. Maxsus iqtisodiy bilimlar sodir etilgan jinoyatlarni aniqlash, ularni tergov qilish va sudda ko'rib chiqish jarayonida qo'llanadi. Demak, maxsus iqtisodiy bilimlar faqat naza-

riy ahamiyatga ega bo'lmagan, balki amaliy jihatdan ham muhimdir. A.A. Eksarxopulo maxsus iqtisodiy bilimlarni jinoyat ishlari bo'yicha dalillarni aniqlash, to'plash, tekshirish va baholash maqsadida foydalaniladigan, maxsus tayyorgarlik va tajriba natijasida olingan bilimlar sifatida baholaydi [11, 280-b.].

A.A. Eksarxopuloning mazkur fikrlari bilan kelishib shuni aytish mumkinki, maxsus iqtisodiy bilimlar orqali jinoyatlarni ochish uchun zarur bo'lgan dalillarni aniqlash, ularni to'plash, tekshirish va baholash mumkin hamda bu orqali ish bo'yicha qonuniy, asosli va adolatli qaror qabul qilishga ham erishish mumkin.

5. Maxsus iqtisodiy bilimlar buxgalteriya, moliya, soliq, bank va boshqa iqtisodiyot sohalaridagi bilimlarni o'z ichiga oladi. Darhaqiqat, B.A. Mo'minov ta'kidlaganidek, "maxsus iqtisodiy bilimlar buxgalteriya hisobi, moliya, soliq, bank faoliyati, iqtisodiy tahlil kabi iqtisodiy fanlar sohasidagi bilimlarni ham o'z ichiga oladi hamda ushbu bilimlarga maxsus tayyorgarlik orqali erishish mumkin".

Tadqiqot natijalari tahlili

Demak, yuqorida maxsus iqtisodiy bilimlar bo'yicha berilgan tushunchadagi eng asosiy elementlarni tahlil qildik. Endi esa maxsus iqtisodiy bilimlarning mohiyatini yanada to'liqroq tushunish uchun ularning asosiy belgilarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. Bu belgilarga quyidagilarni kiritish mumkin:

Professionallik. Maxsus iqtisodiy bilimlar kasbiy tayyorgarlik va amaliy tajriba natijasida shakllanadi. Ular umumiy ta'lim doirasidan tashqariga chiqib, ma'lum bir sohadagi kasb egalariga xos bo'ladi. Ya'ni aniq bir sohadagi (moliya, soliq, audit ishi, pul-kredit va boshqalar) kasb egalariga tegishli bo'ladi. N.P. Yablokov maxsus bilimlar "maxsus (kasb-hunar ta'limi) va tajriba orqali" olinishini qayd etgan [12, 156-b.]. Bunda olim maxsus iqtisodiy bilimlarning shakllanish jarayonini professional daraja-

dagi kasb-hunar ta'limi va amaliy tajribaga bog'liq deb biladi.

Ilmiylik. Maxsus iqtisodiy bilimlar zamonaviy iqtisodiyot fanining so'nggi yutuqlariga asoslanadi. Ular ilmiy asoslangan va amaliyotda sinovdan o'tgan bo'lishi lozim. Misol uchun, ekspertizani oladigan bo'lsak, ekspert tomonidan beriladigan xulosa uning maxsus bilimlari asosida ilmiy jihatdan asoslantirilgan bo'lishi lozim. Chunki ekspert xulosasi ishda to'plangan boshqa dalillar bilan birgalikda uning ilmiy asoslanganligi nuqtayi nazaridan ham baholanadi.

Shunga ko'ra, har qanday maxsus bilimlarda bo'lgani singari maxsus iqtisodiy bilimlar ham ilmiylik belgisiga ega bo'ladi hamda maxsus bilimlarga ega bo'lgan mutaxassislar ish yuritish davomida mazkur belgidan foydalanadilar.

Tizimlilik. Maxsus iqtisodiy bilimlar tartibga solingan, o'zaro bog'liq bilimlar tizimidan iborat bo'ladi. Ular alohida-alohida emas, balki yaxlit tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Maxsuslik. Bu bilimlar umumiy emas, balki iqtisodiyotning muayyan sohalariga oid maxsus bilimlardir. Masalan, buxgalteriya hisobi, moliyaviy tahlil, soliq hisobi kabi maxsus sohalariga oid bilimlar. Umumiy maxsus bilimlarni ham ko'plab olimlar, shu jumladan: R.S. Belkin, Y.R. Rossinskaya va boshqalar fan, texnika, san'at va hunarmandchilik sohasidagi bilimlarga bo'lishni ma'qullaydilar [13, 125-b.].

Biz ham maxsus bilimlarni, jumladan, maxsus iqtisodiy bilimlarni sohalariga bo'lishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Chunki ularning sohalariga bo'linishi mutaxassislarda aniq soha bo'yicha yetarli bilimlar olishni kengaytiradi hamda ishda samaradorlik darajasi oshishiga xizmat qiladi.

Amaliy yo'nalganlik. Maxsus iqtisodiy bilimlar nazariy ahamiyatga ega bo'lishi bilan birga amaliy jihatdan ham muhimdir. Ular jinoyatlarni aniqlash, ularni tergov qilish va sudga ko'rib chiqish jarayonida amaliy qo'llanish uchun mo'ljallangan. L.V. Lazare-

va va N. Bababekov kabi mualliflar amaliy faoliyat jarayonida olingan tajribalar maxsus bilimlar mezonlarini aniqlashda muhim rol o'ynashini, shu sababli ham maxsus iqtisodiy bilimlar amaliyotga yo'naltirilganini qayd etishgan [14, 29–37-b.].

Obyektivlik. Maxsus iqtisodiy bilimlar subyektiv fikrlarga emas, balki obyektiv faktlarga va asosli ma'lumotlarga tayanadi.

Maxsus iqtisodiy bilimlarning ushbu xususiyati maxsus bilimlardan foydalanish natijalarining ishonchliligini ta'minlaydi hamda jinoyat ishi doirasida holatga aniq baho berish imkonini beradi.

Doimiy yangilanish. Iqtisodiyot sohasi doimiy ravishda rivojlanib boradi, sohani tartibga solishga qaratilgan yangi normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinadi. Shuning uchun ham maxsus iqtisodiy bilimlarni doimiy ravishda yangilash va to'ldirib borish lozim.

Huquqiy tartibga solinganlik. Maxsus iqtisodiy bilimlardan foydalanish tartibi va shakllari qonunchilik hujjatlarida belgilab qo'yilgan. Bu normalar maxsus bilimlarni tartibga solishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 69-, 172-, 173-, 180-, 184-moddalarida, 22¹-bobi-da (Taftish), "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi Qonunda va boshqa qonunchilik hujjatlarida belgilangan. Ushbu normalarda belgilangan qoidalar jinoyat ishlarini yuritishda maxsus iqtisodiy bilimlardan foydalanishda ham qo'llanadi.

Komplekslilik. Maxsus iqtisodiy bilimlar ko'pincha boshqa sohalardagi bilimlar bilan uyg'unlikda qo'llanadi. Masalan, iqtisodiy jinoyatlarni tergov qilishda iqtisodiy bilimlar bilan bir qatorda huquqiy, kriminalistik bilimlardan ham foydalanish talab etiladi.

Maqsadli yo'nalganlik. Maxsus iqtisodiy bilimlar jinoyat ishlari bo'yicha haqiqatni aniqlash, dalillarni to'plash, tekshirish va baholash kabi aniq maqsadlarga erishish uchun qo'llanadi. N. Bababekov ham olingan (egallangan) maxsus bilimlardan foydalanishning

yakuniy maqsadi jinoyat ishini ochish va tergov qilish ekanligini qayd etgan.

Maxsus iqtisodiy bilimlarning yuqorida sanab o'tilgan xususiyatlari ularning mohiyatini yanada chuqurroq anglashga yordam beradi. Shu bilan birga, bu xususiyatlar maxsus iqtisodiy bilimlarning boshqa sohalardagi maxsus bilimlardan farqini ham ko'rsatib beradi.

Maxsus iqtisodiy bilimlar jinoyat ishlarini yuritishning turli bosqichlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu bilimlardan foydalanish orqali jinoyat ishlari bo'yicha to'liq, har tomonlama va xolisona tergov o'tkazish hamda jinoyat ishi bo'yicha qonuniy, asosli va adolatli qaror qabul qilish imkoniyati yaratiladi.

Jinoyat ishlarini yuritishda maxsus iqtisodiy bilimlarning ahamiyati quyidagi jihatlar-da namoyon bo'ladi:

Jinoyatlar va ularning izlarini aniqlash. Maxsus iqtisodiy bilimlar yordamida iqtisodiy sohadagi jinoyatlar va ularning sodir etilishini aniqlash mumkin. Masalan, soliqlarning o'z vaqtida to'langan yoki to'lanmagani, olingan daromadlarning soliq hisobotlarida to'g'ri qayd etilgan yoki etilmagani, buxgalteriya hisobotlaridagi noqonuniy operatsiyalar, moliyaviy hujjat va hisobotlardagi ma'lumotlarning qalbakilashtirilganlik holatlarini aniqlash uchun chuqur iqtisodiy bilimlar talab etiladi. B.V. Voljenkin ta'kidlaganidek, "iqtisodiy jinoyatlarning aksariyati hujjatlarda aks ettirilgan moliyaviy-xo'jalik operatsiyalarini noto'g'ri rasmiylashtirish orqali sodir etiladi, bunday holatlarni faqat maxsus iqtisodiy bilimlarga ega bo'lgan shaxslar (mutaxassislar)gina aniqlay oladi" [15, 291-b.].

Shuningdek, iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar ko'pincha jinoyat izlari hujjatlarida, elektron ma'lumotlar bazalarida, buxgalteriya hisobotlarida qoladi. Bu izlarni aniqlash, ularni olish va to'g'ri talqin qilish uchun maxsus iqtisodiy bilimlar talab etiladi. Y.S. Lexanova "iqtisodiy jinoyatlarning izlari ko'pincha raqamlar, hisob-kitoblar,

moliyaviy ko'rsatkichlar ko'rinishida namoyon bo'lishini hamda bu izlarni aniqlash va ularning jinoiy ahamiyatini tushunish uchun maxsus iqtisodiy tayyorgarlik talab etilishini qayd etadi [16, 91–94-b.].

Dalillarni to'plash va mustahkamlash. Iqtisodiy jinoyatlar bo'yicha isbot qilishda, shu jumladan, dalillarni to'plash va mustahkamlash jarayonida maxsus iqtisodiy bilimlar muhim rol o'ynaydi. Jumladan, moliyaviy hujjatlarni tahlil qilish, buxgalteriya hisobotlarini tekshirish, bank operatsiyalarini o'rganish kabi harakatlarni amalga oshirish hamda ularni tahlil qilish uchun chuqur iqtisodiy bilimlar zarur bo'ladi.

S.P. Golubyatnikov va Y.S. Lexanovalar ta'kidlaganidek, "iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar bo'yicha dalillarni to'plash jarayonida buxgalteriya hisobi, moliyaviy tahlil, audit kabi sohalaridagi bilimlardan keng foydalaniladi" [17, 345-b.].

Tergov harakatlarini o'tkazish. Maxsus iqtisodiy bilimlar yordamida iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar bo'yicha tergov harakatlarini yanada samaraliroq tashkil etish va o'tkazish mumkin. Masalan, gumon qilinuvchini so'roq qilishda unga asosli savollar berish va uning javoblarini qayd qilish va tushunish, hujjatlarni olib qo'yish va ko'zdan kechirish, taftish tayinlash kabi tergov harakatlarini amalga oshirishda iqtisodiy bilimlar muhim ahamiyat kasb etadi. Y.S. Dubonosovning fikricha, "iqtisodiy jinoyatlar bo'yicha tergov harakatlarini o'tkazishda maxsus iqtisodiy bilimlarga ega bo'lgan mutaxassislarni jalb qilish tergov samaradorligini sezilarli darajada oshiradi" [18, 83-b.].

Ekspertizani tayinlash va o'tkazish. Iqtisodiy jinoyatlar bo'yicha sud-iqtisodiy ekspertizasi, sud-moliya-kredit ekspertizasi, sud-rejali-iqtisodiyot ekspertizasi, sud-iqtisodiy-statistik ekspertizasi, sud-buxgalteriya va boshqa turdagi ekspertizalarni tayinlash va o'tkazish jarayonida maxsus iqtisodiy bilimlar alohida ahamiyat kasb etadi. Bu borada Sh.N. Xo'jaqulov ham fikr bildirib, sud-iq-

tisodiy ekspertizalarini o'tkazishda ekspert oldiga qo'yiladigan savollarni to'g'ri shakllantirish, ekspertiza obyektlarini aniqlash, ekspertiza xulosasini baholash uchun tergovchi va sudyalarning yetarli darajada iqtisodiy bilimlarga ega bo'lishlari lozimligini qayd etadi [19, 132-b.].

Jinoyatlarning sodir etilish mexanizmini aniqlash. Maxsus iqtisodiy bilimlar yordamida iqtisodiy jinoyatlarning sodir etilish mexanizmi, usullari va sxemalarini aniqlash mumkin. Bu esa, o'z navbatida, jinoyatchilarni aniqlash, ularni fosh etish va shaxsning aybini isbotlashda muhim ahamiyatga ega. A.F. Lubin iqtisodiy jinoyatlarning sodir etilish mexanizmini aniqlash uchun iqtisodiyot sohasidagi chuqur bilimlar, shu jumladan, buxgalteriya, moliya, soliq tizimi, bank faoliyati kabi sohalarini yaxshi bilish talab etilishini ta'kidlaydi [20, 143-b.].

Jinoyatlarning oqibatlarini aniqlash. Maxsus iqtisodiy bilimlar yordamida iqtisodiy jinoyatlarning sodir etilishi natijasida yetkazilgan zarar miqdorini, jinoyat sodir etilishi natijasida olingan daromadlar hajmini aniqlash mumkin. Bu esa jinoyatning og'irlik darajasini belgilash va jazo tayinlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

B.V. Voljenkin to'g'ri ta'kidlaganidek, "iqtisodiy jinoyatlar oqibatida yetkazilgan zararni aniqlash murakkab jarayon bo'lib, bunda moliyaviy tahlil, iqtisodiy hisob-kitoblar o'tkazish talab etiladi".

Profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish. Maxsus iqtisodiy bilimlar yordamida iqtisodiy jinoyatlarning sodir etilishiga imkon beruvchi sabab va shart-sharoitlarni aniqlash, bunday jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish mumkin.

I.A. Popovanning ta'kidlashicha, "iqtisodiy jinoyatlar profilaktikasi uchun iqtisodiy tizimning zaif tomonlarini aniqlash, moliyaviy nazorat mexanizmlarini takomillash-tirish zarur, bu ishlarni amalga oshirish uchun chuqur iqtisodiy bilimlar talab etiladi" [21, 84-b.].

Sud qarorlarini asoslash. Iqtisodiy jinoyatlar bo'yicha sud qarorlarini qabul qilish va asoslashda ham maxsus iqtisodiy bilimlar muhim rol o'ynaydi. Sudyalar iqtisodiy jinoyatlar mohiyatini to'g'ri anglash, ish bo'yicha to'plangan dalillarni to'g'ri baholash va adolatli hukm chiqarish uchun yetarli darajada iqtisodiy bilimlarga ega bo'lishlari lozim.

A.N. Larkov to'g'ri ta'kidlaganidek, "iqtisodiy jinoyatlar bo'yicha sud qarorlarining asosliliigi va qonuniyligi ko'p jihatdan sudyalarning iqtisodiy bilim darajasiga bog'liq" [22, 192-b.].

Bundan tashqari, xalqaro hamkorlikni amalga oshirishda ham maxsus iqtisodiy bilimlarning ahamiyati oshib bormoqda. Globalashuv sharoitida iqtisodiy jinoyatlar ko'pincha transmilliy xususiyat kasb etmoqda. Bunday jinoyatlarni tergov qilish va sud-da ko'rib chiqish jarayonida xalqaro hamkorlikni amalga oshirish zarur bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, xalqaro moliya tizimi, valyuta operatsiyalari, xalqaro bank faoliyati kabi sohalar-da chuqur iqtisodiy bilimlarni talab etadi. V.A. Jbankovning fikricha, "transmilliy iqtisodiy jinoyatlarni tergov qilish va sud-da ko'rib chiqishda nafaqat milliy, balki xalqaro iqtisodiy qonunchilik va amaliyot bo'yicha ham chuqur bilimlarga ega bo'lish talab etiladi" [23, 207-b.].

Shuningdek, maxsus iqtisodiy bilimlarning o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lishi ularni boshqa sohalar-dagi maxsus bilimlardan farqlashga imkon beradi. Quyida maxsus iqtisodiy bilimlarning boshqa sohalar-dagi maxsus bilimlardan farqlarini tahlil qilamiz:

O'rganish predmeti va obyektining o'ziga xosligi. Maxsus iqtisodiy bilimlar iqtisodiy munosabatlar, moliyaviy jarayonlar, xo'jalik faoliyati kabi sohalarni qamrab oladi. Bu esa ularni texnika, tibbiyot yoki boshqa sohalar-dagi maxsus bilimlardan farqlash imkoniyatini beradi.

Sh.N. Xo'jaqulov to'g'ri ta'kidlaganidek, "maxsus iqtisodiy bilimlar predmeti iqtisodiy kategoriyalar, moliyaviy ko'rsatkichlar, iqtiso-

diy-moliyaviy operatsiyalar kabi tushunchalar bilan bog'liq bo'lib, bu ularni boshqa sohalar-dagi maxsus bilimlardan ajratib turadi".

Qo'llanish sohasining kengligi. Maxsus iqtisodiy bilimlar jamiyat hayotining deyarli barcha sohalarida qo'llanishi mumkin, chunki iqtisodiy munosabatlar jamiyatning asosini tashkil etadi. Bu esa ularni muayyan sohada qo'llanadigan tor doiradagi maxsus bilimlardan farqlaydi.

Y.R. Rossinskaya bu haqda shunday yozadi: "Maxsus iqtisodiy bilimlar universal xususiyatga ega bo'lib, ular nafaqat iqtisodiy jinoyatlarni, balki boshqa turdagi jinoyatlarni ham tergov qilishda qo'llanishi mumkin".

Miqdoriy ko'rsatkichlarga asoslanganligi. Maxsus iqtisodiy bilimlar ko'p hollarda raqamlar, statistik ma'lumotlar, moliyaviy ko'rsatkichlar kabi miqdoriy ifodalangan ma'lumotlar bilan ishlashni nazarda tutadi. Mazkur miqdoriy ko'rsatkichlar ularni boshqa sohalar, masalan, psixologiya yoki pedagogika sohasidagi maxsus bilimlardan ajratib turadi. L.P. Klimovichning fikricha, "maxsus iqtisodiy bilimlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular asosan miqdoriy ko'rsatkichlarga, matematik hisob-kitoblarga tayanadi" [24, 49-b.].

Normativ-huquqiy asosning mavjudligi. Maxsus iqtisodiy bilimlar ko'p hollarda qonunchilik hujjatlari, me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadigan sohalar-ga taalluqli bo'ladi. Masalan, buxgalteriya hisobi, moliya, soliq, audit, bank faoliyati kabi sohalar qat'iy huquqiy tartibga solingan. Bu esa maxsus iqtisodiy bilimlarni boshqa sohalar, masalan, san'at yoki adabiyot sohasidagi maxsus bilimlardan farqlash imkoniyatini beradi.

S.P. Golubyatnikov ham maxsus iqtisodiy bilimlar normativ-huquqiy hujjatlarda qat'iy belgilab qo'yilganini ularning asosiy xususiyatlaridan biri sifatida qayd etgan [25, 103-b.].

Dinamik o'zgaruvchanlik. Iqtisodiyot juda tez o'zgaruvchan soha bo'lib, yangi iqtisodiy

va moliyaviy munosabatlar rivojlanib borishi natijasida bozor mexanizmlari paydo bo'ladi. Shu sababli maxsus iqtisodiy bilimlar ham doimiy yangilanishni talab etadi. Bu esa ularni nisbatan barqaror bo'lgan boshqa sohalardagi maxsus bilimlardan farqlaydi.

M.M. Vinogradova to'g'ri ta'kidlaganidek, "maxsus iqtisodiy bilimlar doimiy ravishda yangilanib turishi kerak, chunki iqtisodiyot sohasida tez-tez yangi qonunlar, me'yoriy hujjatlar qabul qilinadi, yangi moliyaviy munosabatlar paydo bo'ladi".

Prognozlash imkoniyati. Maxsus iqtisodiy bilimlar yordamida nafaqat mavjud iqtisodiy holatni tahlil qilish, balki kelajakdagi iqtisodiy jarayonlarni ham prognozlash mumkin. Bu esa ularni, masalan, faqat o'tmishdagi hodisalarni o'rganishga qaratilgan tarix sohasidagi maxsus bilimlardan farqlaydi. V.A. Prorovichning fikricha, "maxsus iqtisodiy bilimlar iqtisodiy jarayonlarning rivojlanish tendensiyalarini aniqlash, kelgusidagi iqtisodiy holatni bashorat qilish imkonini beradi" [26, 116-b.].

Ixtisoslashuv darajasining yuqoriligi. Maxsus iqtisodiy bilimlar iqtisodiyotning turli tarmoqlari bo'yicha chuqur ixtisoslashuvni nazarda tutadi. Masalan, bank ishi, sug'urta, qimmatli qog'ozlar bozori kabi sohalarda alohida mutaxassislar tayyorlanadi. Bu esa maxsus iqtisodiy bilimlarni nisbatan keng qamrovli bo'lgan boshqa sohalardagi maxsus bilimlardan farqlaydi.

L.G. Shapiro to'g'ri qayd etganidek, "maxsus iqtisodiy bilimlar sohasidagi mutaxassislar odatda iqtisodiyotning muayyan tor sohasi bo'yicha chuqur bilimlarga ega bo'ladilar" [27, 174-b.].

Ijtimoiy ahamiyati. Maxsus iqtisodiy bilimlar jamiyat hayotida muhim o'rin tutadi, chunki ular yordamida iqtisodiy jinoyatlarni fosh etish, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash, iqtisodiy barqarorlikka erishish mumkin. Bu esa ularning ijtimoiy ahamiyatini oshiradi. Ushbu masalani B.V. Voljenkin ham alohida qayd etib, maxsus iqtisodiy bilimlar nafaqat

alohida jinoyat ishlarini tergov qilish, balki umuman iqtisodiy jinoyatchilikka qarshi kurashish, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash uchun ham muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi.

Yuqorida keltirilgan farqlar maxsus iqtisodiy bilimlarning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib beradi. Bu farqlarni anglash esa jinoyat ishlarini yuritish jarayonida maxsus iqtisodiy bilimlardan samarali foydalanish imkonini beradi.

Xulosalar

Yuqoridagi tahlillar asosida maxsus iqtisodiy bilimlar tushunchasi va o'ziga xos xususiyatlari yuzasidan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Yuridik adabiyotlarda maxsus iqtisodiy bilim tushunchasiga nisbatan turli fikrlar bildirilganidan kelib chiqib, maxsus iqtisodiy bilimlar tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin:

"Maxsus iqtisodiy bilimlar – iqtisodiyot sohasidagi umumiy ta'lim va amaliy tajriba doirasidan tashqariga chiqadigan, maxsus tayyorgarlik va kasbiy faoliyat natijasida olingan, cheklangan doiradagi shaxslarga ma'lum bo'lgan, jinoyat-protsessual qonunchilikda belgilangan tartibda jinoyatlarni aniqlash, ularni tergov qilish va sudga ko'rib chiqish jarayonida foydalaniladigan buxgalteriya, moliya, soliq, bank va boshqa iqtisodiyot sohasidagi bilimlar majmui".

Ushbu berilgan ta'rifdagi maxsus iqtisodiy bilimlar tushunchasining mazmun-mohiyati yanada tushunarli bo'lishi uchun uning asosiy elementlari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- umumiy ta'lim va amaliy tajriba doirasidan tashqariga chiqadi;
- maxsus tayyorgarlik va kasbiy faoliyat natijasida olinadi;
- cheklangan doiradagi mutaxassislariga ma'lum bo'ladi;
- sodir etilgan jinoyatlarni aniqlash, ularni tergov qilish va sudga ko'rib chiqish jarayonida qo'llanadi;

– buxgalteriya, moliya, soliq, bank va boshqa iqtisodiyot sohalaridagi bilimlarni o'z ichiga oladi.

Maxsus iqtisodiy bilimlarning asosiy belgilari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- professionallik;
- ilmiylik;
- tizimlilik;
- maxsuslik;
- amaliy yo'nalganlik;
- obyektivlik;
- doimiy yangilanish;
- huquqiy tartibga solinganlik;
- komplekslilik;
- maqsadga yo'nalganlik.

Jinoyat ishlarini yuritishda maxsus iqtisodiy bilimlarning ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- jinoyatlar va ularning izlarini aniqlash;
- dalillarni to'plash va mustahkamlash;
- tergov harakatlarini o'tkazish;
- ekspertizani tayinlash va o'tkazish;
- jinoyatlarning sodir etilish mexanizmini aniqlash;
- jinoyatlarning oqibatlarini aniqlash;

- profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish;
- sud qarorlarini asoslash.

Maxsus iqtisodiy bilimlarning o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lishi ularni boshqa sohalaridagi maxsus bilimlardan farqlashga imkon beradi. Maxsus iqtisodiy bilimlarning boshqa sohalaridagi maxsus bilimlardan farqlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- o'rganish predmeti va obyektining o'ziga xosligi;
- qo'llanish sohasining kengligi;
- miqdoriy ko'rsatkichlarga asoslanganligi;
- normativ-huquqiy asosning mavjudligi;
- dinamik o'zgaruvchanlik;
- prognozlash imkoniyati;
- ixtisoslashuv darajasining yuqoriligi;
- ijtimoiy ahamiyati.

Xulosa qilib aytganda, maxsus iqtisodiy bilimlar jinoyat protsessining muhim elementi hisoblanadi. Ular iqtisodiy jinoyatlarni aniqlash, tergov qilish va oldini olishda katta ahamiyat kasb etadi. Maxsus iqtisodiy bilimlarning o'ziga xos xususiyatlari ularni boshqa sohalaridagi maxsus bilimlardan farqlab turadi va jinoyat protsessida alohida o'rin tutishini ta'minlaydi.

REFERENCES

1. Bababekov N.D. Tergovga qadar tekshiruv jarayonida maxsus bilimlardan foydalanish [Use of special knowledge in pre-investigation process]. *Lawyer Herald*, 2023, no. 2, pp. 80–86.
2. Muminov B. Sudga qadar ish yurituvda maxsus iqtisodiy bilimlardan foydalanishni takomillashtirish [Improving the use of special economic knowledge in pre-trial proceedings]. Tashkent, 2018, p. 11.
3. Rakhmonov J. Jinoyat ishlari yurituvda iqtisodiy bilimlardan foydalanish tushunchasi va uning haqiqatni aniqlashdagi ahamiyati [The concept of using economic knowledge in criminal proceedings and its importance in establishing truth]. *Digitalization of Court Activities: Current and Future Tasks*, 2022, vol. 1, no. 1, pp. 201–205.
4. Klimovich L.P. Sudebno-ekonomicheskkiye ekspertizy: teoreticheskkiye i metodicheskkiye osnovy, znachenkiye pri rassledovanii prestupleniy [Forensic economic examinations: theoretical and methodological foundations, significance in crime investigation]. Krasnoyarsk, 2004, p. 48.
5. Shapiro L.G. Protssesual'nyye i kriminalisticheskkiye aspekty ispol'zovaniya spetsial'nykh znaniy pri rassledovanii prestupleniy v sfere ekonomicheskoy deyatel'nosti [Procedural and criminalistic aspects of using special knowledge in investigating economic crimes]. Moscow, 2007, p. 320.
6. Vinogradova M.M. Teoreticheskkiye i metodologicheskkiye osnovy ekspertnogo issledovaniya finansovogo sostoyaniya khozyaystvuyushchego sub'ekta pri rassledovanii prestupleniy v sfere

ekonomicheskoy deyatelnosti [Theoretical and methodological foundations of expert study of financial condition in economic crimes]. Moscow, 2006, p. 24.

7. Makhov V.N. Ispol'zovaniye znaniy svedushchikh lits pri rassledovanii prestupleniy [Using expert knowledge in crime investigation]. Moscow, RUDN University Publ., 2000, p. 296.

8. Rossinskaya E.R. Sudebnaya ekspertiza v grazhdanskom, arbitrazhnom, administrativnom i ugolovnom protsesse [Forensic examination in civil, arbitration, administrative and criminal proceedings]. Moscow, 2015, p. 656.

9. Eysman A.A. Zaklyucheniye eksperta. Struktura i nauchnoye obosnovaniye [Expert conclusion. Structure and scientific justification]. Moscow, Yurid. lit. Publ., 1967, p. 152.

10. Bababekov N. Jinoyat protsessida maxsus bilimlar tushunchasi va uning belgilari [Concept of special knowledge in criminal proceedings and its features]. *Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences*, 2023, vol. 3, no. 3, pp. 116–123.

11. Eksarkhopulo A.A. Spetsialnye poznaniya i ikh primeneniye v issledovanii materialov ugolovnogo dela [Special knowledge and its application in criminal case materials]. Saint Petersburg, Saint Petersburg State University Publ., 2015, p. 280.

12. Yablokov N.P. Kriminalistika [Criminalistics]. Moscow, 2001, p. 718.

13. Belkin R.S. Kriminalisticheskaya entsiklopediya [Criminalistic encyclopedia]. Moscow, 2000, p. 334.

14. Averyanova T.V. Subekty ekspertnoy deyatelnosti [Subjects of expert activity]. *Herald of Criminology*, 2001, no. 2, pp. 29–37.

15. Volzhenkin B.V. Ekonomicheskie prestupleniya [Economic crimes]. Saint Petersburg, Yuridicheskiy tsentr Press, 2009, p. 312.

16. Lekhanova E.S. Problemy kriminalisticheskoy adaptatsii sudebno-ekonomicheskikh znaniy k zadacham raskrytiya i rassledovaniya prestupleniy [Problems of forensic economic knowledge adaptation for crime detection]. *Bulletin of the Nizhny Novgorod Academy of the Ministry of Internal Affairs of Russia*, 2008, no. 2 (9), pp. 91–94.

17. Golubyatnikov S.P., Lekhanova E.S. Sudebnaya bukhgalteriya i osnovy audita [Forensic accounting and auditing basics]. Moscow, Yuridicheskaya literatura Publ., 2004, p. 480.

18. Dubonosov, E.S. Sudebnaya bukhgalteriya [Forensic accounting: university textbook and practicum]. Moscow, Jurayt Publ., 2021, p. 332.

19. Khojakulov Sh.N. Sud-iqtisodiy ekspertizasi [Forensic economic examination]. Tashkent, TSUL Publ., 2018, p. 284.

20. Lubin A.F. Metodologiya kriminalisticheskogo issledovaniya mekhanizma prestupnoy deyatelnosti [Methodology of forensic investigation of criminal activity mechanism]. Nizhny Novgorod, 1997, p. 337.

21. Popova I.A. Metodika rassledovaniya prestupleniy v sfere ekonomicheskoy deyatelnosti [Methods of investigating economic crimes]. Moscow, Prospekt Publ., 2020, p. 304.

22. Larkov A.N. Teoreticheskiye osnovy i praktika ispol'zovaniya spetsialnykh znaniy v rassledovanii ekonomicheskikh prestupleniy [Theory and practice of using special knowledge in economic crime investigation]. Moscow, 2016, p. 418.

23. Zhbakov V.A. Kontseptual'nyye osnovy ustanovleniya ushcherba i organizatsii vozmeshcheniya ego v ugolovnom sudoproizvodstve [Conceptual foundations of damage assessment and compensation in criminal proceedings]. Nizhny Novgorod, 2016, p. 403.

24. Klimovich L.P. Nauchnye osnovy sovremennoy sudebnoy ekonomicheskoy ekspertizy [Scientific foundations of modern forensic economic examination]. Moscow, Prospekt Publ., 2014, p. 144.

25. Golubyatnikov S.P. Sudebnaya bukhgalteriya [Forensic accounting]. Moscow, IMTs GUK MVD Rossii Publ., 2012, p. 224.

26. Prorovich V.A. Sudebno-otsenoch'naya ekspertiza. Pravovyye, organizatsionnyye i nauchno-metodicheskiye osnovy [Forensic evaluation expertise: Legal, organizational and methodological foundations]. Moscow, YUNITI-DANA Publ., 2007, p. 399.

27. Shapiro L.G. Spetsial'nyye znaniya v ugolovnom sudoproizvodstve [Special knowledge in criminal proceedings]. Moscow, Yurlitinform Publ., 2016, p. 224.

Kelib tushgan / Получено / Received: 24.01.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 18.03.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 27.03.2025

DOI: 10.51788/tsul.rols.2025.9.1./MMAY2885

UDC: 343.37(045)(575.1)

THE IMPACT OF CORRUPTION FACTORS IN PUBLIC ADMINISTRATION

Ahmadjonov Murodullo Nurali ugli,

Assistant to the Prosecutor of Kosonsoy District, Namangan region,
Independent researcher at Tashkent State University of Law

ORCID: 0009-0006-4286-6752

e-mail: murodulloahmadjonov123@gmail.com

Abstract. *This article highlights the growing global impact of corruption and its negative aspects on democracy, human rights, and sustainable development goals. At the same time, in this research work, using a literature review and analysis of secondary data, special attention is paid to the spread of corruption, its various forms, and especially its destructive consequences in public administration. Furthermore, this article highlights how corruption undermines public trust, reduces institutional effectiveness, misallocates resources, and seriously impacts critical sectors such as healthcare. In turn, this research work pays special attention to the importance of developing a culture of honesty, raising public awareness, and ensuring transparency and accountability in public services. At the same time, this article focuses on assessing the complex relationship of corruption to the effectiveness of public administration, how corruption affects public administration institutions, and what negative consequences it leads to in the provision of public services in general. This article also emphasizes the need for systemic reforms, transparency, accountability, and a radical improvement of the code of ethics for civil servants, as well as other efforts to combat and effectively eradicate corruption. At the same time, it is shown that this is one of the important measures in instilling moral values and a culture of honesty in the younger generation. Using the example of developed countries free from corruption, it is noted that the fight against corruption is carried out through strict laws and coordinated efforts. In turn, this article emphasizes through examples that corruption is not only a problem that worries the public but also a catalyst leading to weakened governance, increased instability, and overall economic difficulties.*

Keywords: *transparency, public administration, institutional effectiveness, citizen participation, mechanisms, legal literacy, functional measures*

DAVLAT BOSHQARUVIGA KORRUPSIYAVIY OMILLARNING TA'SIRI

Ahmadjonov Murodullo Nurali o'g'li,

Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi,
Namangan viloyati Kosonsoy tumani
prokurori yordamchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada korrupsiyaning kuchayib borayotgan global ahamiyati hamda uning demokratiya, inson huquqlari va barqaror rivojlanish maqsadlariga salbiy ta'siri yoritilgan; adabiyotlar sharhi va ikkilamchi ma'lumotlar tahlillaridan foydalanib, korrupsiyaning tarqalishi, uning turli shakllari va ayniqsa, davlat boshqaruvidagi oqibatlariga alohida e'tibor qaratilgan; korrupsiyaning jamiyat*

ishonchini susaytirishi, institutsional samaradorlikni pasaytirishi, resurslarni noto'g'ri taqsimlashi va sog'liqni saqlash kabi muhim sohalarga jiddiy ta'sir ko'rsatishi o'rganilgan. Tadqiqotda, shuningdek, halollik madaniyatini shakllantirish, jamoatchilik xabardorligini oshirish hamda davlat xizmatlarida shaffoflik va hisobdorlikni ta'minlashning muhimligi kabi masalalar tahlil qilingan. Korruptsiyaning davlat boshqaruvi samaradorligi bilan o'zaro aloqasini baholash, uning davlat boshqaruvi institutlariga ta'siri va davlat xizmatlari ko'rsatishda qanday salbiy oqibatlar olib kelishi bayon etilgan. Shu bilan birga, maqolada tizimli islohotlar, shaffoflik, hisobdorlik, davlat xizmatchilari axloqiy kodeksini tubdan takomillashtirish va korruptsiyani samarali tarzda bartaraf etishga qaratilgan boshqa sa'y-harakatlar zarurligi ta'kidlangan. Bu yoshlar orasida axloqiy qadriyatlar va halollik madaniyatini shakllantirishning asosiy shartlaridan biridir. Bundan tashqari, maqolada rivojlangan va korruptsiyadan xoli mamlakatlar misolida korruptsiyaga qarshi kurashish qat'iy qonunlar hamda hamjihatlikdagi sa'y-harakatlar orqali amalga oshirilishi qayd etilgan; korruptsiyaning nafaqat jamoatchilikni tashvishga soluvchi muammo, balki zaif boshqaruv, beqarorlikning kuchayishi va umumiy iqtisodiy qiyinchiliklarga sabab bo'luvchi omil ekanligi aniqlik misollar asosida keltirilgan.

Kalit so'zlar: shaffoflik, davlat boshqaruvi, institutsional samaradorlik, fuqarolar ishtiroki, mexanizmlar, huquqiy savodxonlik, funksional chora-tadbirlar

ВЛИЯНИЕ ФАКТОРОВ КОРРУПЦИИ В СИСТЕМЕ ГОСУДАРСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ

Ахмаджонов Муродулло Нурали угли,
самостоятельный соискатель Ташкентского государственного
юридического университета,
помощник прокурора Касансайского района
Наманганской области

Аннотация. В данной статье освещается растущее глобальное влияние коррупции и её негативное воздействие на демократию, права человека и цели устойчивого развития. В рамках исследования, основанного на анализе литературы и вторичных данных, особое внимание уделяется распространению коррупции, её различным формам и, в частности, разрушительным последствиям в сфере государственного управления. В статье подчёркивается, как коррупция подрывает общественное доверие, снижает эффективность институтов, приводит к нецелевому распределению ресурсов и оказывает серьёзное влияние на ключевые сферы, такие как здравоохранение. В свою очередь, исследование акцентирует важность формирования культуры честности, повышения общественной осведомлённости, а также обеспечения прозрачности и подотчётности в сфере государственных услуг. Особое внимание уделено оценке сложной взаимосвязи между коррупцией и эффективностью государственного управления, влиянию коррупции на институты государственной власти и тем негативным последствиям, к которым она приводит при предоставлении государственных услуг в целом. Также подчёркивается необходимость системных реформ, прозрачности, подотчётности, радикального совершенствования этического кодекса государственных служащих и иных усилий по борьбе с коррупцией и её эффективному искоренению. Отдельно отмечается, что это является одним из ключевых условий формирования моральных ценностей и культуры честности у молодёжи. На примере развитых стран, свободных от коррупции, показано, что борьба с этим злом ведётся посредством строгого законодательства и скоординированных действий. В статье подчёркивается, что коррупция – это не только проблема, вызывающая тревогу у общества, но и фактор, провоцирующий ослабление управления, рост нестабильности и общие экономические проблемы.

Ключевые слова: прозрачность, государственное управление, институциональная эффективность, участие граждан, механизмы, правовая грамотность, функциональные меры

Introduction

There is no secret that corruption-related offences are on the rise due to insufficient decisive actions to tackle corruption and reinforce public institutions, which undermines democracy, human rights, and jeopardizes the Sustainable Development Goals. One empirical approach to comprehend the evolution of corruption at international, regional, or local levels is through measurement indicators. Since the 1990s, various agencies across the globe have developed tools aimed at obtaining a more comprehensive understanding of corruption, its catastrophic impacts, and its deeply rooted nature. Critical methods for assessing corruption risks include opinion surveys and government statistical tools, with similar initiatives observed at national or local levels [1].

It is worth noting that the Corruption Perceptions Index, published annually by Transparency International, highlights Denmark and Finland as the top-ranking countries in terms of low corruption rates in 2023, with respective scores of 90 and 87 among 180 countries. In contrast, Afghanistan, North Korea, and Somalia rank the lowest, constituting 20, 17, and 11, respectively. The index represents that Uzbekistan has seen a modest gain compared to previous reports, meaning that although Uzbekistan has not achieved outstanding scores in corruption perception index, the country is making significant efforts.

It is common knowledge that corruption invariably represents a grueling challenge that can lead to severe consequences within a society. When corruption is unchecked and infiltrates public officials, it erodes trust in government, undermines institutional effectiveness, and compromises justice as a whole. To be specific, corruption has surpassed some control measures in a last decade; for instance, corruption within the healthcare sector during the COVID-19

pandemic has emerged as a global issue, for instance. In turn, Medicare-related corruption has a detrimental and unjust impact on individuals' lives. This issue affects both developed and developing nations on a large scale. In many developing countries, public health has been hindered by inadequate basic infrastructure, insufficient human resources, and a lack of necessary supplies and equipment, among other factors.

As we pointed out above, corruption and bribery erode public trust in public institutions and weaken the rule of law. These practices not only negatively influence a country's economy and development but also harm civilians by misallocating resources that could be directed toward essential services such as education, healthcare, safety and just to name a few. In this regard, promoting a culture of integrity and good ethics within public service is paramount [2]. This can be achieved through training and raising awareness among both civilians and public officials about the risks and repercussions of corruption while encouraging responsibility and citizen engagement in overseeing government activities.

A literature review on this topic will enhance our understanding of how corruption impacts the effectiveness of public administration, which is vital for identifying controversial areas and seeking solutions to improve public management. Investigating the relationship between corruption and public administration effectiveness is essential for enhancing governance, transparency, and the quality of government services. This not only benefits society as a whole but also improves governmental operations and efforts to fight against corruption. Fundamentally, the aim of this research is to evaluate corruption and its effects on the effectiveness of public administration. Furthermore, the aim is to explore the impact of corruption on

the capacity of government institutions to perform their duties and adequately serve the public interest while offering a more comprehensive insight into the fundamental mechanisms that link corruption with administrative effectiveness [3].

Materials and methods

This study employs a multi-faceted approach to identify and evaluate corruption risks in public administration, accounting for legislative review, academic articles, report from international organizations, policy evaluation, alongside comparative analysis. The study's methodology includes analyzing legal frameworks, evaluating current practices, conducting comparative studies, raising awareness about corruption and developing proposals and so on. Through a thorough examination of existing legal measures against corruption, this paper aims to enhance our understanding and management of corruption, assess its risks, and explore how to modify legislation to better combat it [4].

These combined methods enable us to do a detailed research on this topic, offering essential insights into the devastating consequences of corruption and contributing to a better understanding of how to assess, identify and prevent corruption and its risks in government. Especially, the all-around analysis carried out will focus on identifying patterns, trends, and disparities in corruption levels and their relationship with public administration effectiveness across different countries and sectors on the whole [5].

Research results

Corruption is widely recognized as a major impediment to societal progress. It undermines the foundational pillars of democracy, harms public health, deprives citizens of essential services, and erodes public trust. This, in turn, urges us to figure out that there is an urgent the need for concerted efforts, including systemic reforms, transparency, accountability, ethical

leadership, a continuous commitment to combatting corruption on the whole [6]. To address the current corruption-related situation and circumstances, we are expected to pay more attention to education as it plays a vital role in combating corruption by instilling ethical values and a culture of integrity in individuals from an early age. In addition, a collaborative approach among society, government, and institutions are paramount in the fight against corruption. While several developed and developing countries are making progress by establishing specialized anti-corruption mechanisms, enacting stricter laws, and promoting transparency in state governance, hands-on reforms always remain effectively to address this challenge [7].

Furthermore, citizen engagement is crucial, as many individuals must stay informed and actively participate in anti-corruption efforts by coming forward report suspicious activities and holding officials accountable [8].

It is important to recognize that corruption is not just a public concern—it contributes to various issues such as weakened government capacity, increased instability, and economic challenges consisting of black economy [9]. Addressing corruption requires a comprehensive approach that involves education, citizen engagement, and robust government action to foster integrity and transparency as a whole. Through the aforementioned measures, we can identify, assess, and root out corruption and corruption risks in public administration. However, achieving lasting results demands time, resources, political will, long-term perseverance, and resilience.

Analysis of research results

In recent years, policies promoting transparency, responsible public management, and citizens' access to public information have become crucial to reconnecting with the populace [10].

The increasing skepticism towards public administrations has led to a new focus on transparency, as governments across the globe strive to reclaim lost legitimacy [11]. Many individuals recognize the prevalence of corruption in the public sector and view it as a major pressing concern for the growth of populace. However, various barriers hinder the reporting of corrupt activities, including lack of information, fear of retaliation, insufficient support, and anxiety regarding authorities.

It is widely acknowledged that corruption poses significant challenges and dire ramifications, negatively affecting efforts to enhance governance and public administration quality. This, in turn, can erode public trust in government institutions, as citizens may feel that officials are not acting in their interests and that the system benefits a select few rather than the broader population. Furthermore, corruption also diminishes the credibility of government bodies and disrupts the social contract between the state and its citizens as a lack of trust in governmental entities can adversely affect national political stability and economic development on the whole [10]. A lack of awareness about corruption further fosters feelings of frustration and powerlessness among the populace. For example, a study conducted in South Africa regarding e-government implementation found that citizens distrust local municipalities, believing them to be rife with corruption. Similarly, Jones, one of the most renowned scientists in the domain of law, notes that public trust in Malaysian government institutions has been eroded due to corruption. According to these two distinguished scientists, the pervasive nature of corruption, particularly at high government levels, has led to diminished confidence in the integrity and transparency of these institutions. In a sense, it is apparent that this erosion of trust can significantly

impact government stability and legitimacy, as well as perceptions regarding the effectiveness of governmental policies and initiatives [12].

Based on my experience and knowledge, public confidence is adversely affected by various forms of corruption within government institutions in some countries. Corruption undermines trust in these institutions, which, in turn, negatively impacts the effectiveness and efficiency of public policies. Additionally, it influences the political stability and economic development of the country, as well as the credibility of governmental bodies and the social contract between the state and its citizens, which is because, without a doubt corruption can diminish the efficacy of government policies, hinder economic growth, and perpetuate poverty and underdevelopment nationwide.

To prevent and combat corruption in public administration, top-down mechanisms are essential. For instance, when independent bureaucrats hold politicians accountable by criticizing inefficiencies in public works projects, it can lead to a reallocation of public resources from mismanaged projects to initiatives that promote growth, such as well-planned infrastructure [13]. Although supreme audit institutions are not officially designated as anti-corruption agencies, both theoretical and empirical research indicates that their functions can effectively lessen corruption. Theoretically, these institutions can deter public officials from engaging in corrupt practices due to the transparency and accountability inherent in their auditing processes.

The public oversight and transparency procedures for expenditures related to public procurement must include stringent requirements, such as the necessity to submit spending data to national transparency portals or reports to Anti-corruption agencies. Moreover, the use of these funds

is subject to additional scrutiny from both national and supervisory bodies of every country [14].

Numerous programs and reforms in administrative governance across various countries have been implemented, where governance theories are extensively discussed, leading to improvements in public administration by transforming traditional practices. Increased budget transparency correlates with enhanced governance management, resulting in greater accountability from the government, providing essential information to the public, and reducing corruption overall.

A glaring example can be found in Slovakia. During the electoral period from 2012 to 2016, numerous corruption allegations surfaced within public administration and high political circles. Both political and private sectors impacted by corruption during this time included healthcare, information technology services, and e-government. Concurrently, the Slovakian government initiated anti-corruption measures, such as creating a state-run electronic marketplace for public procurement aimed at eliminating clientelism within governmental and local institutions [15]. Additionally, amendments were made to public procurement laws, new electoral codes focusing on political party financing were established, and legislation to protect whistleblowers who come forward to report corrupt or anti-social activities was enacted. In our view, Slovakia served as a role model in addressing and mitigating corruption.

Last but not least, leadership and cultural factors play vital roles in the fight against corruption. Countries such as Singapore and Hong Kong, which have successfully reduced corruption, demonstrate strong leadership and enforce zero-tolerance policies. They have also put a lot of effort to transform the culture surrounding corruption through effective strategies.

Furthermore, a significant number of countries have adopted different mechanisms to find a remedy for corruption in public administration. These include the use of digital technologies and e-government, the involvement of supreme audit institutions, specific institutional reforms, and policies promoting transparency and public access to information [16]. It is obvious that the goal of these mechanisms is to enhance transparency, eliminate conditions that ignite corruption, and strengthen the legal framework.

It is also worth noting that the research carried out by Sanchez-Hernandez et al. in 2020 in Spain underscores that corruption puts unprecedented strain on government effectiveness. It emphasizes that the global crisis, combined with poor organizational practices, has revealed alarming corruption issues within local public administration, particularly in areas like urban planning, construction, and public procurement as well. These corrupt activities pose a threat and negatively influence government efficacy and public administration as corruption can skew resource allocation towards lower-priority projects or individuals who do not require assistance, rather than channeling funds into initiatives that benefit society as a whole [17].

Additionally, corruption can also raise the expenses related to government projects, as corrupt officials may demand bribes to approve initiatives or grant contracts [18]. This can lead to the selection of less efficient suppliers or the execution of unnecessary or substandard projects. Corruption within government is acknowledged as a significant issue affecting the infrastructure of both developing and developed countries. The nature and forms of corruption have evolved over the course of time, complicating prosecutors' efforts to manage cases, which has fostered skepticism about the effectiveness of anti-corruption strategies

implemented by governments [19]. Furthermore, corruption in the governmental sectors impacts social stability and security, harms national and international reputations, and undermines democratic principles, ethics, and justice [20]. In our opinion, Huang has the point here and I personally agree with it. It is widely understood that corruption erodes public trust in government institutions, which, in turn, impacts the efficiency and effectiveness of public policies. In particular, corruption in public procurement compromises the proper use of public funds, as contracts may be awarded to companies that fail to provide the best prices or services, leading to an inefficient allocation of resources. Additionally, corruption can stifle competition in bidding processes, further diminishing the effectiveness of contract allocation and public fund utilization as a whole. Having discussed the critical aspects and nuances of corruption, it is essential to highlight some key measures and recommendations.

- Putting a lot of effort to consolidate transparency in local governments enhances civic engagement and accountability, helping to prevent corruption and mismanagement by making governmental actions and decisions accessible to the public;

- Implementing public education initiatives for civil servants to combat corruption is absolutely important, as these efforts are designed to boost transparency, remove conditions conducive to corruption, and reinforce the legal system;

- City officials can address corruption using electronic participation tools, which are most effective when supported by adequate physical resources such as funding and internet access, along with social capital and public demand for accountability;

- Digital technologies like e-government and open data effectively help us prevent public sector corruption by enabling contactless interactions between officials

and citizens, thus it reduces the likelihood of bribery and gifts, formalizing procedures, and mitigating corruption risks through legal frameworks;

- Rule of law and anti-corruption measures are crucial for fostering open government and prosperity, particularly regarding social capital and environmental factors. However, open government initiatives alone will not fully enhance prosperity without ongoing efforts to develop or sustain these aforementioned mechanisms.

If we all try our utmost with adequate political and public will, we can root out deeply rooted corruption practices in both public and private sectors as a whole.

Conclusion

To conclude, education is crucial in the fight against corruption. Instilling ethical values from a young age and cultivating a culture of integrity can significantly reduce the likelihood of corruption in the future. It is vital for young individuals to grasp the significance of honesty, accountability, and respect for the law from an early age. As we know corruption poses a serious challenge that impacts numerous societies globally, addressing this issue necessitates a collaborative and strenuous effort among society, government, and institutions. It is promising to note that many nations have taken decisive steps to enhance oversight and prevent corruption. Establishing specialized anti-corruption agencies, bringing in stricter legislation, and promoting transparency in public administration are essential measures moving forward.

Nevertheless, much work remains to be done. It is critical for citizens to stay informed and actively participate in combating corruption as reporting any suspicious activities and holding public officials accountable are fundamental actions to build corruption-free society. Furthermore,

governments must persist in strengthening control and sanctioning mechanisms while promoting transparency and ethical standards in public administration.

Ultimately, a comprehensive strategy encompassing education, citizen participation, and robust government action along with top-down mechanism is paramount to foster integrity, enhance

transparency, and effectively address corruption as a whole. However, sustained commitment from leadership and the active involvement of civil society are crucial for desired results alongside long-term success. All the aforementioned measures and recommendations require time, resources, concerted effort, and significant legislative reforms in various countries.

REFERENCES

1. Heydari M.S. Corruption and infrastructure development based on stochastic analysis. *Archives for Technical Sciences*, 2023, no. 28. 6, pp. 17–28. DOI: 10.59456/afts.2023.1528.011
2. Fazekas K.L. Perils of development funding: The tale of EU Funds and grand corruption in Central and Eastern Europe. *Regulation and Governance*, 2019, no. 17, pp. 87–103. DOI: 10.1111/rego.12184
3. Allah R. The impacts of Artificial Intelligence (AI) on business and its regulatory challenges. *International Journal of Law and Policy*, 2023, no. 1, pp. 7–21. DOI:10.59022/ijlp.23
4. Liu H.C., Hsiao J.S. Effects of Anti-Corruption Governance Strategy on Organizational Trust and Job Satisfaction in Ministry of National Defense. *Journal of Social Research and Intervention*, 2019, no. 74, pp. 52–73. DOI: 10.33788/rcis.74.7
5. Prevention of Corruption Act in Slovenia, 2023, no. 6, pp. 7–21. Available at: <https://pace.coe.int/files/11673/html>
6. Carter L.Y. Analyzing e-government design science artifacts: A systematic literature review. *International Journal of Information Management*, 2023, no. 11, pp. 31–47. DOI: 10.1016/j.ijinfomgt.2021.102430D
7. AllahRakha. Addressing Barriers to Cross-Border Collection of Evidence in Criminal Investigations. *International Journal of Law and Policy*, 2024, no. 2, pp. 16–29. DOI:10.59022/ijlp.193
8. Fedotov, Voloshyna M. Reformation of the institutional anti-corruption system in the context of European integration transformation. *Baltic Journal of Economic Studies*, 2023, no. 9, pp. 42–51. DOI: 10.30525/2256-0742/2019-5-1-224-232
9. Huang C., Hsiao L. Effect of Applying Case Method to Anti-Corruption Education on Learning Motivation and Learning Effectiveness. *Journal of Social Research and Intervention*, 2022, no. 23, pp. 13–24. DOI:10.33788/rcis.73.17
10. Anticorruption Policies in Georgia, Moldova and Ukraine, 2023, no. 9, pp. 52–73. Available at: https://knowledgehub.transparency.org/assets/uploads/kproducts/Anti-corruption-policies-in-Georgia-Moldova-and-Ukraine_2017.pdf
11. AllahRakha. Global perspectives on cybercrime legislation. *Journal of Infrastructure, Policy and Development*, 2024, no. 8, pp. 33–48. DOI: 10.24294/jipd.v8i10.6007
12. Parliamentary Assembly, Promoting Integrity to Tackle Political Corruption. 2021, no. 11, pp. 1–17. Available at: <https://assembly.coe.int/nw/xml/XRef/Xref-XML2HTMLen.asp?fileid=23930>
13. Bakhramova M. Harmonization of the Legal Framework for Online Arbitration. *International Journal of Law and Policy*, 2022, no. 13, pp. 17–35. DOI: 10.59022/ijlp.154
14. Cardellini L. Sovereignty beyond Borders: Unraveling the Enigma of Airspace and Outer Space Interplay. *International Journal of Law and Policy*, 2023, no. 9, pp. 31–53. DOI: 10.59022/ijlp.201

15. Carter L., Bélanger F. The utilization of e-government services: citizen trust, innovation and acceptance factors. *Information Systems Journal*, 2020, no. 15, pp. 28–37. DOI: 10.1111/j.13652575.2005.00183.x
16. Aritonang D.M. The Impact of E-Government System on Public Service Quality in Indonesia. *European Scientific Journal*, 2019, no. 13, pp. 11–25. DOI: 10.19044/esj.2017.v13n35p99Avotra
17. Alkhodary A., Saidat Z. Examining the Impact of E-Governance on the Performance of Corporations: A Case Study of Companies in Jordan. *Information Sciences Letters*, 2023, no. 26, pp. 26–44. DOI:10.30525/2256-0742/2021-7-5-235-242
18. Ahmadjonov M. Anti-Corruption and Compliance Control: Legal Literacy among Lawyers and Law Students. *International Journal of Law and Policy*, 2024, no. 8, pp. 11–26. DOI: 10.59022/ijlp.145
19. AllahRakha. Legal Challenges for International Fintech Startups. *International Journal of and Policy*, 2023, no. 1, pp. 19–33. DOI: 10.59022/ijlp.148
20. Sandra M. Examining the Impact of E-Government on Corporate Social Responsibility Performance: The Mediating Effect of Mandatory Corporate Social Responsibility Policy, Corruption, and Information and Communication Technologies Development During the COVID era. *Frontiers in Psychology*, 2023, no. 2, pp. 23–37. DOI: 10.3389/fpsyg.2021.737100

Kelib tushgan / Получено / Received: 12.02.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 18.02.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 27.03.2025

DOI: 10.51788/tsul.rols.2025.9.1./ZJPK1004

UDC: 342.7:349.6(045)(575.1)

INSONNING QULAY ATROF-MUHITGA BO'LGAN KONSTITUTSIYAVIY HUQUQI: XUSUSIYATLARI VA AMALGA OSHIRISH MEXANIZMLARI

Turdiyev Bobir Sobirovich,
O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza
qilish akademiyasi katta prokurori
ORCID: 0009-0004-4253-2985
e-mail: bobir.turdiev.uz@gmail.com

Annotatsiya. Tabiatni muhofaza qilishdan asosiy maqsad inson salomatligi hamda uning hayot uchun qulay va sof tabiiy muhitga bo'lgan ajralmas huquqini ta'minlashdan iborat. Ushbu maqolada insonning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqining huquqiy va konstitutsiyaviy jihatlari tahlil qilinadi. Bu huquq global miqyosda mustaqil huquq sifatida tobora keng tan olinmoqda. Tadqiqotda mazkur huquqning asosiy xususiyatlari, qamrovi va amalga oshirish mexanizmlari ilmiy adabiyotlar, xalqaro huquqiy normalar hamda milliy va xorijiy davlatlarning qonunchiligi asosida ko'rib chiqiladi. Maqolada qulay atrof-muhit huquqining rivojlanishi, uning fundamental inson huquqlari bilan bog'liqligi va bilvosita ularning tarkibidan shakllanib chiqib, bugungi kunda 160 dan ortiq mamlakatlarning milliy konstitutsiyalari va qonunchiligida alohida tan olingan va sud orqali himoya qilinadigan mustaqil huquqqa aylanishi bo'yicha bosib o'tgan yo'li tahlil qilinadi. Xususan, qulay atrof-muhit huquqining xalqaro miqyosda e'tirof etilishi global hamjamiyatning sog'lom atrof-muhitga nisbatan yakdilligi va intilishini ko'rsatadi. Shuningdek, maqolada mazkur huquqning boshqa asosiy inson huquqlari bilan o'zaro bog'liqligi alohida yoritilib, uning samarali amalga oshirilishi boshqa inson huquqlarining to'liq ta'minlanishi uchun zarur ekani ta'kidlanadi. Maqola yakunida qulay atrof-muhit huquqi va uni amalga oshirish mexanizmlari hamda ularni samarali ro'yobga chiqarishga qaratilgan taklif va fikr-mulohazalar berilgan.

Kalit so'zlar: inson huquqlari, qulay atrof-muhit huquqi, amalga oshirish mexanizmlari, moddiy va protseduraviy huquqlar, o'zaro bog'liq huquqlar, barqaror atrof-muhit, O'zbekiston

КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО ЧЕЛОВЕКА НА БЛАГОПРИЯТНУЮ ОКРУЖАЮЩУЮ СРЕДУ: ОСОБЕННОСТИ И МЕХАНИЗМЫ РЕАЛИЗАЦИИ

Турдиев Бобир Собирович,
старший прокурор Правоохранительной академии
Республики Узбекистан

Аннотация. Основной целью охраны природы является обеспечение здоровья человека и его неотъемлемого права на благоприятную и чистую природную среду. В данной статье анализируются правовые и конституционные аспекты права человека на благоприятную окружающую среду, которое на глобальном уровне всё чаще признаётся как самостоятельное

право. В исследовании рассматриваются ключевые особенности, охват и механизмы реализации данного права на основе научной литературы, международных правовых норм, а также национального законодательства и законодательства зарубежных государств. В статье проводится анализ развития права на благоприятную окружающую среду, его взаимосвязи с фундаментальными правами человека и постепенного выделения его из их состава в качестве самостоятельного права, что на сегодняшний день признано и закреплено в конституциях и законодательствах более чем 160 стран, а также подлежит судебной защите. В частности, признание данного права на международном уровне демонстрирует единство и стремление мирового сообщества к обеспечению здоровой окружающей среды. Кроме того, в статье детально раскрывается взаимосвязь данного права с другими основными правами человека, подчёркивается, что его эффективная реализация является необходимым условием для полноценного обеспечения остальных прав человека. В заключительной части статьи представлены предложения и научные выводы по совершенствованию механизмов реализации права на благоприятную окружающую среду и обеспечению их эффективности.

Ключевые слова: права человека, право на благоприятную окружающую среду, механизмы реализации, материальные и процедурные права, взаимосвязанные права, устойчивое развитие, Узбекистан

THE CONSTITUTIONAL RIGHT OF A PERSON TO A FAVORABLE ENVIRONMENT: FEATURES AND IMPLEMENTATION MECHANISMS

Turdiev Bobir Sobirovich,

Senior Prosecutor of the Law Enforcement Academy
of the Republic of Uzbekistan

Abstract. The main goal of nature protection is to ensure human health and the inalienable right to a favorable and clean natural environment. This article analyzes the legal and constitutional aspects of a person's right to a favorable environment. This right is increasingly recognized globally as an independent right. The study examines the main features, scope, and implementation mechanisms of this right based on scientific literature, international legal norms, and the legislation of national and foreign countries. The article analyzes the development of favorable environmental law, its connection with fundamental human rights, and the path it has taken to become an independent law, which is now recognized and protected by the courts in the national constitutions and legislation of more than 160 countries. In particular, the international recognition of the right to a favorable environment demonstrates the unity and commitment of the global community to a healthy environment. The article also highlights the interrelationship of this right with other fundamental human rights, emphasizing that its effective implementation is necessary for the full realization of other human rights. At the end of the article, proposals and comments are given on the law on a favorable environment and the mechanisms for its implementation, as well as their effective implementation.

Keywords: human rights, the right to a favorable environment, implementation mechanisms, material and procedural rights, related rights, sustainable environment, Uzbekistan

Kirish

Insonning asosiy huquqlarini ta'minlash va amalga oshirish barqaror atrof-muhitga bog'liq bo'lib, bu hayotiy faoliyat uchun qulay va xavfsiz muhit, toza havo, sifatli suv va oziq-ovqat kabi bir qator masalalarni o'z ichiga qamrab oladi. Mazkur yo'nalishda

oxirgi vaqtlarda insonning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqi alohida mustaqil huquq sifatida global miqyosda e'tirof etilayotganligini qayd etib o'tish lozim. Mazkur huquq ekologiyani muhofaza qilish va barqaror atrof-muhitga ega bo'lish orqali avvalo inson hayoti va sog'lig'ini himoya qilishga qaratil-

gan. Qulay atrof-muhit huquqi nafaqat inson huquqlari buzilishi, balki atrof-muhitga zarar yetkazish va ifloslanishdan ham muhofaza qilishni qamrab oladi [1]. Tadqiqotlar insonning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqini e'tirof etish va kafolatlash, atrof-muhit holatini yaxshilash, zararli ta'sirni kamaytirish va ekologiya muhofazasiga ijobiy ta'sir qilishini ko'rsatmoqda.

Shaxsning ekologik huquqlarini kafolatlash uchinchi avlod inson huquqlariga taalluqlidir. Agar birinchi avlod fuqaroviy va siyosiy huquqlarga, ikkinchi avlod iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarga tegishli bo'lsa, uchinchi avlod taraqqiyotga bo'lgan huquq, qulay atrof-muhit va ekologiyaga oid huquqlarga taalluqli hamda avvalgi ikki avlodga mansub asosiy inson huquqlari bilan o'zaro bog'liq hisoblanadi [2].

Inson huquqlariga oid eng asosiy xalqaro bazaviy hujjatlar – Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948-yil), Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro konvensiya hamda Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi konvensiyada insonning ekologik huquqlari to'g'ridan to'g'ri e'tirof etilmagan bo'lsa-da, insonning munosib va farovon hayot kechirishini ta'minlashga qaratilgan yashash, sog'liq, oziq-ovqat, suv, uy-joy, munosib ish va o'z taqdirini o'zi belgilashga oid huquqlari belgilab berilgan.

Atrof-muhit muhofazasiga inson huquqlari orqali yondashuv natijasida hozirgi kunda shaxsning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqi xalqaro va mintaqaviy hujjatlar, milliy konstitutsiyalar va qonunchilikda e'tirof etib kelinmoqda. Bugungi kunga kelib, dunyoning 160 dan ortiq davlatlar qonunchiligida, shu jumladan, 110 dan ortiq davlatlarning Konstitutsiyasida insonning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqi e'tirof etilgan [3] bo'lib, mazkur davlatlar soni muttasil oshib bormoqda.

Xususan, umumxalq referendumini asosida 2023-yilda yangi tahrirda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida

shaxsning qulay atrof-muhitga ega bo'lish huquqi ilk bor konstitutsiya darajasida kafolatlandi. Mazkur huquq milliy qonunchilikda yangi norma emas, balki 30 yildan ortiq vaqt davomida mavjud bo'lganligini e'tirof etish kerak. O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabrda qabul qilingan "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi 754-XII-son Qonunida tabiiy muhit sharoitlarini saqlashning, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslari belgilangan, shuningdek, insonning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqi mustahkamlangan. Biroq mazkur huquq tushunchasi, uning qamrov doirasi va amalga oshirish mexanizmlari yetarli darajada tadqiq qilinmagan va sharhlanmaganligini inobatga olgan holda, maqolada qulay atrof-muhit huquqi tushunchasi, uning o'ziga xos jihatlari, uning tarkibiy elementlari va amalga oshirish mexanizmlari, xalqaro standartlar va milliy qonunchilik jihatlari ko'rib chiqiladi.

Material va metodlar

Mazkur tadqiqotda ilmiy adabiyotlar tahlili, qiyosiy-huquqiy tahlil, normativ-huquqiy tahlil, huquqiy ekstrapolyatsiya va tizimli tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqot usullari insonning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqining tushunchasi, uning xususiyatlari, qamrov doirasi va amalga oshirish mexanizmlari, ushbu yo'nalishdagi ilmiy adabiyotlar, xalqaro standartlar, milliy va xorijiy davlatlar qonunchiligini ko'rib chiqish, qonunchilikdagi bo'shliqlar va muammolarni tahlil qilish imkonini beradi. Shuningdek, tanlangan tadqiqot metodlari yangi vujudga kelgan mazkur huquqqa turli tomonlama kompleks yondashishni ta'minlaydi.

Tadqiqot natijalari

Fuqarolarning qulay (sog'lom) atrof-muhitga ega bo'lish huquqi bir qator olimlar tomonidan o'rganib chiqilgan bo'lib, ilmiy adabiyotlarda qulay atrof-muhit atamasi va tushunchasi, uning qamrov doirasi masalasida yagona yondashuv mavjud emas [4; 5]. Bunda milliy konstitutsiyalar va qonunchilikda

“qulay atrof-muhit” atamasi keng qoʻllangan boʻlsa, xalqaro standartlarda insonning “toza, sogʻlom va barqaror atrof-muhitga boʻlgan huquqi” atamasini qoʻllash tobora keng om-malashmoqda. Xususan, BMT va uning Inson huquqlari kengashi tomonidan dastlab mazkur huquq xavfsiz, toza, sogʻlom va barqaror atrof-muhitga boʻlgan huquq sifatida qayd etilgan boʻlsa, keyinchalik “toza, sogʻlom va barqaror atrof-muhit” atamasi orqali keng eʼtirof etilmoqda. Mintaqaviy hujjatlar va davlatlarning milliy qonunchiligida esa “qulay yoki sogʻlom atrof-muhit” atamasidan koʻproq foydalanilayotganligini koʻrish mumkin. Mazkur huquq qanday atalishidan qatʼi nazar, insonning yashashi va faoliyati uchun qulay, sogʻlom va barqaror atrof-muhitni taʼminlashga qaratilganligini qayd etib oʻtish lozim.

Tadqiqotlarda R. Ikramov mazkur huquqni ifodalashda “qulay atrof tabiiy muhit” atamasidan foydalanib, bu “inson yashashi, mehnat qilishi, dam olishi uchun zarur boʻlgan atrof tabiiy muhit sifati, qonun, meʼyorlar, standartlar va boshqa talablarga javob beradigan har bir insonni oʻrab turgan atrof tabiiy muhit” deya taʼrif bergan [6]. I. Krasnova qulay atrof-muhit nafaqat oʻrnatilgan normativlarga muvofiqlik, balki ekologik xavfsizlikni taʼminlash, tabiiy resurslarni saqlash va qayta tiklash, tabiatning estetik va boshqa nomoddiy qadriyatlarini muhofaza qilish kabi parametrlarni ham oʻz ichiga qamrab olishini qayd etgan [7].

A. Gulimov mazkur huquqni loʻnda qilib “har bir insonning hayoti va sogʻligʻiga salbiy taʼsir koʻrsatmaydigan atrof-muhit” qulay atrof-muhit hisoblanishini [8] koʻrsatib oʻtgan. M. Brinchukka koʻra, atrof-muhit holati ekologik qonunchilikda belgilangan talablar va normalarga, shu jumladan, tozalik (ifloslanmaganlik), resurslarning tejamkorligi, ekologik barqarorlik, biologik turlar xilma-xilligi va estetik qadriyat kabi koʻrsatkichlarga muvofiq boʻlsa, qulay atrof-muhit hisoblanadi [4, 48-b.].

S. Giorgetta xalqaro hujjatlar, jumladan, Orxus konvensiyasi qulay atrof-muhit huquqi tushunchasi yoki taʼrifini aniq bermagan holda mazkur huquqni tan olganligini qayd etadi. Mazkur yondashuv turlicha qarashlar sababli yagona taʼrif berish qiyinligi, turli xalqlar oʻrtasidagi madaniy xilma-xillikni inobatga olib, uni turlicha sharhlash, shuningdek, sudlar tomonidan ham sharhlash mumkinligi bilan izohlanadi [9, 187-b.]. Mazkur huquqni tanqid qiluvchilar uning juda mavhum, amaldagi inson huquqlari va ekologik qonunchilik uchun ortiqcha ekanligi, tatbiq etib boʻlmasligi, sudlashuvlar soni oshib ketishi, samarasiz boʻlishi ehtimoli yuqoriligini taʼkidlagan boʻlsa-da, bu kabi xavotirlar oʻz tasdigʻini topmagan [10].

Qulay atrof-muhit huquqiga olimlar tomonidan turlicha taʼriflar berilganligi, bu borada yagona toʻxtamga kelinmaganligi, ilmiy bahs-munozaralar hali davom etayotganligi, mazkur huquqning taʼrifi uning xususiyatlari va qamrov doirasini toʻliq ochib bermasligini taʼkidlash lozim. Shuni inobatga olib, mazkur maqolada ushbu huquqni taʼriflashdan tiyilgan holda uning oʻziga xos xususiyatlari, elementlari va amalga oshirish mexanizmlari koʻrib chiqilishiga alohida eʼtibor qaratish orqali masalaga yondashiladi.

Bugungi kunda qulay atrof-muhit huquqi xalqaro, mintaqaviy va milliy darajada alohida mustaqil huquq sifatida eʼtirof etilgan. Ushbu huquq boshqa inson huquqlari kabi universal, ajralmas, oʻzaro bogʻliq boʻlib [11], ular bir-birini taqozo etadi. Qulay atrof-muhit huquqi boshqa huquqlar bilan chambarchas bogʻliq [12] boʻlib, qulay atrof-muhit yashash va sogʻliq kabi inson huquqlarini amalga oshirishning birlamchi shartidir. Bunda barcha inson huquqlariga adolatli va teng tarzda, bir xil daraja va ahamiyat bilan qaralishi kerak [13]. Bu esa insonning biror huquqi boshqasidan ustun qoʻyilmasligi [14], barchasiga birdek qarash va roʻyobga chiqarish lozimligi, shuningdek, sud orqali himoya qilish mum-

kin bo'lgan huquqlardan hisoblanishini qayd etish lozim.

Qulay atrof-muhit huquqi dualistik huquq toifasiga kirib, ham inson huquqlari, ham atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilganligi [15, 5-b.] bilan ahamiyatli. Shuningdek, mazkur huquq ham individual, ham kollektiv huquq sifatida e'tirof etilgan [16]. Shundan kelib chiqib, Brayan Preston ushbu huquqni toifalashdan qochgan holda, uni "huquqlar klasteri" sifatida ifodalaydi hamda fuqaroviy va siyosiy huquqlar bilan birga, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni ham o'z ichiga qamrab olishini ta'kidlaydi [14].

Ilmiy adabiyotlar, inson huquqlariga oid hujjatlarda qulay atrof-muhitga bo'lgan huquq moddiy va protseduraviy huquqlarga ajratilgan. B. Preston mazkur huquq tarkibini moddiy, protseduraviy va vaqtlararo komponentlarga ajratadi [14]. Mazkur huquqning vaqtlararo jihati ushbu huquqni hozirgi va kelajak avlodlar tomonidan birdek amalga oshirish imkoniyatini nazarda tutadi. Axborotga ega bo'lish, ekologik boshqaruvda (qarorlar qabul qilishda) ishtirok etish va odil sudlovni ta'minlash mazkur huquqning protseduraviy jihatlari hisoblanadi. Qulay atrof-muhit huquqi inson huquqlariga oid asosiy hujjatlar, shuningdek, Atrof-muhit va taraqqiyotga oid Rio deklaratsiyasi hamda Orxus konvensiyasida ham mustahkamlangan. Bunda axborotga ega bo'lish huquqi ekologik ta'lim va xabardorlikni ham o'z ichiga qamrab oladi.

Yashash, sog'liq-salomatlik, barqaror atrof-muhit, toza havo, xavfsiz va yetarli suv, oziq-ovqat, barqaror ekotizim va bioxilmaxillik, zaharli kimyoviy moddalardan xoli muhit, turar-joyga bo'lgan huquq mazkur huquqning moddiy tarkibini tashkil etadi. Bunda moddiy huquq elementlari har bir mintaq va hudud xususiyatidan kelib chiqib farqlanishi, ahamiyati turlicha bo'lishi, vaqt o'tgan sari rivojlanib borish, yangi elementlar qo'shish hisobiga rivojlanish xususiyatiga ega. Jumladan, BMT maxsus ma'ruzachisi

2024-yilgi hisobotida uning moddiy elementlari sifatida toza havo, xavfsiz iqlim, xavfsiz va yetarli suv hamda sanitariya, sog'lom va barqaror oziq-ovqat, yashash, ishlash va dam olish uchun zararli (zaharli, kimyoviy) ta'sirdan xoli muhit, sog'lom ekotizim va bioxilmaxillikni keltirib o'tgan [17].

Prestonga ko'ra, sog'lom atrof-muhitga bo'lgan huquq Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida keltirilgan bir qator huquqlarni qamrab oladi. Yashash tarzi, buzilgan huquqlarni tiklash, shaxsiy, oilaviy hayot, uy-joy va yozishmalar daxlsizligi va ularga aralashmaslik, fikr va uni ifoda etish erkinligi, maqbul turmush darajasiga ega bo'lish hamda jamiyatning madaniy hayotida ishtirok etish huquqi shular jumlasidandir. Mazkur huquqlarga qo'shimcha ravishda Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi konvensiya odil sudlov, erkin namoyishlarga bo'lgan huquq, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi konvensiya esa yetarli oziq-ovqat, turar-joy, suv va sanitariya, sog'liqqa bo'lgan huquqlarni o'z ichiga oladi [14].

Ushbu huquq bir vaqtning o'zida majburiyat keltirib chiqaradi [6, 12-b.]. B. Preston buni "korelativ majburiyat" deb atab, bu hurmat qilish, himoya qilish va ro'yobga chiqarish kabi uchta majburiyatni o'z ichiga olishini ta'kidlagan [14]. Yuqoridagi majburiyatlar, o'z navbatida, huquqning komponentlaridan kelib chiqib, to'rt toifadagi (moddiy, protseduraviy, vaqtlararo va maxsus) majburiyatlarni keltirib chiqaradi. Maxsus majburiyat aholining zaif qatlamlari (bolalar, nogironlar, qariyalar, ayollar, tub aholi vakillari, kambag'allar)ni qo'shimcha muhofaza qilish choralarini ko'rishni anglatadi. Mazkur majburiyatlar inson huquqlari va atrof-muhitga oid 16 ta asosiy tamoyillarda ham alohida qayd etib o'tilgan [18].

Qulay atrof-muhit huquqining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri mazkur huquqni fuqaroviy va siyosiy huquqlar kabi darrov tatbiq etish imkoniyatining yo'qligidir. Shu jihatdan boshqa inson huquqlariga nisbatan

insonning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqini amalga oshirish darajasi juda past [19]. Shunga ko'ra, davlatlar zimmasiga mazkur huquqni progressiv tarzda (asta-sekin yoki bosqichma-bosqich), ya'ni har bir davlatdagi iqtisodiy va texnologik imkoniyatlardan kelib chiqib uni to'liq amalga oshirish chora-tadbirlarini ko'rish yuklatilgan [20].

BMT maxsus ma'ruzachisi hisobotida qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqning amalga oshirilishiga oid asosiy muammo va qiyinchiliklar sifatida joriy iqtisodiy modellar va nobarqaror rivojlanish, iqlim o'zgarishi va atrof-muhit ifloslanishi, qonun ustuvorligi zaifligi, axborot ochiqligi, qaror qabul qilishda jamoatchilik ishtiroki va odil sudlovga oid to'sqinliklar, urush va nizolar sanab o'tilgan [17].

Qulay atrof-muhitga bo'lgan huquq protseduraviy huquqlar orqali amalga oshirilib, bular quyidagi uchta asosiy elementdan tarkib topgan: axborotga ega bo'lish, ekologik boshqaruvda (qarorlar qabul qilishda) ishtirok etish va odil sudlovni ta'minlash.

BMT hujjatlarida mazkur huquqlarni amalga oshirish bo'yicha davlatlar va biznes sektor zimmasiga muayyan majburiyatlar yuklatilgan. Jumladan, inson huquqlari va atrof-muhitga oid 16 ta asosiy tamoyillarda davlat mazkur huquqlarni hurmat qilishi, himoya qilishi va ro'yobga chiqarishiga oid bir qator majburiyatlar belgilangan. Xususan, mazkur majburiyatlar atrof-muhit masalasida so'z erkinligi, jamoat tashkilotlariga birlashish va tinch namoyishlarga bo'lgan huquqni hurmat va himoya qilish, ekologiya va inson huquqlari yo'nalishida faoliyat yurituvchi shaxslar, guruhlar va tashkilotlarga to'sqinliksiz ishlash imkoniyatini berishni nazarda tutadi. Shuningdek, hujjatda ekologik ta'lim va xabardorlikni oshirish, axborotga kirish imkonini berish, loyiha va siyosatning atrof-muhitga va inson huquqlariga ta'sirini baholashni amalga oshirish, qaror qabul qilishda jamoatchilik ishtirokini ta'minlash va ular fikrini inobatga olish, transchegaraviy

ekologik ta'sir masalalarida hamkorlik qilish kabi majburiyatlar ko'rsatilgan. Ushbu tamoyillarda odil sudlov yo'nalishida inson huquqlari va ekologiyaga oid qonunbuzilishlar bo'yicha samarali huquqiy vositalardan foydalanish imkoniyatini taqdim etish, ekologik standartlarga davlat va xususiy sektor tomonidan amal qilinishini ta'minlash, aholining zaif qatlamlari huquqlarini himoya qilish bo'yicha qo'shimcha choralarni ko'rish nazarda tutilgan [18].

Mazkur huquqni amalga oshirish vaqt va resurslarni talab etishi sababli, B. Preston uni to'rt elementga ajratadi. Bular daxlsizlik (ajratmaslik) elementi, minimal asosiy majburiyatlarni ta'minlash, progressiv (bosqichma-bosqich) amalga oshirish va mavjud resurslardan maksimal foydalanishni o'z ichiga oladi.

Qulay atrof-muhit huquqining daxlsizlik elementi barcha holatlarda mazkur huquqni kafolatlash, unga daxl qilmaslik, buzmaslik, cheklamaslikni nazarda tutadi. Bu fuqaroviy va siyosiy huquqlarga taalluqli huquqlarni hech qanday to'sqinsiz to'liq amalga oshirishni nazarda tutadi. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarga nisbatan esa bu eng minimal asosiy majburiyatlarni belgilash orqali ro'yobga chiqarishni ko'zda tutadi. Bunda minimal asosiy majburiyatlarni ta'minlash uchun qulay atrof-muhitga oid moddiy huquq elementlari yetarli bo'lishi, jismonan foydalanish imkoni bo'lishi, qiymati (narxi) kishilarning moliyaviy imkoniyatlariga mos (maqbul) bo'lishi, xavfsiz (sifatli) bo'lishi qayd etilgan. Ba'zi olimlarga ko'ra, kishilarning moliyaviy imkoniyatlariga mos narx uy-ro'zg'or daromad yoki xarajatlarning 2–6 foizini tashkil etsa, maqbul hisoblanadi [21]. Minimal asosiy majburiyatlar retrogressiyaga (orqaga qaytish, amaldagi huquq yoki standartlarni pasaytirish, zaiflashtirish) yo'l qo'ymaslik va turli xil belgilarga ko'ra kamситmaslikni nazarda tutadi. Retrogressiya tamoyili davlatlar zimmasiga atrof-muhit va inson salomatligi muhofazasini amaldagi da-

rajadan bevosita yoki bilvosita zaiflashtirish, pasaytirish yoki yomonlashtirishni taqiqlaydi. Mazkur tamoyil Fransiya, Belgiya, Vengriya, Janubiy Afrika va ko'plab Lotin Amerikasi mamlakatlarida mustahkamlangan [10].

B. Preston mazkur huquqlarni progressiv amalga oshirishni vertikal va gorizontal darajaga ajratadi. Gorizontal barcha insonlarga birdek tatbiq etishni nazarda tutsa, vertikal daraja sekinlik bilan uning sifat darajasini tepaga qarab oshirib borishni nazarda tutadi [14].

Majburiyatlarning to'rtinchi turi mavjud resurslardan maksimal foydalanishni nazarda tutadi. Bu o'z ichiga resurslarni aniqlab olish, ularning maksimal yetarliligini ta'minlash, ularni maksimal taqsimlash va ulardan maksimal foydalanishni qamrab oladi. Mazkur resurslarga moliyaviy, texnologik, institutsional, axborot, tabiiy va inson resurslari kiradi. Bunda minimal majburiyatlarni bajarishda davlatlar resurslar yetishmovchiligini ro'kach qilmasdan masalaga yondashihi kerakligi ta'kidlangan [14].

Atrof-muhit muhofazasi va inson huquqlari aloqadorligi dastlab Stokgolm deklaratsiyasida (1972-yil) qayd etilgan. Hujjatda insonning munosib hayot sharoiti va sifatli atrof-muhitga bo'lgan huquqlari e'tirof etiladi. Atrof-muhit va taraqqiyotga oid Rio deklaratsiyasi (1992-yil) esa inson huquqlari va atrof-muhit muhofazasi o'rtasidagi bog'liqlikni yanada mustahkamlaydi. Deklaratsiyada barqaror rivojlanishga oid xavotirlar markazida inson turishi va uning tabiat bilan uyg'unlikda sog'lom va farovon hayot kechirishga haqli ekanligi belgilangan.

BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan *Barqaror rivojlanish maqsadlarida* (2015-yil) inson huquqlari va qulay atrof-muhitga ega bo'lish huquqlari chambarchas bog'liqlikda keltirilgan bo'lib, mazkur maqsadlar insonning barcha huquqlarini ro'yobga chiqarish, ularni hurmat qilish va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Jumladan, 3-maqsad fuqarolar sog'lig'i va farovonligi, 6-maqsad

toza suv va sanitariya, 13–15-maqsadlar iqlim o'zgarishi va atrof-muhit muhofazasi masalalariga bag'ishlangan.

Qulay atrof-muhitga bo'lgan huquq min-taqaviy hujjatlarda ham o'z ifodasini topgan. Masalan, Inson va fuqaro huquqlari to'g'risidagi Afrika xartiyasida barcha insonlar rivojlanish uchun qulay atrof-muhitda yashash huquqiga egaligi belgilangan [22]. Orxus konvensiyasida hozirgi va kelajak avlodlarning sog'lig'i va farovonligi uchun munosib muhitda yashash huquqini ta'minlashga qaratilgan shaxsning protseduraviy huquqlari (axborotga ega bo'lish, qaror qabul qilishda ishtirok etish va odil sudlov) kafolatlangan [23]. Mazkur konvensiyaga O'zbekistonning qo'shilishi kun tartibiga qo'yilganidan 25 yil o'tib, siyosiy iroda namoyon etilgan holda, O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 11-martdagi O'RQ-1045-son Qonuniga muvofiq qo'shilganligini e'tirof etish lozim.

Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari assotsiatsiyasi (ASEAN) Inson huquqlari deklaratsiyasida esa insonning xavfsiz, toza va barqaror atrof-muhitga bo'lgan huquqi e'tirof etilgan. Deklaratsiyada har bir insonning o'zi va oilasi munosib yashash huquqiga egaligi, bu huquq oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy, tibbiy va zarur ijtimoiy xizmat, xavfsiz ichimlik suvi va sanitariya hamda xavfsiz, toza va barqaror atrof-muhitga bo'lgan huquqni o'z ichiga qamrab olishi ko'rsatib o'tilgan [24].

Qulay atrof-muhit huquqini global miqyosda e'tirof etishda BMT tomonidan 2012-yilda ekologiya va inson huquqlari masalalari bo'yicha mustaqil ekspert – maxsus ma'ruzachi lavozimi ta'sis etilganligini qayd etish lozim. Keyinchalik 2024-yildan mazkur ma'ruzachining nomi insonning toza, sog'lom va barqaror atrof-muhitga bo'lgan huquqi bo'yicha BMT maxsus ma'ruzachisi deb o'zgartirilgan bo'lib [25], hozirgi kunga qadar uning tomonidan insonning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqlarini amalga oshirish bo'yicha bir qator tavsiya, hujjat va hisobotlar ishlab chiqilmoqda. Xususan,

2018-yilda 16 ta prinsipdan iborat Inson huquqlari va atrof-muhitga oid asosiy tamoyillar qabul qilingan [18]. O'sha paytdagi BMT maxsus ma'ruzachisi John H. Knox tomonidan BMT Bosh Assambleyasiga taqdim etilgan hisobotda insonning xavfsiz, toza, sog'lom va barqaror atrof-muhitga bo'lgan huquqini e'tirof etish vaqti kelganligini va uni xalqaro miqyosda tan olishga oid tavsiyalar berilgan [20]. Keyinchalik Inson huquqlari bo'yicha Kengash 48/13-rezolyutsiyasi (2021-yil) va BMT Bosh Assambleyasining 76-sessiyasi rezolyutsiyasi (2022-yil) bilan insonning sof, sog'lom va barqaror atrof-muhitga bo'lgan huquqi xalqaro darajada tan olinadi [26]. Garchi BMT tomonidan mazkur huquq tushunchasiga aniq ta'rif berilmagan bo'lsa-da, BMT maxsus ma'ruzachisi tomonidan ishlab chiqilgan hujjat va hisobotlarda uning tavsifi o'z aksini topgan.

Stokgolm deklaratsiyasi qabul qilingandan keyin qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqni xalqaro darajada e'tirof etish uchun yarim asr talab etilgan bo'lsa, milliy qonunchilikda mazkur huquqni e'tirof etish uncha ko'p vaqt talab etmaganligini ko'rish mumkin. Xususan, Portugaliya va Ispaniya 1976-va 1978-yillarda qulay atrof-muhit huquqini konstitutsiya darajasida tan olgan ilk davlatlar bo'ldi. Portugaliyada hamma sog'lom va ekologik barqaror muhitda yashash huquqiga egaligi [27], Ispaniyada esa shaxsning rivojlantirish uchun har bir inson qulay atrof-muhitga egaligi va uni muhofaza qilish majburiyati belgilangan [28]. Norvegiya Konstitutsiyasida har bir inson salomatligi uchun qulay atrof-muhitga ega bo'lish huquqiga egaligi ko'rsatilgan [29].

Fransiyada mazkur yo'nalishda konstitutsiya maqomidagi va uning tarkibiga kiruvchi alohida Atrof-muhit xartiyasi qabul qilinganligini ta'kidlash lozim. Hujjatda har bir inson sog'lig'ini saqlash maqsadida muvozanatli atrof-muhitda yashash huquqiga egaligi belgilangan [30]. Xorijiy davlatlar qonunchiligida qulay atrof-muhit huquqini e'tirof

etish bilan birga uni amalga oshirishga doir mexanizmlar ham belgilanganligini ko'rish mumkin. Jumladan, yuqoridagi xartiyada mazkur huquqlarni amalga oshirish uchun axborotga ega bo'lish va atrof-muhitga oid qarorlar qabul qilishda jamoatchilik ishtiroki ta'kidlangan.

Rossiya Konstitutsiyasida har bir inson qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqqa egaligi, shuningdek, mazkur huquqni amalga oshirish bo'yicha axborotga ega bo'lish va ekologik huquqbuzarlik natijasida sog'lig'i va mulkiga yetkazilgan zarar qoplanishini ta'minlash ko'rsatilgan [31]. Qozog'iston Konstitutsiyasida inson hayoti va sog'lig'i uchun qulay atrof-muhitni muhofaza qilish davlatning maqsadi sifatida belgilangan [32]. Gruzijada har bir inson sog'liq uchun zararsiz muhitda yashash huquqiga egaligi, mazkur huquqni amalga oshirish uchun axborot olish, atrof-muhit muhofazasi haqida g'amxo'rlik qilish, qarorlar qabul qilishda jamoatchilik ishtiroki mustahkamlangan [33].

Moldovada har bir inson hayoti va sog'lig'i uchun ekologik xavfsiz muhitda yashash huquqiga egaligi belgilangan. Buning uchun xavfsiz oziq-ovqat va maishiy buyumlardan foydalanish, yashash va mehnat sharoitlari, oziq-ovqat va maishiy mahsulotlarning sifati haqida ishonchli ma'lumot olish huquqi kafolatlangan. Protseduraviy huquqlar sifatida axborotga ega bo'lish, sog'lig'i va mulkiga yetkazilgan zarar uchun javobgarlik nazarda tutilgan [34].

Umuman olganda, qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqni xalqaro darajada e'tirof etishdan ko'ra, uni milliy darajada tan olish tezroq amalga oshganligini qayd etish lozim. Bu jarayon mamlakatlardagi atrof-muhit masalalariga oid jamoatchilik e'tibori, faolligi va tashabbusi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, aynan keng jamoatchilik hukumatlardan ekologiya masalalari bo'yicha samarali chora-tadbirlarni ko'rishga undagan. Xorijiy davlatlar konstitutsiyalarida mazkur huquqni tan olish bilan birga uni amalga oshirishga doir

kerakli mexanizmlar ham belgilab qo'yilgan. Bunday mexanizmlarga atrof-muhitga oid axborotga kirish, qarorlar qabul qilishda jamoatchilik ishtirokini ta'minlash hamda mazkur huquqni muhofaza qilishga qaratilgan mexanizmlar kiradi. Bularning barchasi atrof-muhitga bo'lgan huquqlarni nafaqat tan olish, balki ularni amaliy jihatdan himoya qilish va rivojlantirishni maqsad qilgan.

Qulay atrof-muhitga bo'lgan huquq 2023-yilda yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyaning 49-moddasida mustahkamlanganligini qayd etish lozim. Bunda ushbu huquqni konstitutsiya darajasida tan olishning bir qator afzalliklarini qayd etish lozim. Xususan, mazkur konstitutsiyaviy norma ekologik qonunchilik va siyosatni kuchaytirish va tatbiq etish holatini yaxshilash, ekologik natijadorlik, qarorlar qabul qilishda fuqarolar ishtirokini kengaytirish, mas'uliyatni oshirish, ekologik adolatni ta'minlash bilan birga, taraqqiyot, rivojlanish yoki sifatning pasayishi, regressiyasi yoki orqaga qaytishi (retrogressiya)ning oldini olish tamoyilini qamrab oladi. Jumladan, konstitutsiyada qulay atrof-muhit huquqining mustahkamlanishi 85 foiz davlatlarda ekologik qonunchilikni kuchaytirishga xizmat qilgan [10].

Milliy qonunchilikda qulay atrof-muhitga bo'lgan huquq turlicha atamalar bilan ifodalaniganligini ko'rish mumkin. Konstitutsiyada "qulay atrof-muhit" huquqi qo'llangan bo'lsa, "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunning o'zida 3 xil atamadan foydalanilganligini ko'rish mumkin. Bular qulay tabiiy muhit (4-modda), qulay atrof-muhit (9-modda, 2024-yil 29-avgustdagi O'RQ-951-sonli tahrirda), qulay atrof tabiiy muhitga ega bo'lish huquqi (12-modda) kabi atamalardan foydalanilgan.

Mazkur huquqni ta'minlash bilan bevosita bog'liq bo'lgan "Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to'g'risida"gi Qonunda "qulay yashash muhiti" atamasi qo'llangan bo'lib, bunga "insonning hayot faoliyati shart-sharoitlarini belgilaydigan obyektlar, hodi-

salar va atrof-muhit omillari majmui" sifatida izoh berilgan. Insonning qulay yashash muhiti sanitariya-epidemiologik osoyishtalilik bilan bevosita bog'liq. Qonunda aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi aholi sog'lig'ining holati sifatida qayd etilgan bo'lib, bunda "insonga yashash muhiti omillarining zararli ta'siri mavjud bo'lmaydi va uning hayot faoliyati uchun qulay shart-sharoitlar ta'minlanadi" deb tarif berilgan. Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini ta'minlash obyektlarini rejalashtirish, loyihalashtirish va qurish, qayta jihozlash, hududlarni, inshootlarni, binolarni saqlash, uskunalar va transport vositalaridan foydalanish, kimyoviy va radioaktiv moddalar bilan ishlash, turar joyda yashash, oziq-ovqat xomashyosi va mahsulotlar xavfsizligi, ichimlik suvi sifati, ta'lim olish, mehnat shart-sharoitlari kabi masalalarda sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga rioya etishni o'z ichiga qamrab olishi belgilangan.

Yangi tahrirdagi Shaharsozlik kodeksining 4-moddasida hayotiy faoliyat uchun qulay muhit yaratish, fuqarolar salomatligini muhofaza qilish, atrof-muhitga, tabiiy resurslarga va madaniy merosga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish shaharsozlik faoliyatining asosiy prinsipi sifatida belgilangan. Agar eski tahrirdagi kodeksda "qulay yashash va faoliyat ko'rsatish muhiti" atamasi qo'llangan bo'lsa, yangi tahrirdagi kodeksda har bir fuqaro "qulay hayot faoliyati muhiti"ga bo'lgan huquqqa egaligi belgilangan.

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasida "qulay tabiiy muhitda yashash huquqi" atamasidan foydalanilgan bo'lib, mazkur huquqni ta'minlash maqsadida "yer, suv, o'rmon, yerosti boyliklari, atmosfera havosini, o'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish, ulardan samarali foydalanish hamda cho'llanishga qarshi kurashish, yerlarning degradatsiya jarayonlarini hamda biologik xilma-xillikning yo'qotilishini to'xtatish" nazarda tutilgan. 2030-yilgacha bo'lgan davrda

Atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi maqsadlari sifatida aholining hayoti va salomatlik darajasini yaxshilashning zarur sharti sifatida “atrof-muhitning qulay holatini ta’minlash” belgilangan.

Boshqa bir hujjatda ekologik ahvol, insonlarning mehnat, yashash va dam olish sharoitlarini yaxshilash – qulay atrof-muhitni yaratish sifatida qayd etilgan. Hozirda o’z kuchini yo’qotgan boshqa bir hujjatda aholi “yashashi uchun qulay sharoitlar yaratish” sifatli ichimlik suvi, oqova suvlarni tozalash, maishiy va sanoat chiqindilarini zararsizlantirish va yo’q qilish, sanoat korxonalarini va transport ishini yaxshilash orqali zararli tashlandiqlar va oqovalarni, toksik sanoat chiqindilarini kamaytirish, oziq-ovqat mahsulotlarining ekologik sifatini oshirish, nurlanish xavfsizligini ta’minlash kabi chora-tadbirlar ko’rsatilgan.

Ko’rib chiqqanimizdek, milliy qonunchilikda qulay atrof-muhit huquqi turlicha atamalar bilan ko’rsatilib, normativ huquqiy hujjatlarda turlicha izohlangan. Bizningcha, qonunchilikda qo’llanayotgan mazkur atamalarni maqbullashtirgan holda yagona “qulay atrof-muhit huquqi” atamasini qo’llash maqsadga muvofiq. Aynan mazkur tushuncha ushbu huquqning mazmunini to’laroq ifodalaydi, keng doiradagi munosabatlarni tartibga solish va turli kontekstda mazkur yagona atamani qo’llash imkonini beradi. Shuningdek, Konstitutsiyada qulay atrof-muhit huquqi atamasi qo’llanganligini inobatga olib, barcha normativ huquqiy hujjatlardagi terminologiyani konstitutsiyaga muvofiqlashtirish maqsadga muvofiq.

Tadqiqot natijalari tahlili

Milliy qonunchilikda insonning qulay atrof-muhitga ega bo’lishga oid huquqlarini amalga oshirish va ta’minlashga oid bir qator mexanizmlar belgilangan. Xususan, Konstitutsiyaning 49-moddasida qulay atrof-muhit holati to’g’risida ishonchli axborotga ega bo’lish, shaharsozlik hujjatlari loyihalarini jamoatchilik muhokamasidan o’tkazish kabi mexanizmlar nazarda tutilgan.

O’zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to’g’risida”gi Qonunida axborotni talab qilish va olish huquqi, jamoat tashkilotlariga birlashish huquqi, tabiatni muhofaza qilish faoliyatining samaradorligini oshirish hamda ekologik dasturlar amalga oshirilishida ishtirok etish, barcha turdagi ta’lim muassasalarida ekologiya o’quvining majburiyigi kabi mexanizmlar nazarda tutilgan.

Ayni paytda qonunchilikda davlatning atrof-muhitni muhofaza qilish bo’yicha ko’rilayotgan chora-tadbirlar to’g’risida fuqarolarni xabardor qilish, ekologik xavf va ofatlarning oldini olish, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilishga oid majburiyatlari ham belgilangan.

O’zbekiston Respublikasining “Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to’g’risida”gi Qonunida mazkur huquqni amalga oshirish uchun axborot olish, sanitariya-gigiyena va epidemiyaga qarshi tadbirlarni ishlab chiqishda ishtirok etish, sanitariya-epidemiologik osoyishtalikni yaxshilash bo’yicha takliflar kiritish, sog’lig’i va mol-mulkiga yetkazilgan zararining qoplanishi, sanitariya nazoratini amalga oshiruvchi organlar qarorlari yoki mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan yuqori turuvchi organ yoki sudga shikoyat qilish, jamoatchilik nazoratini amalga oshirish kabi mexanizmlar belgilangan.

Shaharsozlik kodeksida hududlarni va aholi punktlarini rivojlantirishni shaharsozlik jihatidan rejalashtirish, shaharsozlik faoliyatini amalga oshirishda ishtirok etish, davlat va jamoatchilik nazorati, yetkazilgan hamda ularning hayot faoliyati muhiti yomonlashishiga sabab bo’lgan zararlarni kompensatsiya qilish, shuningdek, fuqarolarning hayoti, sog’lig’i va mol-mulkiga yetkazilgan zararining o’rnini qoplash orqali amalga oshirilishi ko’rsatilgan.

Atmosfera havosini muhofaza qilish sohasida fuqarolar o’z hayoti va sog’lig’i uchun qulay atmosfera havosidan foydalanish, axborot olish, o’z sog’lig’iga va mol-mulkiga

ziyon yetkazilgan hollarda zararining o'рни qoplanishi, jamoatchilik fikrini o'rganish va jamoatchilik ekologik ekspertizasida ishtirok etish kabi huquqlari mustahkamlangan. Radiatsiyaviy xavfsizlikni ta'minlash yo'nalishida fuqarolar hayoti, sog'lig'i va mol-mulkiga yetkazilgan zarar qoplanishi, axborot olish va radiatsiyaviy xavfsizlikni ta'minlash masalalari muhokamasida ishtirok etish huquqiga egaligi hamda ayrim toifadagi fuqarolarning ijtimoiy himoyasiga oid qo'shimcha kafolatlar belgilanganligini ko'rish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 15-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 29-son qaroriga muvofiq, fuqarolarning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqlarini ta'minlash Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi zimmasiga yuklatilgan. Biroq qulay atrof-muhit huquqi nafaqat ekologiya idoralari, balki aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi, shaharsozlik faoliyati, radiatsiyaviy xavfsizlik kabi bir qator soha va yo'nalishlarda mas'ul bo'lgan davlat boshqaruvi organlari tomonidan ham amalga oshirilishini ta'kidlash lozim.

Yuqorida qayd etib o'tilganidek, sohaviy qonunlarda qulay atrof-muhit huquqini amalga oshirishga oid bir qator mexanizmlar belgilangan. Bunda aksariyat hujjatlarda axborotga ega bo'lish, tegishli yo'nalish bo'yicha dastur va loyihalarni ishlab chiqishda ishtirok etish, jamoatchilik nazorati va yetkazilgan zarar uchun javobgarlik kabi mexanizmlar belgilanganligini ko'rish mumkin. Milliy qonunchilikda mustahkamlangan yuqoridagi mexanizmlar Orxus konvensiyasi, shuningdek, sohaga oid ilmiy adabiyotlarda keltirib o'tilgan mexanizmlarga muvofiq keladi.

Mazkur mexanizmlar atrof-muhitga oid axborotning ochiqligi, qarorlar qabul qilishda jamoatchilik ishtiroki va nazoratini kengaytirish hamda odil sudlovni ta'minlashga oid majburiyatlarni belgilaydi. Biroq mazkur

huquqni amalda ta'minlashda jiddiy muammolar saqlanib qolayotganligini qayd etish lozim. Xususan, mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlar ekologik axborotning ochiqligi, atrof-muhitga oid qarorlar qabul qilishda jamoatchilik ishtiroki darajasi pastligi [35], uni ro'yobga chiqarishda muammolar mavjudligini ko'rsatmoqda. Shu sababli, endigi navbat mazkur huquqlarning amalda to'laqonli ro'yobga chiqarilishini ta'minlash, amalga oshirish mexanizmlari va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishga qaratilishi zarur.

Xulosalar

Ilmiy adabiyotlar tahlili insonning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqini ta'minlash bugungi kunda muhim va dolzarb masala bo'lib qolayotganligini ko'rsatmoqda. Iqlim o'zgarishi va atrof-muhitning ifloslanishi sharoitida mazkur huquqni ro'yobga chiqarish yanada dolzarb masalalardan bo'lib, uning qanchalik samarali ro'yobga chiqarilishi, o'z navbatida, iqlim bo'yicha migratsiya ko'rsatkichlarida o'z aksini topadi. Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari atrof-muhit muhofazasi va barqaror rivojlanish choralari ni kuchaytirmas ekan, bu vaziyatda iqlim o'zgarishi tufayli majburiy migratsiya holatlari kuchayishi, aholi salomatligi bilan bog'liq inqiroz yuzaga kelishi mumkin.

Yuqoridagilarni inobatga olib, mazkur huquqni samarali amalga oshirish uchun quyidagilar taklif etiladi:

Birinchidan, milliy qonunchilikda qulay atrof-muhit huquqining protseduraviy mexanizmlarini yanada takomillashtirish va amalga oshirish yo'llarini aniq belgilash zarur. Mazkur choralar milliy qonunchilikni Orxus konvensiyasiga uyg'unlashtirish doirasida ham talab etiladi. Ayni paytda, protseduraviy mexanizmlarni amalga oshirish huquqning moddiy komponentlariga nisbatan kamroq vaqt va resurs talab etadi. Buning uchun insonning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqini ta'minlashda ochiqlikni amalga oshirish, qaror qabul qilishda jamoatchilik ishtirokini

kengaytirish, fuqarolarning ta’lim va xabardorligini oshirishga jiddiy ahamiyat qaratish zarur [36].

Ikkinchidan, qulay atrof-muhitga bo’lgan huquq tushunchasi va uning moddiy komponentlariga oid normalarni takomillashtirish zarur. Bunda milliy qonunchilikda mazkur huquqni ifodalash uchun hozirda qo’llanayotgan turli atamalarni maqbullash-tirgan holda yagona “qulay atrof-muhit huquqi” atamasini qo’llash maqsadga muvofiq.

Ayni paytda har bir davlatning o’z taraqqiyot holatidan kelib chiqib, qulay atrof-muhit huquqini ta’minlashda minimal asosiy majburiyatlarni belgilash va ularning darajasini bosqichma-bosqich oshirib borish zarur. Hozirda mamlakatimizda toza havo, xavfsiz va sifatli suv bilan ta’minlash dolzarb masala

ekanligini hisobga olgan holda, davlatning bu bo’yicha minimal majburiyatlarini aniq belgilash juda zarur.

Uchinchidan, inson huquqlari va ekologiyaga oid qonunchilikka, shu jumladan, O’zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to’g’risida”gi Qonuni 4-moddasiga retrogressiyaga yo’l qo’ymaslik (atrof-muhit va inson salomatligi muhofazasini hozirgi darajadan tushirmaslik) tamoyilini kiritish taklif etiladi. Bunday yondashuv insonning qulay atrof-muhitga bo’lgan huquqini ta’minlash bilan birga hozirgi va kelajak avlodlar uchun atrof-muhitni muhofaza qilish va uning barqarorligini ta’minlashni kafolatlab, yakunda har bir insonning hayotiy faoliyat sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Çakan S. The right to a healthy environment in international human rights law. *Ankara Social Sciences University Faculty of Law Journal*, 2024, vol. 6 (1), pp. 215–264.
2. Ruppel O.C. Human Rights and the Environment. Environmental Law and Policy in Namibia. Nomos Verlagsgesellschaft mbH Co. KG, 2022.
3. Special Rapporteur on the human right to a clean, healthy and sustainable environment, the Right to a Healthy Environment. A User’s Guide, 2024, p. 8. Available at: <https://www.ohchr.org/sites/default/files/documents/issues/environment/srenvironment/activities/2024-04-22-stm-earth-day-sr-env.pdf>
4. Brinchuk M.M. Blagopriyatnaya okruzhayushchaya sreda – vazhneyshaya kategoriya prava [A favorable environment is the most important category of law]. *Journal of Russian Law*, 2008, no. 9, pp. 37–52.
5. Zhukova N.V. Analiz ponyatiya «pravo na blagopriyatnuyu okruzhayushchuyu sredu» [Analysis of the concept of the right to a favorable environment]. *Journal of Legal and Economic Research*, 2015, vol. 4, pp. 24–28.
6. Ikramov R. Fuqarolarning qulay atrof tabiiy muhitga ega bo’lish huquqini takomillashtirish muammolari [Problems of improving the right of citizens to a comfortable natural environment]. National Library of Uzbekistan, 2006. Available at: <https://diss.natlib.uz/tanishish/c09ccb0e-74dd-42e6-8030-d2af5d167851>
7. Krasnova I.O. Pravo na blagopriyatnuyu okruzhayushchuyu sredu kak konstitutsionnoye i ekologicheskoye pravo [The right to a favorable environment as a constitutional and environmental right]. *Current Issues of Russian Law*, 2019, vol. 8, pp. 165–175.

8. Gulimov A. Orol dengizi mintaqasida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida xalqaro huquqiy hamkorlik [International legal cooperation in the field of ecology and environmental protection in the Aral Sea region]. 2024.

9. Giorgetta S. The Right to a Healthy Environment, Human Rights and Sustainable Development. *International Environmental Agreements*, 2002, vol. 2, p. 187.

10. David R.B. The Constitutional Right to a Healthy Environment. *Environment: Science and Policy for Sustainable Development*, 2012, vol. 54 (4), pp. 3–15.

11. Vienna Declaration and Programme of Action. 1993. Available at: <https://www.ohchr.org/sites/default/files/vienna.pdf>

12. United Nations General Assembly Resolution, the Human Right to a Clean, Healthy and Sustainable Environment. 2022. Available at: <https://digitallibrary.un.org/record/3983329?v=pdf>

13. United Nations General Assembly Resolution, preamble. 2006, Available at: <https://documents.un.org/doc/undoc/gen/n05/502/66/pdf/n0550266.pdf>

14. Preston B.J. The Nature, Content and Realisation of the Right to a Clean, Healthy and Sustainable Environment. *Journal of Environmental Law*, 2024, vol. 36, iss. 2, pp. 159–186.

15. Natalia K. A World of Difference: Overcoming Normative Limits of the ECHR Framework through a Legally Binding Recognition of the Human Right to a Healthy Environment. *Journal of Environmental Law*, 2025.

16. Solène K., Martha F.D. Recognizing the Human Right to a Healthy Environment: Annotated Bibliography. *Northeastern University Law Review*, 2023. Available at: <https://nulawreview.org/extralegal-recent/2023/1/10/recognizing-the-human-right-to-a-healthy-environment-annotated-bibliography>

17. Report of the Special Rapporteur on the human right to a clean, healthy and sustainable environment, Overview of the implementation of the human right to a clean, healthy and sustainable environment, 2024. Available at: <https://docs.un.org/en/A/79/270>

18. Report of the Special Rapporteur on the issue of human rights obligations relating to the enjoyment of a safe, clean, healthy and sustainable environment. Annex, Framework principles on human rights and the environment, 2018, No. A/HRC/37/59. Available at: <https://docs.un.org/en/A/HRC/37/59>

19. Danilova N.V. Pravo na blagopriyatnuyu okruzhayushchuyu sredu: sotsial'naya tsennost', soderzhaniye i sposoby zashchity [The right to a favorable environment: social value, content and methods of protection]. *Russian Journal of Legal Research*, 2015, vol. 2, no. 3, pp. 175–180.

20. Report of the Special Rapporteur on the issue of human rights obligations relating to the enjoyment of a safe, clean, healthy and sustainable environment, 2018, No. A/73/188, Available at: <https://undocs.org/A/HRC/73/188>

21. Henri S. Quantifying the affordability standard in the Human Right to Water: Theory, Practice and Prospects, L.A.R. Malcolm (Ed). Cambridge, Cambridge University Press, 2017, pp. 293–294.

22. African Charter on Human and Peoples' Rights. 1981, Article 24. Available at: <https://au.int/en/treaties/african-charter-human-and-peoples-rights>

23. Convention on Access to Information, Public Participation in Decision-Making and Access to Justice in Environmental Matters. 1998, Article 1. United Nations, Treaty Series, vol. 2161, p. 447. Available at: https://treaties.un.org/doc/Treaties/1998/06/19980625%2008-35%20AM/Ch_XXVII_13p.pdf

24. ASEAN Human Rights Declaration. 2012, p. 28. Available at: <https://asean.org/asean-human-rights-declaration/>

25. Human Rights Council Resolution. Mandate of Special Rapporteur on the human right to a clean, healthy and sustainable environment. 2024, No. A/HRC/RES/55/2, Available at: <https://docs.un.org/en/A/HRC/RES/55/2>

26. UN General Assembly Resolution. The Human Right to a Clean, Healthy and Sustainable Environment, 2022; No. A/RES/76/300. Available at: <https://digitallibrary.un.org/record/3983329?v=pdf>
27. Constitution of the Portuguese Republic. 7th revision. 2005, Article 66. Available at: <https://www.parlamento.pt/sites/EN/Parliament/Documents/Constitution7th.pdf>
28. Spanish Constitution. Section 45. Available at: <https://www.senado.es/web/conocersenado/normas/constitucion/detalleconstitucioncompleta/index.html?lang=en>
29. The Constitution of the Kingdom of Norway. Most recent amendment. 2024, Article 112. Available at: <https://lovdata.no/dokument/NLE/lov/1814-05-17>
30. Charter for the environment. France, 2004. Available at: <https://www.conseil-constitutionnel.fr/en/charter-for-the-environment>
31. Constitution of the Russian Federation. 1993, Article 42. Available at: <http://www.constitution.ru/>
32. Constitution of the Republic of Kazakhstan. 1995. Article 31. Available at: https://www.akorda.kz/ru/official_documents/constitution
33. Constitution of Georgia. Departments of the Parliament of Georgia. 1995, Article 29. Available at: <https://matsne.gov.ge/ru/document/view/30346?publication=36>
34. Constitution of the Republic of Moldova. 1994, Article 37. Available at: https://www.constcourt.md/public/files/file/Baza%20legala/constitutia_ro_22.05.17_ru.pdf
35. Turdiyev B.S. Qulay atrof-muhitga bo'lgan huquq: ekologiyaga oid qarorlar qabul qilishda jamoatchilik ishtiroki masalalari [The right to a healthy environment: issues of public participation in environmental decision-making]. *Lawyer Herald*, 2025, no. 1, pp. 8–20.
36. Turdiev B. Enhancing Environmental Transparency in Uzbekistan: Legal Perspectives from the Aarhus Convention Framework. *The American Journal of Political Science Law and Criminology*, 2024, vol. 6 (11), pp. 27–34. Available at: <https://doi.org/10.37547/ijlc/Volume04Issue11-04>.

Kelib tushgan / Получено / Received: 02.12.2024
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 18.03.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 27.03.2025

DOI: 10.51788/tsul.rols.2025.9.1./SGSV6686

UDC: 343.54+316.774(045)(575.1)

DAVLATNING BOLALARNI ZARARLI AXBOROTLARDAN HIMOYA QILISH FUNKSIYASI: QONUN VA AMALIYOT TAHLILI

Yunusova Minavvarxon Sabirovna,

Toshkent davlat yuridik universiteti

Umumta'lim fanlar va madaniyat kafedrasi professori,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ORCID 0000-0002-8180-4689

e-mail: yminovvar@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada jamiyatda zararli axborotning tarqalishi va ijtimoiy tarmoqlardagi muloqotlarning zo'ravonlik shakliga aylanishi masalalari nazariy va amaliy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda zo'ravonlik, tahqirlash va kiberbulling kabi holatlarning ko'payishi hamda ularning oldini olish yo'llari o'rganilgan. Hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biri – bolalarni zararli axborotlardan himoya qilish va axborot xavfsizligini ta'minlash masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Mazkur yo'nalishda davlat organlarining faoliyati va ularning amalga oshirayotgan amaliy choralari tahlil qilingan. Shuningdek, yoshlarni zararli axborotlar ta'siridan asrash hamda ijtimoiy tarmoqlarda zo'ravonlikka duchor bo'lish xavfini kamaytirish masalalari ko'rib chiqilgan. Maqolada zararli axborotning turlari va uning inson ruhiyatiga salbiy ta'siri tahlil qilingan. Zararli axborotlarning yosh toifalari bo'yicha tasnifi keltirilgan. Shuningdek, bolalarni himoya qilish maqsadida davlat tomonidan ishlab chiqilgan tegishli qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilinib, ularning ahamiyati ko'rsatib o'tilgan. Maqolada ushbu muammolarning oldini olish bo'yicha samarali usullar hamda ularni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berilgan. Tadqiqot natijalariga asoslangan holda, jamiyatda sog'lom axborot muhitini shakllantirishga doir amaliy tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: zararli axborotlar, raqamli texnologiya, ommaviy axborot, yosh ko'rsatkichlari, inson huquqlari, maxfiy axborot

ФУНКЦИЯ ГОСУДАРСТВА ПО ЗАЩИТЕ ДЕТЕЙ ОТ ВРЕДНОЙ ИНФОРМАЦИИ: АНАЛИЗ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА И ПРАКТИКИ

Юнусова Минаввархон Сабировна,

доктор философии по педагогическим наукам (PhD),

профессор кафедры «Общие дисциплины и культура»

Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В статье с теоретической и практической точек зрения освещаются вопросы распространения вредной информации в обществе и превращения общения в социальных сетях в формы насилия. Исследуются случаи насилия, оскорблений и кибербуллинга в социальных сетях, а также пути их предотвращения. Особое внимание уделено одной из

актуальных проблем современности – защите детей от вредной информации и обеспечению информационной безопасности. Проанализирована деятельность государственных органов в данном направлении и реализуемые ими практические меры. Также рассмотрены вопросы защиты молодёжи от влияния вредной информации и снижения риска столкновения с насилием в социальных сетях. В статье дана классификация видов вредной информации и её негативного влияния на психику человека, а также представлена возрастная градация такой информации. Проанализированы действующие законы и нормативно-правовые акты, разработанные государством с целью защиты детей, указано их значение. В статье приведены эффективные способы предотвращения данных проблем, а также рекомендации по их совершенствованию. По итогам исследования предложены практические меры по формированию здоровой информационной среды в обществе.

Ключевые слова: вредная информация, цифровые технологии, средства массовой информации, возрастные показатели, права человека, конфиденциальная информация

STATE FUNCTION TO PROTECT CHILDREN FROM HARMFUL INFORMATION: ANALYSIS OF LAW AND PRACTICE

Yunusova Minavvarkhon Sabirovna,

Professor of the Department of General Sciences and Culture,
Tashkent State University of Law,
Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

Abstract. The article theoretically and practically covers the issues of the spread of harmful information in society and the transformation of communication on social networks into a form of violence. The increase in cases of violence, humiliation, and cyberbullying on social networks, as well as ways to prevent them, were also studied. One of the pressing problems of today is the protection of children from harmful information and ensuring information security. The activities of state bodies in this area and the practical measures they are implementing are analyzed. Issues of protecting young people from the influence of harmful information and reducing the risk of violence on social networks were also considered. The article analyzes the types of harmful information and its negative impact on the human psyche. The classification of harmful information by age categories is given. Also, in order to protect children, relevant laws and regulatory legal acts developed by the state were analyzed, and their significance was indicated. The article provides effective methods for preventing these problems and recommendations for their improvement. Based on the research results, practical recommendations for the formation of a healthy information environment in society have been put forward.

Keywords: harmful information, digital technology, mass media, age indicators, human rights, confidential information

Kirish

Butun dunyoda globallashuv jarayoni-ning jadal rivojlanishi axborotning ochiq-
ligi va oshkoraligini taqozo etmoqda. Axborot
turlaridan kelib chiqib, uni tartibga soluvchi
normativ-huquqiy hujjatlar majmui mavjud.
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining
rivojlanishi va axborot turlarining o'zgarishi
bilan bog'liq ravishda ushbu jarayon Konsti-
tutsiya, fuqarolik, jinoiy va soliq kodekslari

hamda ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi ko-
deks bilan tartibga solinadi.

Ma'lum yoshdagi bolalar o'rtasida tar-
qatilishi cheklangan axborotlarga quyida-
gilar kiradi: 1) shafqatsizlik, jismoniy va
(yoki) ruhiy zo'ravonlik, jinoyat yoki bosh-
qa g'ayriijtimoiy harakatlar tasviri yoki tav-
sifi shaklida taqdim etilgan ma'lumotlar;
2) bolalarda qo'rquv, dahshat yoki vahima
uyg'otuvchi axborot, jumladan, zarar yetka-

zishi yoki yetkazish ehtimoli bo'lgan zararli fikr va yomon odatlar targ'iboti; 3) urushni targ'ib qilish, milliy, irqiy yoki diniy adovatni qo'zg'atishga qaratilgan axborot, shuningdek, uni tarqatganliklari uchun jinoiy yoki ma'muriy javobgarlik nazarda tutilgan boshqa ma'lumotlar.

Material va metodlar

Tadqiqot jarayonida zararli axborot turlari, axboriy tajovuz shakllari va bu yo'nalishdagi xorijiy tajribalarni o'rganishda tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, qiyosiy tahlil hamda shaxsga yo'naltirilgan metodlardan foydalanildi. Ushbu metodlar amaliyot va qonunlar uzviyligini ta'minlash zarurligi haqidagi asosiy xulosaga olib keldi.

Davlatning bolalarni zararli axborotlardan himoya qilish funksiyasi jamiyatning barqaror rivojlanishi va axloqiy qadriyatlarni saqlash nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. Bu funktsiyani turli jihatlaridan tahlil qilish mumkin.

Huquqiy bazani shakllantirish

Davlat bolalarni zararli axborotlardan himoya qilish uchun tegishli qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqishi hamda ularni amalda nazorat qilishi lozim. Axborot va OAV sohasidagi qonunlar, bolalar huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi xalqaro konvensiyalarga muvofiq keladigan milliy qonunchilik va internet foydalanuvchilari uchun senzura yoki kontent filtrlash mexanizmlarini joriy etish dolzarb sanaladi [1].

Ma'muriy va nazorat funksiyalari

Davlat tegishli organlari (masalan, O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi, ta'lim tizimi va boshqa nazorat idoralari) orqali zararli axborot tarqatuvchilarga nisbatan nazoratni yanada kuchaytirish muhimdir. Bunda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur: internetdagi zararli kontentni aniqlash va bloklash, bolalar uchun zararli deb topilgan kontentni tarqatganlik uchun jazo choralarini kuchaytirish, shuningdek, bolalar kontentiga mos yoshga oid reyting tizimini joriy etish.

Ta'lim va targ'ibot

Davlat bolalarning axborot xavfsizligini ta'minlash maqsadida raqamli muloqot saviyasini oshirish bo'yicha ta'lim dasturlari ishlab chiqishi lozim. Maktablarda axborot madaniyati va xavfsizligi bo'yicha ta'lim berish, ota-onalarni bolalarni internet xavflaridan himoya qilishga o'rgatish hamda axborot madaniyatini targ'ib etish orqali zararli kontentga qarshi immunitet shakllantirish mumkin [2].

Texnik vositalar joriy etish

Kontent filtrlari va qo'shimcha dasturlar ishlab chiqish va o'rnatish, bolalar uchun xavfsiz platforma va veb-saytlar yaratish zararli axborotlarga qarshi turish uchun texnik yechimlar sanaladi.

Samaradorlikni baholash

Davlat o'tkazayotgan chora-tadbirlar natijadorligini doimiy baholash orqali ularni takomillashtiradi; zararli axborot tarqatilishi darajasini kuzatadi; bolalarning ruhiy holatiga zararli axborotning ta'sirini o'rganadi; xalqaro tajribani tahlil qiladi va o'zlashtiradi [2, 3].

Tadqiqot natijalari

So'nggi yillarda zararli axborot turlari, ularning ta'sir doirasi, shakl va uslublari jadal o'zgarib bormoqda. Butun dunyoda olib borilayotgan ongga majburiy axborot ta'siri, raqamli muloqotlarda zo'ravonlikning har xil ko'rinishda tus olishi ongda "qisqa tutashuv"larga sabab bo'lmoqda. Ushbu holatlarning nazariyotchi olimlar tomonidan tahlil qilinishi asnosida zo'ravonlikning yangidan yangi turlari vujudga kelayotgani ta'kidlanmoqda. Jumladan, bulling, roasting, trolling, fleyming, auting, freyping, kiberstalking, ketfishing va boshqalar.

Xorijiy tajribaga nazar soladigan bo'lsak, jumladan, quyidagi holatlarga guvoh bo'lamiz. Fransiyada bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi ma'lumotlardan himoya qilish bir qator qonunchilik tashabbuslarini o'z ichiga oladi. Bu mamlakatda 2024-yilning fevral oyida bolalar huquqlarini mustahkamlovchi 2024-120-sonli qonun qabul qilindi va internetda bolalarni himoya

qilish laboratoriyasi tashabbusi bilan ularni muhofaza qilish yuzasidan faol ish olib borilmoqda. Ushbu yondashuv asosida bolalarga nisbatan bulling va zo'ravonlikning boshqa har qanday turiga qarshi kurashish uchun jinoiy va fuqarolik choralarini birlashtirish orqali yaxshi samaralarga erishilyapti.

Zamonaviy bolalar uchun axborot muhiti yaratish jarayonida o'yinlarga moyil bo'lgan yangi avlod shakllandi. Bunday bolalar ko'pincha boshqalarning azob-uqubatlari va og'rig'iga nisbatan hissiy befarqlik, nazoratsiz tajovuzkorlik va o'ynash imkoniyati bo'lmasa, depressiv holatlarga tushish kabi xatti-harakatlarni namoyon qilmoqda [4, 5].

Raqamli texnologiyalar (kompyuter va nokompyuter o'yinlari, o'yinchoqlar, telefilm-lar va seriallar) orqali turli yoshdagi bolalar beixtiyor qahramonlar bilan tanishib, jinoiy jargon, tashqi ko'rinish va uslubni idrok etib, ularni o'zlashtirishga moyil bo'lib bormoqda. Haqiqiy va virtual jinoiy muhit vakillarining kiyinish uslubi, shafqatsiz usullari, hujum strategiyalari, zaiflarni qo'rqitish kabi xatti-harakatlari bolalarga ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada ular zo'ravonlik, qotillik va o'z joniga qasd qilish sahnalarining guvohi bo'lish orqali bunday hodisalarga nisbatan befarqlashishi yoki ularni o'z xatti-harakatlarida aks ettirishi mumkin [6].

Niderlandiyada bolalar qonunchilik, davlat siyosati va muntazam monitoring orqali ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi ma'lumotlardan himoyalangan [3]. Mamlakatda bolalarning internet tarmog'idagi huquqlarini hurmat qilish va himoya etish bo'yicha choratadbirlar faol amalga oshirilmoqda. Niderlandiya Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya tamoyillariga rioya qiluvchi bolalar uchun eng xavfsiz mamlakatlardan biri hisoblanadi. U yerda zo'ravonlikning oldini olish bo'yicha himoya mexanizmlarini faollashtirish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Tadqiqot natijalari tahlili

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq, har kim axborotni erkin izlash,

olish, tekshirish, tarqatish, undan foydalanish va saqlash huquqiga ega. Biroq foydalanilayotgan axborot hech kimga zarar yetkazmasligi va uning ishlatilishi oshkora bo'lishi lozim. Bu tamoyillar "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi Qonun bilan himoyalangan. Mazkur qonunning 4-moddasida "Axborot olish faqat qonunga muvofiq hamda inson huquq va erkinliklari, konstitutsiyaviy tuzum asoslari, jamiyatning axloqiy qadriyatlari, mamlakatning ma'naviy, madaniy va ilmiy salohiyatini muhofaza qilish, xavfsizligini ta'minlash maqsadida cheklanishi mumkin", deb belgilangan.

Maxfiy axborot – bu foydalanilishi qonun hujjatlariga muvofiq cheklab qo'yiladigan, hujjatlashtirilgan axborot demakdir. Bunday axborotdan foydalanish uchun maxsus ruxsatnomaga ega bo'lish zarur. Ushbu axborotga fuqarolarning huquq va erkinliklari, ularni ro'yobga chiqarish tartibi to'g'risidagi, shuningdek, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqiy maqomini belgilovchi qonun hujjatlari; ekologik, meteorologik, demografik, sanitariya-epidemiologik, favqulodda vaziyatlar to'g'risidagi ma'lumotlar hamda aholi punktlari, ishlab chiqarish obyektlari va kommunikatsiyalari xavfsizligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan boshqa axborotlar kirmaydi.

Ommaviy axborot cheklanmagan doiradagi shaxslar uchun mo'ljallangan hujjatlashtirilgan axborot, bosma, audio, audiovizual hamda boshqa xabarlar va materiallar hisoblanadi. Ammo undan hamma erkin foydalanishi mumkinligi ta'minlangan va haqqoniy bo'lishi kerak [7].

Umuman, jarayonlarni yaxshilab tushunib olish uchun axborotlarni shartli ravishda 5 turga bo'lish mumkin.

1. Birinchi turdagi axborotlar bu foydali axborotlardir. Masalan, tabiiy fanlar, texnologiyalar, to'g'ri tarbiya va odob-axloqqa oid bo'lgan bilimlar.

2. Ikkinchi turdagi axborotlar bu foydasiz axborotlardir. Masalan, qaysidir qo'shiqchining tushlikda nima tanovul qilishi kimgadir qiziq, kimgadir umuman foydasiz bo'lishi mumkin.

3. Uchinchi turdagi axborotlar bu zararli axborotlardir. Masalan, giyohvandlik, psixotrop moddalar iste'mol qilish, ekstremizm, odamlar yoki hayvonlarga nisbatan shafqatsizlik qilish mumkinligini asoslaydigan axborotlar. Odatda, bu kabi axborotlar boshqa turdagi axborotlardan oson ajratib olinadi.

4. To'rtinchi turdagi axborotlar barcha uchun zararli bo'lmasa-da, u axborot keng tarqalmagan boshqa hudud yoki millatlar uchun zararli bo'lishi mumkin. Masalan, submadaniyatlar, ya'ni jamiyat madaniyatining keskin farqlanuvchi jihatlarini boshqa jamiyatlarga tarqatish.

5. Beshinchi turdagi axborotlar bevosita zararli yoki aqidaparastlik g'oyalari bilan yo'g'rilmagan bo'lsa-da, zararli va aqidaparastlik axborotlarini tarqatuvchi manbalardan (sayt, ijtimoiy tarmoq, shaxslar va tashkilotlar) tarqalayotgan axborotlardir. Masalan, aqidaparastlik materiallarini tarqatuvchi sayt ota-onaga yaxshilik qilish haqida maqola e'lon qilishi ham mumkin [2].

Uchinchi turdagi zararli axborotlarni tartibga solish maqsadida 2018-yil 10-martda O'zbekiston Respublikasining "Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni kuchga kirdi.

Ushbu qonunning 16-moddasida bolalar o'rtasida tarqatilishi taqiqlangan axborot mahsulotlari tasniflab berilgan. Maxsus vakolatli davlat organining bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish sohasidagi vakolatlari belgilab qo'yilgan. 17-moddada axborot mahsulotining yoshga oid tasnifi va yosh toifalarini belgilash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Endilikda ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, internet jahon axborot tarmog'idagi veb-saytlar, blogerlar, reklama vositalari hamda boshqa turdagi axborot ka-

nallari orqali tarqatilayotgan axborotlarda bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan axborotdan himoya qilish maqsadida 0+, 7+, 12+, 16+, 18+ yozuvlari aks ettirilishi shart [8].

Qonunga ko'ra, yoshga oid tasnifi belgilash axborot mahsulotini ishlab chiqaruvchilar va tarqatuvchilar tomonidan, shu jumladan, ekspertlarni jalb etgan holda, mamlakat hududida tarqatish boshlangunga qadar amalga oshiriladi.

Zararli axborotlar mazmun-mohiyati, zarar yetishi va tajovuzkorona harakatlar turlari muhiti, vaziyati, tarqatayotgan axborot turidan kelib chiqib, bir necha xil bo'ladi.

Bulling yoki zo'ravonlik (ingliz tilida – bezorilik) boshqalarga zarar yetkazish niyatining paydo bo'lishi bilan tavsiflangan xatti-harakatlarning patologik shakli hisoblanadi. Tajovuzkorning asosiy vazifasi jabrlanuvchini xafa qilish, qayta-qayta va muntazam ravishda tahqirlashdir [9, 10].

Bulling ko'pincha mobbing bilan taqqoslanadi, ammo bu tushunchalar bir-biridan farq qiladi. Bulling holatida tajovuzkorlik, asosan, bir kishi tomonidan sodir etiladi, mobbing esa jamoaviy bezorilik hisoblanadi. Bu holatni jamoalarda keng kuzatish mumkin. Bu kabi holatlarni armiyadagi yangi chaqirilganlarga munosabatda, maktablardagi darslarda, universitetlardagi oqimlarda, tashkilotlardagi bo'limlarda kuzatish mumkin. Bulling qurbonlari orasida bolalar, kam ta'minlangan oilalar o'smirlari, qishloqdan kelgan mehmonlar, iqtidorli (tashqi ko'rinishi, tafakkuri va harakatlari bilan bir-biridan farq qiladigan) bolalar ko'p uchraydi.

Xulosalar

Raqamli muloqot ta'sirida kuzatilayotgan zo'ravonlik turlarining ilmiy-nazariy tahlili hamda bu boradagi xorijiy davlatlar tajribalarini tadqiq etgan holda, quyidagi xulosalarga kelish mumkin: axborotni olish, qayta ishlash va undan foydalanish davrida, albat, qonuniylik, adolatlilik va ochiqlikka rioya qilinishi shart. Axborot turlarining o'zgarib

borishi ularga nisbatan munosabatning ham o'zgarishiga olib kelmoqda. Hozirgi kunda dolzarb bo'lgan raqamli axborotning alohida tartibga solinishi talab qilinmoqda. Olingan rasmlar, videolar ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilishi yoki ommaviy axborot vositalarida berilishi masalasida qat'iy talablar o'rnatilishi kerak. Bu borada yuqorida eslatilgan qonunda ko'zda tutilgan qoidalarga amal qilish har doim ham nazoratda bo'lishiga kafolat berilmayapti. Buning uchun qonunda belgilab qo'yilgan vakolatli organlar va ota-onalar birgalikda bolalar himoyasini ta'minlashda kurashishi zarur.

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 8-iyundagi 317-son qarori asosida my.gov.uz portalida "Bolalar sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish bo'yicha ekspertlarni akkreditatsiya qilish" xizmati yo'lga qo'yildi. Ushbu interaktiv xizmat orqali bolalar sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish sohasi ekspertlari akkreditatsiyadan o'tish uchun elektron ariza berish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Talabgorlar oliy ma'lumotli, pedagogika, yoshga oid psixologiya va fiziologiya, bolalar psixiatriyasi sohalarida zarur bilimlarga (diplom yoki sertifikatga) ega bo'lishi kerak.

Ekspertlarni akkreditatsiya qilish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan amalga oshiriladi. Akkreditatsiyadan muvaffaqiyatli o'tgan ekspertlarga guvohnoma beriladi. Guvohnomaning amal qilish muddati – 5 yil [11].

Olib borilayotgan bu amaliyot o'z natijasini berishi uchun uni barcha bolalar bilan ishlaydigan mutaxassislarga qo'llash va ularni zararli axborotlar toifalari bilan muntazam tanishtirib borish lozim.

"Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 4-moddasi asosiy tushunchalarni o'z ichiga olgan. Biroq "bolalarning sog'lig'i" atamasiga berilgan ta'rifda "psixologik ta'sir" tushunchasi kiritilmagan. Vaholanki, hozirgi kunda axborot zo'ravonli-

gi ta'siridagi psixologik tajovuzlar jismoniy, ruhiy va ijtimoiy jihatdan sog'lomlik holatiga nisbatan ko'proq kuzatilmoqda.

Bundan tashqari, qonun matniga "bolalarga xos bo'lmagan imij" tushunchasi kiritilishi lozim. Bu atama bolalarning jismoniy, ruhiy, psixologik va ijtimoiy sog'lomlik holatiga ta'sir qiluvchi omillarni anglatadi. Ayniqsa, ota-onalarning farzandlarga xos bo'lmagan imij yaratishga urinishlari bolalarni zo'ravonlik qurboniga aylantirish xavfini oshiradi.

Bu holat bullingning bir turi sifatida baholanishi to'g'ri bo'ladi. Shuning uchun bolalarning yaqin qarindoshlari ushbu holatning oldini olish va uning oqibatlari uchun javobgarlikka tortilishi lozim.

Amaldagi "Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 7-moddasida bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilishni amalga oshiruvchi organlar va tashkilotlar tizimi keltirilgan. Amalda bolalarni sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilishni amalga oshiruvchi muhit, birinchi navbatda, oila bo'lishi lozim. Shundan kelib chiqib, bu borada bolalarning yaqin qarindoshlariga ko'proq mas'uliyat va javobgarlik yuklatilishi zarur. Ushbu moddada "organlar va tashkilotlar tizimi" deb keltirilgani tufayli bu masalada qo'shimcha modda kiritilishi maqsadga muvofiqdir.

Qonunning 16-moddasida bolalarning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborot tasniflangan [12]. Unda bolalarning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborot jumlasiga bolalar o'rtasida tarqatilishi taqiqlangan axborot mahsuloti, shuningdek, muayyan yosh toifalaridagi bolalar o'rtasida tarqatilishi cheklangan axborot mahsuloti sanab o'tilgan.

Muayyan yosh toifalaridagi bolalar orasida tarqatilishi cheklangan axborot mahsulotlari qatoriga hozirgi kunda dolzarb bo'lgan va zararli axborotlar ichida yetakchi o'rin egallayotgan, milliy mentalitetimizga yot g'oyalarni targ'ib etuvchi oqimlar va axborot xurujlarini kiritish ham muhim talablardan biri hisoblanadi.

REFERENCES

1. Verbitskiy A.A. Tsifrovoye obucheniye: problemy, riski i perspektivy [Digital learning: problems, risks and prospects]. *Homo Cyberus*, 2019, vol. 1 (6). Available at: http://journal.homocyberus.ru/Verbitskiy_AA_1_2019
2. Kenjebayev A.T., Mamasoatov D.R. O'zbekistonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va internetning rivojlanishi: yutuqlar va istiqbollar [Development of information and communication technologies and the Internet in Uzbekistan: achievements and prospects]. *Economy and Innovative Technologies*, 2015, no. 6, pp. 56–61.
3. Yegorov A.Yu. Nekhimicheskiye zavisimosti [Non-chemical dependencies]. St. Petersburg, 2007, p. 190.
4. Abramenkova V.V. Sovremennaya detskaya informatsionnaya sreda — territoriya opasnosti [The modern children's information environment is a dangerous territory] In: *Social Psychology of Childhood*. Moscow, INFRA-M Publ., 2020, pp. 423–438.
5. Maslova Yu.V. Pozitivnyye i negativnyye aspekty ispol'zovaniya komp'yuternykh tekhnologiy u detey i podrostkov [Positive and negative aspects of using computer technologies in children and adolescents]. *Educational Technologies and Society*, 2013, no. 4. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/pozitivnye-i-negativnye-aspekty-ispolzovaniya-kompyuternyh-tehnologiy-u-detey-i-podrostkov/viewer>
6. Abramenkova V.V. Shkol'noye nasiliye i organizatsiya bezopasnosti detstva v obrazovatel'nom prostranstve [School violence and the organization of childhood safety in the educational space]. *Social and humanitarian research and technology*, 2017, vol. 2 (19), pp. 34–39.
7. Jamiyatni zararli axborotdan himoya qilish inson huquqlarini buzmasligi kerak. Advokatdan qonunchilik bo'yicha tavsiyalar [Protecting society from harmful information should not violate human rights. Legal advice from a lawyer]. Available at: <https://kun.uz/kr/news/2023/07/06/jamiyatni-zararli-axborotlardan-himoya-qilishda-inson-huquqlari-buzilmasligi-kerak-huquqshunosdan-qonunchilikka-tavsiyalar>
8. New research from The Economist and Microsoft shows digital preparedness helped organizations adapt to COVID-19. By Microsoft News Center, 2021, May 6. Available at: <https://news.microsoft.com>
9. Antonyan Yu.M. Sotsial'noye vliyaniye [Social Impact]. St. Petersburg, 2013, p. 448.
10. Blinov V.I., Dulinov M.V., Yesenina Ye.Yu., Sergeyev I.S. Proyekt didakticheskoy kontseptsii tsifrovogo professional'nogo obrazovaniya i obucheniya [Project of the didactic concept of digital vocational education and training]. Moscow, Feather Publ., 2019, p. 72.
11. Zaripov O.M. Yoshlarni axborot xurujlaridan himoyalashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari [Socio-psychological features of protecting young people from information attacks]. 2022.
12. O'zbekistonda yangi qonun kuchga kirdi [A new law has come into force in Uzbekistan.]. Available at: <https://www.xabar.uz/jamiyat/ozbekistonda-yangi-qonun-kuchga-kirdi>
13. Norton P. Computer Potential and Computer Educators: a Proactive View of Computer Education. *Educational Technology*, 1983, vol. 23, no. 10, pp. 25–28.
14. Vorob'yeva I.A., Zhukova A.V., Minakova K.A. Plyusy i minusy tsifrovizatsii v obrazovanii [Pros and cons of digitalization in education]. *International Research Journal*, 2021, vol. 1–4 (103), pp. 110–118.
15. Pravda i lozh' o tsifrovom obrazovanii [Truth and Lies About Digital Education]. Available at: <http://www.ug.ru/archive/75140>
16. Bolalarni zararli axborotdan himoya qilish xizmati ishga tushirildi [A service to protect children from harmful information has been launched]. Available at: <http://m.xabar.uz/jamiyat/bolalarni-zararli-axborotdan-himoya>

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal
Правовой научно-практический журнал
Legal scientific-practical journal

2025-yil 1-son

VOLUME 9 / ISSUE 1 / 2025
DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2025.9.1.